

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

ABDILAKIMOV Gafur Abdixalikovich

**MOLIYA, SOLIQ BA SOLIQQA
TORTISH, KREDIT MUNOSABATLARI
(Soliq va soliqqa tortish)**

O'QUV QO'LLANMA

60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
bakalavriat ta'lif yo'nalishi talabalari uchun

Toshkent – 2022

Annotatsiya

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Moliya, soliq ba soliqqa tortish, kredit munosabatlari (Soliq va soliqqa tortish)” namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, fanining predmeti va o‘rganish usullari, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. O‘quv Qo‘llanmadan pedagogika oliy ta’lim muassasalarining 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun asosiy o‘quv adabiyoti sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Аннотация

Это учебное пособие основан на стандартной научной программе «Финансы, налогообложение, кредитные отношения (Налоги и налогообложение)», в котором расскрываются предмет и методы изучения, налог на прибыль организаций, упрощенное налогообложение, налог на добавленную стоимость. Учебное пособие рекомендуется использовать в качестве базового учебника для студентов бакалавриата педагогических вузов по специальности 60111000 – Методика обучения основам экономики и географии.

Annotation

This textbook is based on the standard scientific program “Finance, taxation, credit relations (Taxes and taxation)”, which reveals the subject and methods of study, corporate income tax, simplified taxation, value added tax. The textbook is recommended to be used as a basic textbook for undergraduate students of pedagogical universities in the specialty 60111000 – Fundamentals of Geography and Economics.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to'g'risidagi ta'limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o'ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo'lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o'rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiq qilishni o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi PF-5468-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagagi “Soliq ma'muriyatçiligin tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5116-sonli Farmoni soliq tizimida tubdan o'zgartirshga asos bo'ldi.

“Moliya, soliq ba soliqqa tortish, kredit munosabatlari (Soliq va soliqqa tortish)” fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyo qarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Hozirgi sharoitda mamlakatimiz ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar tayyorlanayotgan yosh mutaxassislarni jahon talablariga javob beradigan darajada bo'lishini talab etmoqda. Ayniqsa, bu iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassisliklarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan iqtisodiy fanlar muhim o'rincutadi.

Jamiyat taraqqiyotida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, ta'lim-tarbiya sohasi vakillarining mas'ulligi ham muhim o'rincutadi. Bu jihatning maqsadga muvofiqligi shu jamiyatning har tomonlama ravnaqini belgilovchi o'zak nuqta sanaladi. Ushbu ijtimoiy-tabiiy qonuniyat insoniyat tarixining hamma davrlarida ham dolzarb o'rinni egallab kelgan. Ayniqsa, hozirgi globallashgan axborot-texnika asrida yanada muhim bosqichga ko'tarilgan. Buni mamlakatimizda kechayotgan jadal sur'atdagi islohotlarning tub negizi ta'lim-tarbiya tizimini, metodik ta'minotini takomillashtirish, yosh avlodning ma'nан hamda jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlash, yuksak intellektga, boy bilim va tajribaga ega mas'uliyatli, fidoyi va talabchan pedagogarlarni munosib rag'batlantirish, ularning safini kengaytirish, tajribasidan munosib foydalanish kabi bir qator yo'nalishlarga borib taqalashi ham yaqqol ifodalab turadi. Bu borada maktabgacha ta'lim sohasi ustuvor mavqeni egallaydi. Zero, inson umri davomida oladigan axborotlarning asosiy qismi maktabgacha ta'lim davriga to'g'ri kelishi boisidan, bu davrda bolaning kelajagi, shaxs sifatidagi takomilida tamal vazifasini o'tovchi muhim va munosib ma'lumotlarni

taqdim qilib borish ijtimoiy-pedagogik zaruratdir.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasidagi beshta ustuvor yo‘nalishlarda ko‘zda tutilgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalgalashirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish, yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishslash asosida yuqori qo‘sishimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish, prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta’minalash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag‘batlantirish siyosatini davom ettirishni o‘z ichiga qamrab olgan. Buning uchun, eng avvalo, fanining predmeti va o‘rganish usullari, yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi, qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi jarayonlarni tadqiq qilishga bog‘liqdir.

Shunday jarayonlarni tadqiq qiluvchi fan sifatida “Moliya, soliq ba soliqqa tortish, kredit munosabatlari (Soliq va soliqqa tortish)” fani qatnashadi. Talabalarga mazkur fan xususiyatlari doirasida mamlakatimizda amalgalashirishga qaratilgan islohotlar va ularning natijalarini aks ettiruvchi materiallar, qoidalar va xulosalarni puxta o‘zlashtirishlari, kelgusi faoliyatida samarali foydalanishlari hamda ijodiy yondoshishlarini ta’minalash fanni o‘rganish oldida turgan asosiy vazifalaridan biridir.


Fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarga soliq va soliqqa tortish fanidan turli mavzular, ularga oid masalalarni hal etish uchun ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Muallif tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2021-yil 28-avgustda tasdiqlangan “Soliq va soliqqa tortish” fanining o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, har bir bo‘limda tayanch so‘zlar berilgan bo‘lib, qo‘llanma oxirida o‘tilgan mavzular bo‘yicha Glossariy, “Moliya, soliq ba soliqqa tortish, kredit munosabatlari (Soliq va soliqqa tortish)” fanidan testlar berilgan. Qo‘llanma nafaqat universitet talabalari, balki magistrlar va o‘qituvchilar uchun, shuningdek, ushbu kursga qiziquvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur o‘quv qo‘llanma 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun “Moliya, soliq ba soliqqa tortish, kredit munosabatlari (Soliq va soliqqa tortish)” kursiga qo‘yiladigan talablarga javob beradi va uni kitobxonlar e’tiboriga tavsiya etish mumkin.

.



1. “SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH” FANINING PREDMETI VA O’RGANISH USULLARI

Tayanch so‘z va iboralar: *maqsad, metod, predmet, soliq, soliq ob’ekti, soliq sub’ekti, soliq yuki, munosabat, amaliyot, nazariya, umum davlat soliqlari, mahalliy soliqlar, soliq tizimi, byudjet, majburiy to’lov.*

1-§. Soliqlar va soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi, predmeti va funksiyalari.

Soliqlar va soliqqa tortish fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. Bu fanni o‘qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o‘sib borayotganligidan kelib chiqadi. Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o‘rganish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo‘llarini o‘rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq amaliyotidagi eng to‘g‘ri, eng mukammal va eng progressiv voqeliklarni o‘rganib, amaliyot uchun xuddi bir dasturiy amalday yoritib boradi. Nazariya voqeliklarni amaliyotdan oladi va yana amaliyotga eng to‘g‘ri, ma’qul va ilg‘or tajribalar olinib amaliyotga yo‘l ko‘rsatish uchun o‘rgatiladi. Demak, nazariya amaliyot uchun kerak va amaliyot uchun kompas, barometr, yo‘l boshlovchi vazifasini bajaradi. Nazariyasiz amaliyot yo‘ldan adashgan yo‘lovchidir. Nazariyani chuqur bilgan amaliyotchi har qanday o‘zgarishlarda ham ishlab keta oladi va yo‘ldan adashmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi amaliyotda yo‘ldan adashmaslik, keraksiz soliqlar bo‘yicha o‘zgartishlarga yo‘l qo‘ymaslik, amaliyotda istiqbolli qadamlar tashlash uchun va katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun ham zarurdir. Soliqlar va soliqqa tortish fani soliq nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liqdir, uning maxsus bo‘limi, ya’ni chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Chunki soliq nazariyasi qonuniyatlarini umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi, ularga asoslanadi va rivojlantiriladi.

Soliq munosabatlari moliya munosabatlarining tarkibiy qismi bo‘lganligi bois, soliqlar va soliqqa tortish fani ham moliya nazariyasi fani bilan chambarchas bog‘liq. Soliqlar va soliqqa tortish fanining o‘ziga xos xususiyatlari soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy xarakterga ega bo‘lgan pul munosabatlarini o‘rgatadi.

Soliqlar va soliqqa tortish fani davlat byudjeti fani bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki soliqlar oxir oqibatda byudjet daromadlarini shakllantiradi. Soliqlar (daromadlar) bo‘lmasa byudjet munosabatlarining o‘zi bo‘lmaydi. Bu fan chet mamlakatlar soliq tizimi, moliyaviy hisob, soliq qonunchiligi asoslari, soliqlarni proqnoz qilish fanlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Har qanday fan o‘zining predmetiga, ya’ni izlanish ob’ektiga ega bo‘ladi. Masalan, texnologiya fanining predmeti bo‘lib kimyoviy moddalarning tarkibini o‘rganish hisoblansa, mashinasozlik fani uchun mashinalar mexanizmini xarakteristikasi bo‘lsa, soliqlar va soliqqa tortish fanining predmeti soliq

munosabatlarini (harakatini), soliqlar mexanizmini har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Fanning predmeti soliq voqe'liliklari pul munosabatlarini o'rganishdan iborat bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o'z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o'rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati shu o'rtadagi munosabatni chuqur o'rganish, ularni to'g'ri tashkil qilishni ta'minlashdir. To'g'ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e'tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Tushunarliroq qilib aytsak, byudjetga soliqlarni olishda soliq to'lovchilar bo'yniga ortiqcha og'irlilik osmaslik, ularni o'z ishlab chiqarishidan manfaatdorligini so'ndirib qo'ymaslik, ularning dasturlari va rejalarini tez - tez o'zgartirishga olib bormaslik va hokazolarga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Bu yerda tomonlarning do'stona munosabatda bo'lishi, bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlar bo'lishini o'rgatadi. Fanning predmetini chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo'ravonlik munosabati bo'lguday bo'lsa, ikkinchi tomon unga javoban o'z daromadlari, boshqa soliq ob'ektlarini har xil yo'llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday xuquqiy hujatlarning ham kuchi etmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq ob'ektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o'rganish orqali amaliyatda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funktsiyalari soliq mutaxassisini va boshqa soliq idoralari xodimlarini nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyatda adashmaslik uchun yo'l - yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o'zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir. Demak, fanning asosiy funktsiyasi yuqori malakali soliq mutaxassislari tayyorlashda ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlashdir.

Soliqlarning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun hamda hozirgi O'zbekistonda ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat uni tashkilotchisi ekanligidan soliqlar va soliqqa tortish fani davlatning o'ta zarur bo'lgan xilma - xil vazifalari bilan chambarchas bog'liq va ularga asoslanadi. Davlat mamlakatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish uni taqsimlashning qonun - qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan davlat uni taqsimlashni ham pul munosabatlari orqali, ya'ni soliq, pul va kredit orqali amalga oshiradi. Davlatning bunday faoliyatini o'rganish - soliqlar va soliqqa tortish fanining diqqat - markazida turadi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa qonunlar orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti - erkin iqtisodiyot, pulli munosabatlar iqtisodiyotidir. Soliqlar ham pul munosabatlarini ifoda etganligi uchun bozor iqtisodiyoti tarkibiga kiradi, uning ajralmas qismidir. Bozor iqtisodiyoti qonunlari - soliqlar va soliqqa tortish fanining asosini tashkil etadi. U qonunlarni chuqur anglamasdan turib soliqlar va soliqqa tortish mexanizmini tushunib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o‘rganib chiqib, davlat yalpi ichki mahsulot qiymatini soliqlar orqali taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, davlat to‘g‘risidagi ta’limot - davlat iqtisodiyotni boshqarishda bosh rol o‘ynashi soliqlar va soliqqa tortish fanining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Davlat bozor iqtisodiyotini boshqarishda etakchilik, boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Davlat soliqlarni iqtisodiy mohiyati va vazifalarini o‘rganib chiqib, uni amaliyotga tadbiq qilishni o‘z zimmasiga oladi.

Soliq xizmati xodimlari o‘zlariga qonuniy hujjatlarda yuklangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat amaliy jihatdan soliqlarni bilibgina qolmasdan, soliqlarning mohiyati, belgilari, ularning ob‘ektiv zarurligiga, davlatning soliq siyosati, soliqlar tizimi, soliqqa tortish tizimi, soliq idoralari tizimi va boshqalar kabi nazariy masalalarni chuqur bilishlari zarur. Buning uchun esa soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish kerak. Shuni nazarda tutish zarurki, Leonardo da Vinchi aytganidek: «Nazariya qo‘mondon, amaliyot askarlardir» Nazariya amaliyotni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi kompasdir. Har qanday vazifalarni kadrlar hal qiladi. Shuning uchun, ular chuqur nazariy bilimga va kasb mahoratiga ega bo‘lishlari zarur.

Fanning mazmunini chuqur egallagan har qanday mutaxassis soliqlar va soliqqa tortish jarayonini o‘rganishda va ularni hayotga to‘g‘ri hamda to‘liq tadbiq etishda adashmaydi. Shunday ekan bu fan soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, ilmiy xodimlar uchun o‘zlarining ilmiy salohiyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-§. Umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlari, soddalashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi soliqlar tizimi deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi xududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari amal qiladi hamda ular O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlari hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari amal qiladi.

Umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘silgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlari;

6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq: umumdavlat soliqlari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi moliya yili uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat byudjeti proqnozi to‘g‘risidagi maxsus qarori asosida belgilangan normativlar bo‘yicha tegishli mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi.

7) davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlari:

- ⊕ yagona ijtimoiy to‘lov;
 - ⊕ byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga fuqarolarning sug‘urta badallari;
 - ⊕ Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar;
- 8) davlat boji;

9) bojxona to‘lovlari;

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to‘lanadigan umumdavlat soliqlari:

10) yagona soliq to‘lovi;

11) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarga quyidagilar kiradi:

1) mol-mulk solig‘i;

2) yer solig‘i;

3) ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;

4) yagona yer solig‘i (soddalashtirilgan tartibdaga soliq).

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlар to‘lovchisi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi hujjatlariga muvofiq, mulkchilik shaklidан qat’iy nazar yuridik va jismони shaxslar hisoblanadi.

Mol-mulk solig‘i va yer solig‘i O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga binoan joriy etiladi va uning butun hududida undiriladi.

Ushbu soliqlar stavkalarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

Ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan joriy etiladi. Ushbu soliqlar va yig‘imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ayrim mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni umumiyl, qat’iy stavkalarda belgilashi mumkin.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar stavkalari soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, ayrim turdagи tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagи xizmatlarni ko‘rsatish huquqi uchun yig‘imlarning miqdorlari, ularni undirish tartibi, ular bo‘yicha qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etish Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari va viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Yuridik shaxslar tomonidan byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi byudjetga to‘lovlар bo‘yicha qarzlar hisobi hisobvaraqlarida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlар har bir turi bo‘yicha yuritiladi.

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘lanishi, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlар to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lovchilar zimmasiga yukланади.

Mahalliy soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lanishining tasdig‘i bo‘lib amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq bank muassasasi yoki vakolatli organ bergen hujjat hisoblanadi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo‘linishi hukumat

idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo‘linishi asosida kelib chiqadi. Har bir hokimiyat idoralari o‘zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o‘z byudjetiga va uni ta’minlaydigan soliqlarga va boshqa majburiy to‘lov larga ega bo‘lishi kerak. Respublika hukumati umum davlat miqyosida katta vazifalarni, jumladan, sog‘liqni saqlash, maorif, fan, mudofaa, xavfsizlikni saqlash, aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etish va boshqa bir qator shu kabi strategik vazifalarni bajaradi. Shuning uchun uning byudjeti ham soliqlari ham salmoqli bo‘lishni talab etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umum davlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushushi mumkin. Bordi-yu, ajratma etmasa subvensiya yoki subsidiya beriladi. Umum davlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo‘lib, ular byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar hisoblanadi.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to‘liq biriktirib beriladi. Mahalliy xokimiyat organlari asosan fuqarolarga yaqin bo‘lganligidan ularga ijtimoiy masalalarni, jumladan, maktab, sog‘liqni saqlash, madaniyat, maorif, shahar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Lekin bu soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ularning byudjet xarajatlarining 30-40 foizini qoplaydi, xolos.

Shuning uchun ham mahaliy byudjetlar daromadlarini ko‘paytirish eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mahalliy soliqlarning muhim xususiyati shundaki ular faqat shu hududning byudjetiga tushadi va ulardan boshqa byudjetlarga ajratmalar berilmaydi.

Mahalliy byudjetlarning soliq va boshqa majburiy to‘lovlar kam bo‘lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir. Bu masalani echishda umum davlat soliqlaridan ajratmalar beriladi. (masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘idan, aksiz solig‘idan va boshqalar).

O‘zbekiston soliq tizimida soddalashtirilgan (ixchamlashtirilgan) soliq tizimiga o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagi soliqlarni to‘laydilar:

1) Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi to‘lanishini nazarda tutuvchi soliq solish tizimi qo‘llanilishi mumkin. Aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan, shuningdek foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalar Soliq kodeksida (350-modda) belgilangan tartibda aksiz solig‘i va yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar to‘laganlari taqdirda yagona soliq to‘lovi ularga tatbiq etilmaydi. Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilarda import qilinadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘ini va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash majburiyati ham saqlanib qoladi.

2) Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalari foya solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i (tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilish bundan mustasno), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar, yer solig‘i, boshqa mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar (mol-mulk solig‘i, ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i

xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im bundan mustasno) o'rniga byudjetga 2007 yil 1 yanvarga qadar yalpi daromad solig'i to'lar edilar. 2007 yil 1 yanvardan boshlab esa savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad va mol-mulk soliqlarning o'rniga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz yagona soliq to'lovini to'lash rejimiga o'tkazildi.

3) Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari aksiz solig'ini va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilganlik uchun qo'shilgan qiymat solig'ini istisno etganda, amaldagi barcha umumdavlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar o'rniga o'zi etishtiradigan qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish va qayta ishslash bo'yicha yagona yer solig'ini to'laydilar. Yagona yer solig'ini to'lash tartibi va stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

4) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha soliq solishning o'zi belgilagan stavkalar bo'yicha soliqning qat'iy belgilangan summasini to'lashni nazarda tutuvchi alohida tartibini belgilashi mumkin.

5) Konchilik sanoati tarmoqlarining ayrim korxonalari uchun qo'shimcha foyda solig'i to'lanishini nazarda tutadigan foydaning bir qismiga soliq solishning alohida tartibi joriy etilishi mumkin. Qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar, uni to'lash tartibi va soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

6) Lotereyalarlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar foyda solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq o'rniga yalpi tushumdan yagona soliq to'lovini to'laydilar. Yalpi tushumdan yagona soliq to'ovi stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida belgilanadi.

O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlarni ob'ekti va iqtisodiy mohiyati bo'yicha bir necha guruhlarga ajratib o'rganish mumkin.

Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji va yer qa'ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligidan bo'yicha ilgaridek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to'ovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlari kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

3-§. To‘g‘ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri va to‘g‘ri soliqlarga yoki bevosita va bilvosita soliqlarga bo‘linadi. To‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya’ni soliqni huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi. To‘g‘ri soliq yukini boshqalar zimmasiga yuklatish holati bu yerda bo‘lmaydi. Bu soliqlar tarkibiga barcha daromaddan to‘lanadigan soliqlar va mol-mulk (resurs) soliqlari kiradi.

To‘g‘ri soliqlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarining moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi va oxir-oqibatda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liqdir. Egri soliqlarni huquqiy to‘lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og‘irligini haqiqatdan ham byudjetga to‘lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste’mol qiluvchilardir, ya’ni egri soliqlarning barchasi bevosita iste’molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo‘srimcha ravishda qo‘yiladi. Egri soliqlarning ijobjiy tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo‘lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi. Egri soliqlar stavkasining asosli ravishda oshirilishi korxonalar faoliyatining moliyaviy yakuniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etmaydi, ya’ni investitsion faoliyatini qisqartirmaydi. Ammo soliq stavkasi ilmiy asoslanmasdan oshirib yuborilsa bunday holatda korxonalar o‘z tovarlarini sotish qiyinchiliga duch kelishlari mumkin.

Quyidagi 1-jadvalda O‘zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida to‘g‘ri soliqlarning tarkibi va undagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan.

1-jadval
O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlarning o‘rni¹(foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				2018 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2015	2016	2017	2018	
1.	Davlat byudjeti daromadlari – jami	100	100	100	100	X
2.	Shu jumladan: to‘g‘ri soliqlar	23,6	23,0	24,0	20,6	-3,0

Jahon soliq amaliyotida Davlat byudjeti daromadlari tarkibida to‘g‘ri va egri

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma’lumotlari asosida hisoblangan.

soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin. Masalan AQShda byudjet daromadlari tarkibida to‘g‘ri soliqlar salmog‘ining 90 foizga yaqin bo‘lishi bu mamlakat iqtisodiyotining yuqori darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Keltirilgan ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2015-2018 yillar mobaynida to‘g‘ri soliqlarning mamlakat davlat byudjeti daromadlarining umumiyligi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Bu esa, xalqaro byudjet amaliyotida shakllangan tendensiyalar nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Chunki, mazkur tendensiyalarga muvofiq, bozor iqtisodiyoti sharoitida to‘g‘ri soliqlarning davlat byudjeti daromadlarining umumiyligi salmog‘i barqaror tarzda saqlab turilishi yoki o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lishi lozim.

Egri soliqlar tarkibiga qo‘silgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji, benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun soliqlari kiradi.

2017-2020 yillar mabaynida egri soliqlarning O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining umumiyligi salmog‘i o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari tarkibida egri soliqlarning o‘rnini¹ (foizda)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				2020 yilda 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi, punktda
		2017	2018	2019	2020	
1.	Davlat byudjeti daromadlari – jami	100	100	100	100	X
2.	Shu jumladan: - egri soliqlar	52,9	55,1	54,6	53,7	+0,8

Mazkur tendensianing mavjudligi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning hozirgi holati nuqtai-nazaridan ijobjiy hisoblanadi. Buning sababi shundaki, qo‘silgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i iqtisodiy kon'yunkturaning o‘zgarishlariga bevosita bog‘liq bo‘lmagan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo‘yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijtimoiy xarajatlarini o‘sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat byudjeti daromadlari hajmini uzluksiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa, qo‘silgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i kabi barqaror daromad manbalarini byudjet daromadlarining tarkibidagi yuqori salmog‘ini ta’minlashni taqozo qiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, to‘g‘ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langandir.

Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining

¹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobot ma’lumotlari asosida hisoblangan.

hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi¹.

O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to‘lanadigan soliqlar va yig‘imlarning hal qiluvchi asosiy qismini yuridik shaxslarning soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlari tashkil etadi.

Yuridik shaxslar soliq to‘lovchi bo‘lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo‘lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo‘lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro‘yxatdan o‘tgan (kodga ega) bo‘lishlari shart.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to‘lovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga bo‘lingan. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 20-25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z daromadidan olinadi. Ular to‘laydigan soliqlar va yig‘imlar asosan byudjetga naqd pul to‘lash yo‘li bilan o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslar davlat byudjetiga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laydi:

- jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanganda daromadiga o‘rnatilgan qat’iy stavkadagi soliq;
- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa soliqlar va majburiy to‘lovlari.

4-§. Soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatları.

O‘zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to‘lovchilarning huquqlari hamda majburiyatları, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlarini orqali tartibga solib turiladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o‘rin olgan normalari soliq kodeksiga muvofiq bo‘lishi lozim. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq Kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo‘lsa, unda xalqaro shartnomaga qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo‘llaniladi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat’i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tenglik

¹ Пансков В.П., Князев В.Г. Налоги и налогообложения. –М.: МЦФЕР, 2003. –с. 57-59.

asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag‘larining O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yishi yoxud soliq to‘lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo‘yishi yoki unga g‘ov bo‘lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat’i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar O‘zbekiston Respublikasining pul birligi-so‘mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar ko‘yidagi huquqlarga egadirlar:

– soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo‘yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o‘zлari ro‘yxatdan o‘tgan quyi Davlat soliq xizmati organlariga borib, byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslaxatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

– soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

Soliq to‘lovchilar nafaqat Soliq kodeksida balki, Vazirlar Mahkamasining yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Qaror va Farmonlarida ko‘zda tutilgan imtiyozlardan ham foydalanish huquqlariga egadirlar. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sonli “Bozorni iste’mol tovarlari bilan to‘ldirishni rag‘batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqaruvchi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha korxonalar belgilangan foya solig‘idan 20 foiz miqdorida imtiyozga egadirlar.

– byudjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasini qaytarish to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to‘lovchilarning o‘zлari, gohida esa soliq idoralarining ongli xarakatlari tufayli soliqlar va yig‘imlardan ortiqcha to‘lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtida ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarning bankdagi xisob raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko‘p uchrashi mumkin. Byudjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 kun muddat ichida soliq to‘lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig‘imlardan qarzi mavjud bo‘lgan holda o‘scha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo‘ladi.

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjet oldidagi o‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma’lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to‘lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo‘yicha belgilangan prognoz-reja va shu kabi xo‘jalik va moliyaviy

faoliyatlariga tegishli bo‘lgan soliqqa tortish masalalari bo‘yicha ma’lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

– soliq organlari o‘tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda soliq organiga o‘zining yozma e’tirozlarini o‘n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to‘lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to‘g‘risida tuzilgan dalolatnoma korxona mansabdar shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxona rahbariyati noxaq deb hisoblashi hamda e’tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to‘lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo‘lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to‘lovchilarning yozma e’tirozlari bir oy muddat ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to‘lovchiga nisbatan qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda moliyaviy jarimalarni byudjetga undirish to‘xtatilmaydi.

– soliq organlarining qarorlari va ular mansabdar shaxslarining hatti-harakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o‘zlariga berilgan vakolot doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to‘lovchilarning e’tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdar shaxslarining xatti-xarakatlarini soliq to‘lovchi qonunga zid deb hisobplashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo‘mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da’vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba’zida uchrab turadi.

– soliq solish ob’ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish va to‘lashda o‘zları yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to‘lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so‘ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa uni qayta tuzatib darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarini topshirishlari lozim bo‘ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to‘g‘ri keladi.

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi majburiylarga egadirlar:

– belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tish, pochta manzili o‘zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o‘n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to‘lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng, albatta quyi soliq idoralaridan ham ro‘yxatdan o‘tishi va tegishli ravishda soliq to‘lovchining identifikatsion raqami (STIR)ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro‘yxatga olinadi va soliq to‘lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan etkaziladi.

– Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarining tegishli summasini o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lash.

Soliq to‘lovchilar hisobot davrida hisoblangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda byudjetga to‘lab berishlari shart. Aksincha, soliq idoralari tomonidan o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilmagan soliqlar va yig‘imlar summasiga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,033 foiz miqdorida jarima (penya) hisoblanadi. Hisoblangan penya miqdori korxonaning sof foydasi hisobidan qoplanadi.

– buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

Korxona o‘zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi xujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

– moliyaviy hisobotni, soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to‘g‘risidagi deklaratasiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to‘lovchilar har bir soliq turi bo‘yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma’muriy jazo choralar qo‘llaniladi.

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish, to‘lash bilan bog‘liq hujjatlar va ma’lumotlarni, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarini soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to‘lovchilarga soliq kodeksida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun xujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan imtiyozlar ko‘zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun xujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi xujjat mavjud bo‘lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

– soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish, to‘lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solish ob‘ektlarining saqlanishi bilan bog‘liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish ob‘ekti bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ob‘ektlarini ko‘zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko‘zda tutilgan tegishli jazo choralar qo‘llaniladi.

– soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to‘g‘risidagi talablarini bajarish.

5-§. Xorijiy davlatlarda soliqlar asosida iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasi va amaliyoti tahlili.

Mazkur masalaga tegishli bo‘lgan manbalarni tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi va uning shakllanishi turli

bosqichlarda turlicha bo‘lganligini qayd etib o‘tishimiz zarur. Tadbirkorlar sinfi XVIII asrning ikkinchi yarimlaridan oq davlatning iqtisodiyotga aralashuvini ishbilarmonlik faoliyatiga to‘sinqilik, deb qaraganlar. Bu davrda iqtisodiyotni erkinlashtirish g‘oyasi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishini salbiy holat sifatida baholash keng tarqalgan edi. Bu g‘oyalar A.Smitning “Xalqlarning boyishi sabablari va tabiatni to‘g‘risida tadqiqotlar” asarida o‘zining nazariy asosini topdi. Uning fikricha, iqtisodiyot o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyatiga ega va uning negizida foydaga intilishdagi shaxsiy manfaat yotadi. A. Smit iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishini rad etadi, chunki iqtisodiyotning rivojlanishi asosida bozor turadi va unga to‘liq erkinlik berilishi zarur, deb hisoblaydi¹.

A.Smitning izdoshlari D.Rikardo, J.Sey, J.Mill, A.Marshallar iqtisodiyotni o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi tizim deb hisoblaydilar. Ular soliqlarni faqat byudjetni to‘ldiruvchi vosita sifatida qarab, soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solishdagi rolini tan olmaganlar.

Amalga oshirilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, hozirgi davrda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning ikkita modelini ajratib ko‘rsatsa bo‘ladi. Bularning birinchisi keynschilik modeli, ikkinchisi esa neokonservativ model deb ataladi. Alovida qayd etish kerakki, iqtisodiyotni tartibga solish to‘g‘risida gap ketgan paytda J.M. Keyns (1883-1946 y.)ning bozor iqtisodiyoti haqidagi g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

J.Keynsning nazariyasining asosiy mazmuni uning “Bandlik, foiz va pulning umumiyligi nazariyasi” (1936) nomli asarida bayon qilingan. Bunda muallif iqtisodiyotning rivojlanishidagi asosiy omil deb “samarali talab”ning mavjudligini ko‘rsatadi. J.Keynsning fikricha, “samarali talab” ikkita tarkibiy qism (shaxsiy iste’mol va investitsiyalash) dan iboratdir².

J.Keynsning nazariyasidan shunday xulosa kelib chiqadiki, aholining etarlicha bo‘lmasdan talabini investitsiya talabini oshirish bilan to‘ldirish kerak. Investitsiya hajmining o‘sishi mablag‘lardan foydalanish natijasida olinadigan foyda miqdoriga va bank foizlari darajasiga bog‘liqdir. Keltirilgan omillar bilan talab investitsiya talabini tartibga solish usullarini belgilaydi.

Keynschilar soliqqa tortishda progressivlik tarafdarlaridir. Faol investitsiya siyosatini amalga oshirish soliq stavkalarini oshirish yo‘li bilan milliy daromadni davlat foydasiga qayta taqsimlashni talab qiladi. Soliq ko‘rinishida olingan pul resurslari soliq to‘lovchilar tomonidan bankdan jamg‘armalar sifatida foydalanilishi mumkin. Davlat esa xuddi shu narsadan investitsiya talabini kengaytirish va bandlikni oshirishda foydalanishi mumkin.

J.Keyns soliqlarni iqtisodiy tizimdagi “qayishqoqlik mexanizmi takomili” sifatida qaraydi. Uning nazariyasiga asosan o‘sib boruvchi (progressiv) soliqlar iqtisodiyotning muvozanatlashganligiga ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy yuksalish davrida soliqqa tortiladigan daromad soliq daromadlariga nisbatan sekin o‘sadi. Iqtisodiy inqirozda esa byudjetga soliq tushumlari daromad qisqarishiga nisbatan tezroq kamayadi. Shunday qilib, byudjetning daromadlari soliq stavkalari miqdoriga, shuningdek, o‘sib boruvchi

¹ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. -М.: “Финансы и статистика”. 1993. стр. 62

² Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: “Кнорус”. 2004. стр 125

(progressiv) stavkalar bo'yicha soliq solinadigan daromad xajmlariga bog'liqdir.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkinki, keynschilik ta'limoti bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning yangicha yondoshuvining shakllanishiga asos bo'ldi. Bu ta'limotga qadar klassik ilmdagi davlatning aralashmasligi g'oyasi hukmron edi. Keyns nazariyasi esa iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi zarurligini isbotladi.

Biroq, XX asr 70-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab keynschilik nazariyasi jiddiy shubha ostiga olina boshlandi. Bu davrga kelib xorijiy mamlakatlarda krizislar yuz berayotgan edi. Davlat tomonidan tartibga solishning keynscha modeli ularni engib o'tishga qodir bo'lmay qoldi. Shu sababli iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solishning yangi modeliga muhtoj edi. Ana shunday yangi modelning nazariy asosi bo'lib iqtisodiyot nazariyasidagi neoklassiklar yo'nalishi: monetarizm va taklif iqtisodi xizmat qildi¹.

"Taklif iqtisodi" nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun kapital jamg'arilishining qulay sharoitlari yaratilishi zarur. Ushbu maqsadda tadbirkorlarga soliqlar bo'yicha keng imtiyozlar joriy etilishi, shuningdek, inflyatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bu nazariya namoyondalari soliqlarning kamayishi daromadlarning ko'payishiga olib keladi, soliq solish bazasini kengaytiradi, deb qaraydilar.

Soliq undirishning eng yuqori va quyi chegaraviy stavkasini aniqlash murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Uning darajasi ko'pincha mamlakatdagi iqtisodiyotning holatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotlarda A.Laffer ta'limotiga asoslangan holda soliqlarning turli chegaraviy stavkasi keltiriladi. Uning darajasi 30 foizdan 60 foizgacha oraliqda o'zgarishi mumkinligi ta'kidlanadi². Lekin aniq va ilmiy jihatdan asoslangan soliq stavkalarining yuqori va quyi chegaralari hamon mavjud emasdир.

Amaliyotdagi real ko'rsatkichlarga tayangan holda bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatini soliqlar yordamida tartibga solish samarali amalga oshirilmoqda, degan fikrni bildirishimiz mumkin. Bu yerda soliq imtiyozlariga nisbatan alohida e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu boisdan soliq imtiyozlarining bir nechta guruhi ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchi guruh soliq imtiyozlari mehnat vositalarining jadal amortizatsiyasiga taalluqli bo'lib, bunday imtiyozning qo'llanilishi korxonaning soliqqa tortiladigan foydasini kamaytiradi. Jadal amortizatsiya usullari mehnat vositalaridan foydalanishning dastlabki yillarda amortizatsiya qilinayotgan mulkni qaytadan tiklash uchun zarur bo'lgan mablag'ni toplash imkonini beradi, shuningdek, foydadan undiriladigan soliqni kamaytiradi. Xorijiy mamlakatlarda amortizatsiyadan maqsadli foydalanish nazorat qilinadi va bu mablag'lardan ish haqi, dividendlar va boshqalarni to'lashga ruxsat etilmaydi. Jadal amortizatsiya Shvetsiya, Fransiya, Ispaniya, Singapur, Syangan va boshqa mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda³.

Ikkinci guruh soliq imtiyozlari soliqqa tortiladigan daromaddan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishga ketgan sarf-xarajatlarni chiqarib tashlash bilan

¹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 128

² Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: "Юрайт-Издат". 2003. стр. 120

³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 129

bog‘liq Ba’zi bir mamlakatlarda korporatsiya daromadidan investitsiya xarajatlarini to‘liq yoki qisman (10-50 foiz) chiqarib tashlash amaliyoti qo‘llanilmoqda. Shuningdek xuddi shu maqsadlar uchun investitsiya zahiralari tashkil qilishga ham ruxsat berilmoqda. Bunday soliq imtiyozlari Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari AQShda soliqqa tortiladigan daromaddan ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish ishlariga qilingan xarajatlarni chiqarib tashlash tartibi ham joriy etilgandir.

Uchinchi guruh soliq imtiyozlari investitsion soliq kreditining berilishi bilan bog‘liqdir. Investitsion soliq kreditidan Shvetsiya, Ispaniya, Avstraliya va boshqa mamlakatlar amaliyotida foydalanib kelimoqda.

To‘rtinchi guruh soliq imtiyozlari soliqlar ta’tilini berish va soliq stavkasini pasaytirish bilan bog‘liq imtiyozlardir. Ko‘pincha bunday imtiyozlardan kichik korxonalar, yangi tashkil etilgan korporatsiyalar, shuningdek, muayyan rivojlanayotgan tarmoqlar va mintaqalar korxonalari foydalanadilar. Bunday imtiyozlar Gretsya, Belgiya, Lyuksemburg, Italiya, Singapur kabi mamlakatlarda qo‘llanilmoqda¹.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, rivojlangan mamlakatlarda soliq siyosati xususiy kapitaldan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mamlakatning iqtisodiyoti oqsayotgan mintaqalarni, shuningdek yangi yuksak texnologiyali ishlab chiqarishni investitsiyalashni davlatning soliqlar orqali rag‘batlantirish amaliyoti mexanizmi yordamida amalga oshirilmoqda. Masalan, Germaniyada sharqiy va unga chegaradosh o‘lkalarga investitsiya kirituvchi firmalar katta soliq imtiyozlariga egadilar. Po‘lat quyish sanoati joylashgan o‘lkalar soliq imtiyozlari bilan qo‘llab-quvvatlanadi.²

AQShda o‘tgan asrning 80-yillarida o‘tkazilgan soliq islohotlari korporatsiyalar faoliyati uchun yaxshi molivaviy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. Shu maqsadda korporatsiyalar daromadidan soliq stavkalari 46 dan 34 foizga kamaytirildi. Bundan tashqari, bu soliqda ko‘p sonli soliq imtiyozlari bo‘lib, investitsiya va ilmiy-tadqiqot ishlariga keng soliq imtiyozlari qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan.

AQSh uchun korporatsiyalar daromadlariga solinadigan soliqlarning bosqichli hisoblanishi va bir necha xil soliq stavkalarining amal qilishi xarakterlidir. Korporatsiyaning soliqqa tortiladigan birinchi 50 ming dollariga soliq 15 foiz stavkada qo‘llaniladi. Keyingi 25 ming dollaridan soliq 25 foiz stavka bo‘yicha undiriladi va soliqqa tortiladigan qolgan daromad summasiga nisbatan 34 foizli eng yuqori stavka qo‘llaniladi³.

Korporatsiyalar daromadidan soliq, shuningdek, shtat byudjetiga ham to‘lanadi. Bu soliq odatda belgilangan qat’iy stavkalarda undiriladi. AQShda korporatsiyalar daromadidan soliq stavkasi 18 dan 46 foizgacha atrofida tebranadi. Shunday qilib, soliqlarni bosqichli hisoblash kichik va o‘rta firmalar uchun soliq og‘irligini ma’lum darajada kamaytiradi.

O‘tkazilgan islohotlar jarayonida fuqarolar daromadini soliqqa tortishda ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. 1986 yilga qadar AQShda fuqarolardan daromad solig‘i 14 ta stavkada 11 dan 50 foizgacha miqdorda undirilgan edi. Keyinchalik uchta soliq

¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. Стр. 125.

² Jo’rayev S. Soliqlar boshqaruvi quroli.//Iqtisod va hisobot. 1994, 7-8 betlar.

³ James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 123.

stavkasi kiritildi (15; 28; 33). Bu stavkalar soliqqa tortiladigan daromad darajasiga bog‘liq holda qo‘llaniladi. Soliq stavkasining eng yuqori darajasi kamaytirilishidan tashqari, soliq imtiyozlarini qisqartirish orqali soliqqa tortilmaydigan eng kam daromad miqdori ham ko‘paytirildi¹.

Keyingi paytlarda ba’zi mamlakatlarda, masalan Fransiyada, hukumat tomonidan belgilangan sohalarda tarmoq belgilariga qarab, ishbilarmonlik faolligini rag‘batlantirish maqsadida soliq imtiyozlarini joriy etish amaliyoti qo‘llanilmoqda. Masalan, imtiyozli stavkalar, investitsiyalarga chegirmalar, jadal amortizatsiya va hokazolar shular jumlasidandir.

Bu imtiyozlardan Fransianing bir qancha etakchi tarmoqlari (avtomobilsozlik, aerokosmos, elektronika va boshqalar) foydalanmoqda. Biroq iqtisodiyotning ayrim sohalariga berilayotgan keng imtiyozlar boshqa sohalar uchun soliqqa tortishda juda og‘ir sharoitlarni vujudga keltirib soliqqa tortishningadolatilik tamoyilini buzmoqda. Bu, o‘z navbatida, soliq to‘lashdan qochish va boshqa turli su’istemollik hollarini sodir etishga olib kelishi mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solishning muqobil yo‘nalishi ishbilarmonlik faolligining jonlanishiga ta’sir ko‘rsatadi, soliqqa tortish bazasining rivojlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarning ishlab chiqarish quvvatlari jadal su’ratlarda rivojlanmoqda. Bunday mamlakatlar uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan faol tartibga solish xosdir. Masalan, Turkiya, Xitoyda sezilarli darajadagi byudjet taqchilligiga qaramasdan, ustuvor sohalarni, byudjet tomonidan moliyalashtirish amaliyoti qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, bu davlatlar investitsiya hajmini oshirishga yo‘naltirilgan soliq islohotlarini faol amalgalashmoqda (xususiy firmalar daromad solig‘i stavkalari kamaytirilmoqda, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi yangi tashkil etilgan korxonalarga 2-4 yilgacha soliq ta’tili berilmoqda)².

Shunday qilib, xorijiy davlatlar uchun ishlab chiqarishni soliqlar yordamida faol tartibga solish xarakterlidir. Hozirgi paytda davlatning iqtisodiy sohalarga soliqlar vositasida ta’sir etishi jarayoni kuchayganligi sezilmoqda. Bunday aralashuv darajasi turli mamlakatlarda turlichadir.




Nazorat savollari:

1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti nima?
2. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi izohlang.
3. Soliqlar deganda nimani tushunasiz?
4. Soliqlar tizimi deganda nimani tushunasiz?
5. Soliqlar qaysi davlat organi tomonidan joriy qilinadi?
6. Umumdavlat soliqlari tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?
7. Mahalliy soliqlar tarkibiga qaysi soliqlar kiradi?

¹ James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 125

² Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 82

8. Qaysi soliqlar mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadi va qanday tartibda?
9. Qaysi mahalliy soliqlar O‘zbekiston Respublikasining butun hududida undiriladi?
10. Soddalashtirilgan soliq tizimiga qanday yuridik va jismoniy shaxslar o‘tgan?
11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qachondan boshlab yagona soliq to‘lovini to‘lovchilari hisoblanishadi?
12. Davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlarni sanab bering?
13. Yagona ijtimoiy to‘lov qaysi jamg‘armalar o‘rtasida taqsimlanadi?
14. Soliqlarni umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada deb o‘ylaysiz?
15. Soliqqa tortish ob’ektiga qarab soliqlar qanday guruhlanadi?
16. Oborotdan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
17. Daromaddan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
18. Mol-mulk va yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qaysi soliqlarni kiritish mumkin?
19. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
20. To‘g‘ri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi va u nima uchun to‘g‘ri soliq deb ataladi?
21. Egri soliqlar tarkibiga qanday soliqlar kiradi?
22. Egri soliqlarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsating?
23. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?
24. Jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlarning o‘ziga xos xususiyatlari nima?
25. Soliq to‘lovchilar qanday huquqlarga ega?
26. Soliq to‘lovchilar qanday majburiyatlarga ega?



2. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘I

Tayanch so‘z va iboralar: *yuridik shaxs, soliq to‘lovchilar, jami daromadlar, soliq ob’ekti, soliq sub’ekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to‘lash muddatlari.*

1-§. Foyda solig‘ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to‘lov bo‘lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo‘lgan qismini byudjetga olib ketar edi. Qolgan mablag‘lar esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig‘iga ko‘ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Respublikamiz ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga o‘tishi tufayli mamlakatimiz xo‘jalik turmushida chuqr ijobjiy o‘zgarishlar ro‘y bera

boshladi. Natijada mulkchilikning turli shakllari rivojlanishi, korxonalarning imkoniyatini oshishi, bozor infrastrukturasi rivojlanishi bilan majburiy ajratmalarning avvalgi tizimi korxonalarning xo‘jalik yuritish samaradorligini ta’minlay olmay qoldi hamda ular bevosita va bilvosita investitsiya dasturlariga to‘sinqin qila boshladi. Chunki, foydadan ajratma o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra faqat davlat korxonalari foydasidan ajratilishi lozim edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish xususan, foydadan ajratmalar o‘rniga daromad solig‘ini joriy etish zarurati paydo bo‘ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdag‘i xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar “Daromad” solig‘ini to‘lashga o‘tdilar.

O‘zbekiston Respublikasi rubl mintaqasida qolib turgan vaqtda daromad solig‘ini olishga o‘tish pul qadrsizlanishi tufayli ish xaqi o‘sishini cheklash uchun davlat tomonidan majburiy chora bo‘ldi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlasha boshladi. Natijada mahsulotga talab pasayib, sotishdan olingan tushum xajmi kamaygani holda, ular o‘z ishlab chiqarishlari yo‘nalishini o‘zgartirishga, foyda olmasalar ham juda kata miqdorda ishchilarga ish xaqi to‘lashga majbur bo‘ldilar. Bunday holatda amaliyotda korxonalar hisobot davrida foyda bilan faoliyatlarini yakunlamasada daromad solig‘ini ish xaqi fondidan belgilangan stavkada to‘lashga majbur edilar.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i umum davlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

3-jadval

2017-2019 yillarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i¹

Ko‘rsatkichlar	2017 yil		2018 yil		2019 yil (reja)	
	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da	mlrd.so‘m	jami nis-n, %da
Davlat maqsadli jamg‘armalar daromadlarisiz - jami	44469,6	100	62229,5	100	102627,6	100
To‘g‘ri soliqlar	10674,2	24,0	12805,4	20,6	29125,5	28,4
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1291,1	2,9	2510,9	4,0	15980	15,6

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2017-2019 yillaridagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlangan.

solig‘ining byudjet daromadlaridagi salmog‘i kamayish tendensiyasiga ega. Ya’ni, uning salmog‘i yillar bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, 2017 yilda mos ravishda 2,9 foizni, 2018 yilda 4,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda 15,6 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bu holat yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalarini yildan-yilga pasayib borayotganligi bilan izohlanadi. Daromadning ko‘p qismi korxonalar ixtiyorida qolishi ularning investitsion faolligini oshiradi, yangi ishchi o‘rinlar ochish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish hamda ish va xizmatlar ko‘rsatish uchun yanada keng moliyaviy imkoniyat yaratadi.

2-§. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob’ekti va soliq bazasi.

Foyda solig‘i to‘lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir:

✓ O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari;

✓ O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo‘lish manbai O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

Quyidagilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lmaydi:

✓ notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan daromadlar, shuningdek Soliq kodeks 132-moddasi bиринчи qismining 2, 3 va 15-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlar olinganda notijorat tashkilotlar mazkur daromadlarga taalluqli qism bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksning 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlarni olganlik tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi. Dividendlar va foizlarga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda to‘lov manbaida soliq solinadi;

✓ agar Soliq kodeksning XX bo‘limida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo‘lmasa, Soliq kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ob’ekti quyidagilardir:

✓ O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlarining foydasi;

✓ O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlarining ushbu bo‘limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan ushbu bo‘limda nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida, Soliq kodeks 158-moddasining ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida, alohida hollarda esa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda Soliq kodeksning 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

O‘tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan zararlar mavjud bo‘lsa, soliq solinadigan baza Soliq kodeksning 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o‘tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Yuridik shaxslar foyda solig‘i to‘lovchilari bo‘lishi uchun qo‘yidagi shartlarga javob berishi kerak:

➤ ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi (qonunchilik bilan ta’qiqlangan faoliyatdan tashqari);

- o‘zining mol-mulkiga ega bo‘lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo‘lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo‘lishi;
- identifikatsion raqamga ega bo‘lishi.
- mahalliy hokimiyat organlaridan ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi.

Umumiy tartib bo‘yicha yuridik shaxslar qayd etilgan shartlarga javob bersagina foyda solig‘i to‘lovchilar bo‘lib hisoblanadilar.

3-§. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.

Jami daromadga quyidagilar kiradi:

- ✓ tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- ✓ boshqa daromadlar.

Soliq to‘lovchining qiymati chet el valyutasida ifodalangan daromadlari milliy valyutada olingan daromadlar bilan jamlangan holda, buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda hisobga olinadi.

Quyidagilar soliq to‘lovchining daromadi sifatida qaralmaydi:

– ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birlashtiriladigan mablag‘lar;

– muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), yoki muassis (ishtirokchi) ulushining miqdori kamaytirilganda, shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilar) o‘rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa doirasida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

– oddiy shirkat shartnomasi sheringining (ishtirokchisining) shartnoma sheriklari (ishtirokchilar) umumiy mulkidagi ulushi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, hissasi miqdorida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

– realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo‘nak) tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

– qonun hujjatlariga muvofiq majburiyatlarni ta’minalash tariqasida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar) ularga bo‘lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tadigan paytga qadar;

– byudjetdan berilgan subsidiyalar;

– agar mablag‘larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o‘tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo‘lsa, tekin olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

– olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

– notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta’minoti va uni amalga

oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko‘ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag‘lar;

– sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar;

– vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish yuzasidan boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to‘lovi bundan mustasno);

– ijara beruvchi (lizing beruvchi) ijara (lizing) to‘lovining qismi tariqasida olgan moliyaviy ijara (lizing) ob’ekti qiymatining qoplamasи;

– telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirdari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga hamda ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlardan olingan daromadlar;

– ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub’ekti muassislardan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, ushbu mablag‘lar jami daromad tarkibiga kiritiladi hamda soliqqa tortiladi;

– investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

O‘zbekiston Respublikasidagi to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsiz solig‘i chegirib tashlangan holda olingan tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromaddir.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo‘natilgan tovarlar (bajarilgan ishlarni, ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo‘natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo‘lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta va jurnallarni realizatsiya qilishdan olingan tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingan daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijara berishdan foizlar, roylati, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek talab qilish huquqidan boshqa shaxsnинг foydasiga voz kechishdan olingan daromadlar, agar ushbu daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlarning umumiyligi summasidan ortiq bo‘lsa,

xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingen daromadlar deb e'tirof etiladi. Mazkur norma notijorat tashkilotlarga tatbiq etilmaydi, ular uchun ushbu daromadlar boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

Kredit, sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun ushbu Kodeksning tegishinchcha 148, 150 va 152-moddalarida ko'rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingen daromadlar deb e'tirof etiladi.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishdan olinadigan daromadlar ularning haqiqatda bosqichma-bosqich bajarilishiga taalluqli qismida hisobot davri mobaynida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli kontraktning hisobot davri oxirida haqiqatda bajarilganligi kontraktni bajarishga kirishilganidan e'tiboran qilingan xarajatlarning kontraktni bajarish uchun ketadigan xarajatlarning umumiy summasidagi solishtirma salmog'ini hisob-kitob qilish asosida belgilanadi.

Hisobot davri oxiridagi daromad kontrakt bo'yicha qilingan xarajatlarning hisoblangan solishtirma salmog'i va jami daromad summasining (kontrakt bahosining) hosilasi sifatida aniqlanadi. Mazkur kontrakt bo'yicha ilgari hisobga olingen daromadlar joriy hisobot davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen daromadni aniqlashda chegirib tashlanadi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek ob'ektlarni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqlangan ishlarning (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingen bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qilinganda, shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul topshirilganda soliq solish maqsadlari uchun tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen tushum tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki tovarlar olingen baho asosida (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda) aniqlanadi, yuqorida o'n birinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholar (tariflar) asosida aniqlanadi.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo'yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo'yicha eksport qilish masalalarini ko'rib chiquvchi maxsus vakolatlari organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo'yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingen tushum tovarlarni realizatsiya qilishning haqiqiy bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga quyidagi hollarda tuzatish kiritiladi:

- 1) tovarlar to'liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o'zgarganda;

- 3) baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga yuqoridagi birinchi qismida nazarda tutilgan tuzatishni kiritish bir yillik muddat ichida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa, kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Ushbu moddaga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritish yuqoridagi birinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovarni (ishni, xizmatni) yetkazib beruvchi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga tuzatish kiritishni Soliq kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

Boshqa daromadlarga, agar Soliq kodeks 130-moddasining beshinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lмаган operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ soliq to‘lovchining soliq kodeksning 133-moddasiga muvofiq asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- ✓ soliq kodeks 134-moddasining birinchi qismiga muvofiq mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- ✓ soliq kodeks 134-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- ✓ soliq kodeksning 135-moddasiga muvofiq tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- ✓ inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- ✓ hisobot yilda aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar;
- ✓ soliq kodeksning 136-moddasiga muvofiq majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar;
- ✓ soliq kodeksning 137-moddasiga muvofiq talablardan o‘zganining foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingan daromadlar;
- ✓ soliq kodeksning 138-moddasiga muvofiq ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromadlar;
- ✓ soliq kodeksning 139-moddasiga muvofiq xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar;
- ✓ soliq kodeks 157-moddasining birinchi qismiga muvofiq birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- ✓ undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar va penya;
- ✓ soliq kodeksning 140-moddasiga muvofiq kursdagи ijobiy farq;
- ✓ dividendlar va foizlar;

- ✓ royalti;
- ✓ tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosa bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan boshqa daromadlar qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan foya asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulk ob’ektlarining chiqib ketishidan olinadigan moliyaviy natijani (foydani yoki zararni) aniqlashda asosiy vositalar va boshqa mol-mulk ob’ektlarining ilgarigi qayta baholashlardagi ortgan summasining ushbu asosiy vositalar va boshqa mol-mulk ob’ekti qiymatining ilgarigi qayta baholashlardagi kamayishi summasidan ortgan qismi asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingen daromad tarkibiga kiritiladi.

Ijara to‘lovining summasi mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromaddir.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromad ijaraga beruvchining foizli daromadidir.

Soliq to‘lovchi tekin olgan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lmasa, soliq to‘lovchining daromadi bo‘ladi.

Mol-mulk, mulkiy huquqlar, ishlar va xizmatlar tekin asosda olinayotganda, agar yuqoridagi to‘rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, oluvchi shaxsning daromadlari bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi.

Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning, ishlarning va xizmatlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to‘g‘risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- jo‘natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma’lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingen ma’lumotlar;
- birja ma’lumotlari;
- davlat statistikasi organlarining ma’lumotlari.

Qarz beruvchiga foizli daromad to‘lash majburiyatisiz zayom (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordam) olinayotganda qarz oluvchining daromadi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Daromadni aniqlashning xuddi shunday tartibi zayomni (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamni) olish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo‘lgan stavkada foizlar to‘lash sharti bilan berilgan zayomlarga (qaytarib berish sharti bilan moliyaviy yordamga) nisbatan qo‘llaniladi.

Kredit tashkilotlari tomonidan berilgan kreditlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan berilgan

zayomlarga (ssudalarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

✓ fuqarolik qonun hujjaligiga muvofiq da'vo muddati o'tgan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar;

✓ sudning yoki vakolatli davlat organining qaroriga binoan hisobdan chiqarilgan majburiyatlar.

Soliq to'lovchining byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzining qonun hujjaligiga muvofiq hisobdan chiqarilgan summalar daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Talablardan o'zgan foydasiga voz kechish shartnomasi bo'yicha olinadigan daromadlar asosiy qarz talablari bo'yicha qarzdor tomonidan to'langan summalar, shu jumladan qarzdor tomonidan asosiy qarzdan tashqari to'langan summalar bilan soliq to'lovchi tomonidan olingan qarz qiymati o'rtaсидаги ijobiy farq tarzida aniqlanadigan daromadlardir.

Qoplash tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirilgan va joriy soliq davrida o'rni qoplangan xarajatlar va (yoki) zararlar kiradi.

Qoplash summasi qaysi soliq davrida olingan bo'lsa, o'sha soliq davrining daromadi bo'ladi.

Soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlanmagan xarajatlarning va (yoki) zararlarning o'rnini qoplash summasi boshqa daromad tarkibiga kiritilmaydi.

Zaxiralarni tashkil etish xarajatlari soliq solinadigan bazani aniqlashda ilgari chegirib tashlangan shubhali qarzlar (tavakkalchilik operatsiyalari) bo'yicha zaxiralar qisqargan hollarda, ularning qisqarish summasi boshqa daromadlar tarkibida hisobga olinadi yoki buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjaligiga muvofiq xarajatlarni kamaytiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar deganda faoliyati soliq to'lovchining asosiy faoliyatiga xizmat ko'rsatishga qaratilgan va mazkur soliq to'lovchining maqsadi bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lmanan xo'jaliklar tushuniladi. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga yordamchi xo'jaliklar, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlari, oshxonalar va bufetlar, o'quv kombinatlari hamda shunga o'xshash xo'jaliklar, o'z xodimlariga yoki boshqa shaxslarga xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi ishlab chiqarishlar va xizmatlar kiradi.

Uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlariga uy-joy fondi, mehmonxonalar (turistik mehmonxonalar bundan mustasno), boshqa joydan keluvchilar uchun uylar va yotoqxonalar, tashqi obodonlashtirish ob'ektlari, sun'iy inshootlar, suv havzalari, plyajlar uchun inshoot hamda jihozlar, shuningdek aholini gaz, issiqlik va elektr bilan ta'minlash ob'ektlari, uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy-madaniy soha, jismoniy tarbiya va sport ob'ektlariga texnik xizmat ko'rsatish hamda ta'mirlash uchun mo'ljallangan uchastkalar, sexlar, bazalar, ustaxonalar, garajlar, maxsus mashinalar va mexanizmlar, omborxonalar kiradi.

Ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlariga sog'liqni saqlash, madaniyat ob'ektlari, bolalar maktabgacha tarbiya ob'ektlari, bolalar dam olish oromgohlari, sanatoriylar

(profilaktoriylar), dam olish bazalari, pansionatlar, jismoniy tarbiya va sport ob'ektlari (shu jumladan treklar, otchoparlar, otxonalar, tennis kortlari, golf, badminton o'yinlari uchun maydonchalar, sog'lomlashtirish markazlari), aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasining ishlab chiqarishga oid bo'lмаган об'екслари (hammomlar, sauna, kir yuvish, tikish hamda maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa ustaxonalar) kiradi.

Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar tomonidan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan (olinadigan) mablag'lar summasi va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar faoliyati bilan bog'liq xarajatlar summasi o'rtaqidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Valyuta hisobvaraqlari bo'yicha, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi ijobiy farq buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda daromadlar tarkibiga kiritiladi:

➤ chet el valyutasiga bo'lган mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valyutasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori bahoda sotilganda;

➤ chet el valyutasiga bo'lган mulk huquqi boshqa shaxsga o'tayotgan sanada shu chet el valyutasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past bahoda sotib olinganda;

➤ chet el valyutasi kursidagi o'zgarish munosabati bilan balansning valyutaga oid moddalari tegishli hisobot davri uchun qayta baholanganda.

Baholari chet el valyutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o'zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to'lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanagacha bo'lган davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o'zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi ijobiy farq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to'langan sanadagi jami daromad tarkibiga buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kiritiladi.

Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu moddaning qo'llanilishi maqsadida amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e'tirof etiladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi, Soliq kodeksga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar bundan mustasno.

Asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar, Soliq kodeksda nazarda tutilgan hollarda esa, qonun hujjatlariga va (yoki) soliq to'lovchining hisobga olish siyosatiga muvofiq rasmiylashtirilgan zararlar ham soliq to'lovchining xarajatlari bo'ladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari haqiqatda qaysi soliq davrida amalga oshirilgan bo'lsa, o'sha davrda chegirib tashlanadi. Agar ayni bir xil xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, soliq solinadigan foydani hisoblashda mazkur xarajatlar faqat bir marta chegirib tashlanadi.

Soliq to'lovchi sarflagan va qiymati chet el valyutasida ifodalangan xarajatlar qiymati milliy valyutada ifodalangan xarajatlar bilan jamlab hisobga olinadi. Mazkur xarajatlarni qayta hisoblash soliq to'lovchi tomonidan buxgalteriya hisobi to'g'risidagi

qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining xarajatlari chegirib tashlanadigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo'linadi.

Chegirib tashlanadigan xarajatlар quyidagilardir:

- 1) Soliq kodeksning 142-moddasiga muvofiq moddiy xarajatlar;
- 2) Soliq kodeksning 143-moddasiga muvofiq mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- 3) Soliq kodeksning 144-moddasiga muvofiq amortizatsiya xarajatlari;
- 4) Soliq kodeksning 145-moddasiga muvofiq boshqa xarajatlar;

5) Soliq kodeksning 146-moddasiga muvofiq kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davridagi xarajatlar.

Soliq to'lovchining ushbu moddaning oltinchi qismida ko'rsatib o'tilgan xarajatlari, agar ular Soliq kodeksning 147-moddasida ko'rsatilgan chegirib tashlanmaydigan biron bir xarajat tarkibida hisobga olinsa (uning bir qismi bo'lsa), chegirib tashlanadigan xarajatlар bo'lmaydi.

Quyidagilarga soliq to'lovchining xarajati sifatida qaralmaydi:

1) vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatish uchun boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishi munosabati bilan, shuningdek komitent yoki boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarga haq to'lash hisobiga vositachi va (yoki) boshqa ishonchli vakil tomonidan topshirilgan mol-mulk tarzidagi to'lovlар, agar bunday xarajatlar tuzilgan shartnomalarning shartlariga muvofiq vositachi yoki boshqa ishonchli vakilning yoxud boshqa topshiriq beruvchining xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim bo'lmasa;

2) soliq to'lovchi emitent tomonidan topshirilgan, aksiyadorlar o'rtasida aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qaroriga binoan o'zlariga tegishli aksiyalar miqdoriga mutanosib ravishda taqsimlanadigan aksiyalarning qiymati yoxud emitentning ustav fondi (ustav kapitali) ko'paytirilgan taqdirda aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlashda dastlabki aksiyalar o'rniga berilgan yangi aksiyalarning nominal qiymati bilan aksiyadorning dastlabki aksiyalarining nominal qiymati o'rtasidagi farq;

3) boshqa yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki oddiy shirkatga hissa sifatida berilgan mol-mulk, mulkiy huquqlar qiymati.

Moddiy xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

2) ishlab chiqarilgan va (yoki) realizatsiya qilinadigan tovarlarni o'rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta'mirlash uchun materiallar va ehtiyyot qismlar;

3) inventar, xo'jalik anjomlari, amortizatsiya qilinadigan mol-mulk bo'lmagan boshqa mol-mulk;

4) soliq to'lovchining texnologik, transport, boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan barcha turdagи yoqilg'i, energiya, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi tomonidan ishlab chiqarish hamda xo'jalik ehtiyojlari uchun barcha turdagи energiyani hosil qilish, binolarni isitish, shuningdek energiyani bir shakldan o'zga shaklga o'tkazish va uzatish xarajatlari;

5) yerlarni rekultivatsiya qilish va tabiatni muhofaza qilishning boshqa tadbirlari

uchun xarajatlar;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo‘jaligi tizimlaridan soliq to‘lovchilar tomonidan iste’mol qilinadigan suv uchun to‘lov;

7) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolathi organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan normalar doirasida ishlab chiqarish va (yoki) tashish chog‘idagi texnologik yo‘qotishlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolathi organ yoki soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan tabiiy kamayish normalari doirasida tovar-moddiy zaxiralarni saqlash hamda tashish chog‘idagi yo‘qotishlar va buzilishlar.

Moddiy xarajatlarga kiritiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Agar yetkazib beruvchidan qabul qilingan qaytariladigan tara qiymati olingan tovar-moddiy zaxiralar narxiga qo‘shilgan bo‘lsa, qaytariladigan tara qiymati ularning ehtimol tutilgan foydalanishi yoki ularni realizatsiya qilish narxi bo‘yicha ularni sotib olish uchun qilingan xarajatlarning umumiy summasidan chiqarib tashlanadi. Mahsulot yetkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan tara va o‘rov idishlari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Tarani qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan tara jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Moddiy xarajatlar summasi qaytariladigan chiqindilar qiymatiga kamaytiriladi. Ushbu moddaning qo‘llanilishi maqsadida qaytariladigan chiqindilar deganda xom ashyo (materiallar), yarim tayyor mahsulotlar, issiqlik beruvchi va boshqa turdagи moddiy resurslarning tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan, boshlang‘ich resurslarning iste’molboplik xususiyatlarini (kimyoviy yoki fizik xossalalarini) qisman yo‘qotgan va shu tufayli xarajatlar oshib ketgan (mahsulot chiqishi kamayib ketgan) holda foydalaniladigan yoki belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanilmaydigan qoldiqlari tushuniladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning texnologiya jarayoniga muvofiq boshqa bo‘linmalarga boshqa turdagи tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) ishlab chiqarish uchun to‘laqonli xom ashyo (materiallar) sifatida o‘tkaziladigan qoldiqlari, shuningdek texnologiya jarayonini amalga oshirish natijasida olinadigan qo‘srimcha (yo‘l-yo‘lakay olingan) mahsulot qaytariladigan chiqindilar jumlasiga kirmaydi.

Qaytariladigan chiqindilar quyidagi tartibda baholanadi:

agar bu chiqindilardan asosiy yoki yordamchi ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkin bo‘lsa-yu, lekin bunda xarajatlar oshib ketsa (tayyor mahsulot chiqishi kamayib ketsa), ehtimol tutilgan foydalanish narxida;

agar bu chiqindilar chetga realizatsiya qilinsa, realizatsiya qilish narxida.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

1) haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi;

2) ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

3) predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘lgan fuqarolik-huquqiy

tusda tuzilgan shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to‘lanadigan to‘lovlar, bundan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalar mustasno;

4) yuridik shaxsning boshqaruv organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o‘xhash organi) a’zolariga yuridik shaxsning o‘zi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar;

5) rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar:

a) yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot;

b) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi lokal hujjatlarida nazarda tutilgan to‘lovlar;

v) kasb mahorati, murabbiylik uchun tarif stavkalariga va mansab maoshlariga ustamalar;

g) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;

d) ratsionalizatorlik takliflari uchun to‘lovlar;

e) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘limgan bir yo‘la beriladigan mukofotlar;

j) ta’tilga qo‘srimcha haqlar va ushbu Kodeksning 173-moddasida nazarda tutilgan moddiy yordam;

6) kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya):

a) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘srimcha to‘lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha to‘lovlar);

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzlucksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

v) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda mansab maoshlariga ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlar;

g) ko‘p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o‘zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo‘limgan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

d) doimiy ishi yo‘lda kechadigan yoki ko‘chib yurish va harakatlanish xususiyatiga ega bo‘lgan xodimlarning jo‘nab ketish paytidan qaytib kelish paytigacha yo‘ldagi har bir sutka uchun to‘lanadigan ish haqiga ustamalar;

e) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilganda xodimlarning ish haqiga ustamalar;

j) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig‘ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo‘lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va (yoki) transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, mansab maoshi miqdorida to‘lanadigan summalar;

z) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqtি umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati

bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to‘lovlar;

i) yer osti ishlarida doimiy band bo‘lgan xodimlarga ularning stvoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me’yoriy vaqt uchun to‘lanadigan qo‘shimcha haqlar;

k) qonun hujjalarda belgilangan normalar doirasida dala ta’mnoti.

l) oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo‘l chiptalarining qiymatini qoplash.

7) ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash:

a) qonun hujjalari muvofiq:

- yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta’tilga haq to‘lash, shuningdek undan foydalanimaganda, shu jumladan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to‘lash;

- noqulay va o‘ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og‘ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash;

- o‘qish bilan bog‘liq ta’tilga va ijodiy ta’tillarga haq to‘lash;

- o‘n ikki yoshga to‘lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo‘shimcha ta’tilga haq to‘lash;

b) asosiy ish joyi bo‘yicha asosiy ish haqi qisman saqlab qolning holda majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga beriladigan to‘lovlar;

v) donor xodimlarga ko‘rikdan o‘tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

g) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

d) qishloq xo‘jaligi ishlariga va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

e) avvalgi ish joyi bo‘yicha mansab maoshi miqdorlari muayyan bir muddat davomida saqlab qolning holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vazifani vaqtincha bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

j) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishi vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha to‘lanadigan ish haqi;

z) xodimning aybisiz bekor turib qolning vaqt uchun haq to‘lash;

i) sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra yengilroq yoki noqulay ishlab chiqarish omillarining ta’siridan xoli bo‘lgan kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilganda saqlanadigan avvalgi o‘rtacha oylik ish haqini qonun hujjalarda nazarda tutilgan hollarda to‘lash, shuningdek vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘shimcha haq to‘lash;

k) majburiy progul vaqt yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun qonun hujjalari muvofiq yoki yuridik shaxsning qaroriga ko‘ra haq to‘lash;

l) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

m) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun,

o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalg qilinadigan malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

n) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqt uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

o) xodimlarga ta’til uchun mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan haq va ular bo‘yicha pullik kompensatsiyalar.

8) nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘srimcha to‘lovlar.

Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar ushbu moddaning qo‘llanilishi maqsadida amortizatsiya qilinadigan mol-mulk deb e’tirof etiladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

1) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa ob’ektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);

2) mahsuldor chorva mollari;

3) axborot-kutubxona fondi;

4) muzey ashyolari;

5) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar;

6) moddiy madaniy meros ob’ektlari;

7) umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;

8) qiymati ilgari to‘liq chegirilgan mol-mulk;

9) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar tarkibiga o‘tkazilmagan kapital qo‘yilmalar.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo‘lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi:

Guruhlar tartib raqami	Kichik guruhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	3
	1	Binolar, imoratlar	
	2	Neft va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko‘priklar	
	6	Dambalar, to‘g‘onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo‘llari	
	9	Qirg‘oqni mustahkamlovchi, qirg‘oqni himoyalovchi inshootlar	5
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar	
	11	Ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo‘nish yo‘llari, yo‘laklari, to‘xtash joylari	

	14	Bog‘larning va hayvonot bog‘larining inshootlari	
	15	Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II	Uzatish qurilmalari		
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	
III	Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar		
	1	Issiqlik texnika uskunalar	
	2	Turbina uskunalar va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV	Faoliyat turlari bo‘yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)		
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	
	2	Qishloq xo‘jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalar	
	3	Kommutatsiyalar va ma’lumotlarni uzatish raqamlili elektron uskunalar, raqamli tizimlar uzatish uskunalar, raqamli aloqa o‘lchov texnikasi	
	4	Yo‘ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunalar	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o‘xshash uskunalar	
	6	Kinostudiylarning maxsus uskunalar, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunalar	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalar	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko‘tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalar, tuproq, karer hamda yo‘l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	
	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalar, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalar	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdagisi g‘imlar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg‘ulash uskunalar	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V	Harakatlanuvchan transport		
	1	Temir yo‘lining harakatdagi tarkibi	4

	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Yengil avtomobillar	
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	
	9	Boshqa transport vositalari	
VI		Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunaları	
	1	Kompyuterlar	
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunaları	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII		Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar	
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	
	2	Boshqalar	

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq Soliq kodeksda belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani ushbu moddada belgilanganidan pastroq va soliq to'lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo'yilgan normalar bo'yicha hisoblashga yo'l qo'yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to'liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida ushbu moddada nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalar ob'ektlarini oladigan soliq to'lovchi ushbu asosiy vositalar ob'ekti bo'yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar ob'ektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning ushbu moddada tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo'lsa, soliq to'lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo'limgan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo'lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo'limgan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo'lgani singari amalga oshiriladi.

Nomoddiy aktivlar uchun qilingan xarajatlar soliq to'lovchi tomonidan, ularning boshlang'ich qiymati va unumli foydalanilishi muddatidan, lekin soliq to'lovchining faoliyati muddatidan ortiq bo'limgan muddatdan kelib chiqqan holda, hisoblab chiqilgan normalar bo'yicha har oyda eskirish tariqasida jami daromaddan chegirib

tashlanadi.

Nomoddiy aktivlar ob'ektidan unumli foydalanish muddatini aniqlash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga yoki chet davlatning qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek nomoddiy aktivlardan foydalanishning tegishli shartnomalar bilan bog'liq unumli muddatidan kelib chiqqan holda patentning, guvohnomaning amal qilish muddati va (yoki) intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish muddatlarining boshqa cheklanishlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Unumli foydalanish muddatini aniqlab bo'lmaydigan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya normalari besh yilga, lekin soliq to'lovchining faoliyat muddatidan ortiq bo'lman muddatga mo'ljallab belgilanadi.

Boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) soliq to'lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o'zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, bularga quyidagilar kiradi:

✓ mahsulot ishlab chiqarish (tayyorlash) bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, xom ashyoga (materiallarga) ishlov berish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy vositalarga texnik xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi ishlar;

✓ o'zga yuridik va jismoniy shaxslarning transport xizmatlari;

✓ ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish uchun yoki soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarish uchun o'zga yuridik shaxslar tomonidan xodimlarni (texnik personalni) taqdim etishga doir xizmatlar uchun xarajatlari;

2) asosiy vositalar va boshqa mol-mulkni ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy hamda kapital ta'mirlash xarajatlari). Asosiy vositalarni kapital ta'mirlashni amalga oshirish xarajatlarining bir maromda kiritib borilishini ta'minlash uchun soliq to'lovchi asosiy vositalarning kelgusi ta'mirlanishi uchun belgilangan tartibda zaxiralar tashkil etishga haqli;

3) ijara to'lovleri, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog'liq xarajatlar;

4) konservatsiyaga qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'ektlarini saqlash xarajatlari (boshqa manbalar hisobiga qoplanadigan xarajatlardan tashqari);

5) vakolatli tashkilotlar tomonidan muayyan huquqlar yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berishni nazarda tutuvchi hujjatlarni bergenlik uchun yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlni to'lash bo'yicha xarajatlar, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ekspertizadan o'tkazish hamda mahsulotni sertifikatlashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

6) mahsulotni sotish bozorlarini o'rganish xarajatlari;

7) inventarni, xo'jalik anjomlarini va maxsus ish kiyimlarini yuvish, tuzatish hamda dezinfektsiya qilish xarajatlari summasi yoki ularga to'langan haq;

8) qat'iy hisobotdagi blanklarni, kvitansiyalar va boshqa hujjatlarni tayyorlash xarajatlari summasi yoki ularni olish uchun to'langan haq;

9) tushumni inkassatsiya qilish xarajatlari;

10) reklama uchun xarajatlar;

11) vakillik xarajatlari Vakillik xarajatlariga soliq to'lovchining o'zaro hamkorlik

o‘rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek soliq to‘lovchining boshqaruv va nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko‘rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o‘tkazish, transport ta’minoti, ovqatlanishi va turar joyi, soliq to‘lovchining shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to‘lash xarajatlaridir;

12) kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli ta’mirlash va ularga kafolatli xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

13) telekommunikatsiyalar va pochta xizmatlari uchun to‘lanadigan haq;

14) xizmat safarlari uchun xarajatlar:

a) tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish uchun haqiqatda qilingan xarajatlari, shu jumladan joyni band qilib qo‘yish haqi. Yo‘l hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, xarajatlar temir yo‘l transportidagi (yoki agar temir yo‘l aloqasi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda chegirib tashlanadi;

b) tasdiqlovchi hujjatlar asosida joyni ijaraga olish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlari, shu jumladan joyni band qilib qo‘yish xarajatlari;

v) xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun to‘lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

g) qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa xarajatlari;

15) qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan kompensatsiya to‘lovleri, Soliq kodeksning 143-moddasida ko‘rsatilganlari bundan mustasno;

16) soliq to‘lovchining faoliyatida talab etiladigan boshqa shaharlik, chet ellik mutaxassislarni ishga taklif qilish bilan bog‘liq xarajatlari;

17) auditorlik tekshiruvlari bo‘yicha xarajatlari;

18) maslahat, axborot xizmatlariga, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va tiklash bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash;

19) bankning, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq to‘lash;

20) kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari;

21) qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan hamda soliq to‘lovchining xarajatlariga kiritiladigan byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lanadigan soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlar Soliq kodeks 147-moddasining 14 va 15-bandlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

22) assotsiatsiyalarga, jamg‘armalarga va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalqaro tashkilotlarga to‘lanadigan badallar, agar bunday badallarni to‘lash soliq to‘lovchi faoliyatining amalga oshirilishi uchun majburiy shart bo‘lsa yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshirilsa;

23) mehnat sharoitlarini muhofaza qilish va ta’minalash, texnika xavfsizligi, yong‘inga qarshi va soqchilik muhofazasini hamda texnikaviy foydalanish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta’minalash xarajatlari;

24) litsenziya bitimlariga ko‘ra huquq egasi bilan shartnomaga bo‘yicha elektron-hisoblash mashinalari va ma’lumotlar bazalari dasturlaridan foydalanish huquqini olish bilan bog‘liq xarajatlar. Mazkur xarajatlarga elektron-hisoblash mashinalari va ma’lumotlar bazalari uchun dasturlarni yangilashga doir xarajatlar ham kirdi;

25) intellektual faoliyat natijalariga bo‘lgan huquqlardan va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalardan (xususan, ixtirolargacha, sanoat namunalariga va intellektual mulkning boshqa turlariga bo‘lgan patentlardan yuzaga keladigan huquqlardan) foydalanganlik uchun to‘lovlar;

26) buxgalteriya hisobotini e’lon qilish, shuningdek boshqa axborotni, agar qonun hujjatlarida ularni e’lon qilishni (oshkor qilishni) amalga oshirish majburiyati soliq to‘lovchining zimmasiga yuklangan bo‘lsa, e’lon qilish va boshqacha tarzda oshkor qilish xarajatlari;

27) xodimning mehnatda mayib bo‘lishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a’zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a’zolariga beriladigan moddiy yordam;

28) qonun hujjatlariga muvofiq qayta tashkil etilishi, xodimlar (shtatlar) sonining qisqarishi munosabati bilan ozod etiladigan xodimlarga to‘lovlar;

29) tibbiy yordam punktini saqlab turish xarajatlari, xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazganlik va profilaktika tadbirlari uchun tibbiyot muassasalariga to‘lanadigan haq;

30) sog‘lijni saqlash ob’ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, sog‘lomlashtirish oromgohlari, madaniyat hamda sport ob’ektlari, ta’lim ob’ektlari, shuningdek, uy-joy fondi ob’ektlari ta’minotiga doir xarajatlar (shu jumladan, amortizatsiya ajratmalari va barcha turdagicha ta’mirlash ishlarini o‘tkazish xarajatlari);

31) ixtiyoriy sug‘urta uchun sug‘urta mukofotlari (badallari), yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxslar foydasiga to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari (badallari), agar ushbu moddaning 33-bandida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bundan mustasno;

32) O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari summalarini;

33) sug‘urtaning majburiy turlariga sug‘urta mukofotlari (badallari);

34) atrof muhitni iflosantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida kompensatsiya to‘lovlar;

35) faoliyat bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalari uchun xarajatlar, bundan asosiy vositalarni sotib olish, ularni o‘rnatish hamda kapital tusdagicha boshqa xarajatlar mustasno. Loyiha-smeta hujjatlari, bajarilgan ishlar dalolatnomasi va tegishli ilmiy-tadqiqot, loyihalash, izlanish hamda tajriba-konstrukturlik ishlari o‘tkazilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bunday xarajatlarni chegirmalar jumlasiga kiritish uchun asos bo‘ladi;

36) ishlab chiqarish tusidagi ixtirochilik, ratsionalizatorlik, tajriba-eksperimental ishlarini o‘tkazish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik takliflari bo‘yicha modellar va namunalarni tayyorlash hamda ularni sinash, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha ko‘rgazmalar va ko‘riklar, tanlovlardan tashkil etish, ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo‘yicha boshqa tadbirlar, mualliflik haqini to‘lash, yangi texnologiyalar yaratish hamda qo‘llanilayotgan texnologiyalarni takomillashtirish, yangi turdagicha xom ashyo va

materialarni yaratish, ishlab chiqarishni qayta jihozlash xarajatlari;

37) soliq to‘lovchi tomonidan geologik tadtqiqotlar va tabiiy resurslarni qazib olish bo‘yicha tayyorgarlik ishlari uchun amalga oshirilgan, jami daromaddan keyingi yillar mobaynida bir maromda yiliga 15 foizdan oshmagan miqdorda chegirib tashlanadigan xarajatlar;

38) qazib oluvchi tarmoqlarda xarajatlarni qoplashning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmiga va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladigan tayyorgarlik ishlariga doir xarajatlar;

39) zararlar va yo‘qotishlar:

a) bekor qilingan ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha;

b) tara bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha;

v) umidsiz qarzdorlikni hisobdan chiqarishdan ko‘rilgan zararlar, bundan shubhali qarzlar bo‘yicha tashkil etilgan zaxira hisobiga hisobdan chiqarish mustasno;

g) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi operatsiyalar bo‘yicha xarajatlar va zararlar, bundan Soliq kodeksning 147-moddasiga muvofiq chegirib tashlanmaydigan xarajatlar va zararlar mustasno;

d) tabiiy ofatlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulotlar va boshqa moddiy boyliklarning nobud bo‘lishi hamda buzilishi, ishlab chiqarishning to‘xtashi oqibatidagi yo‘qotishlar va boshqalar) tufayli ko‘rilgan o‘rni qoplanmaydigan yo‘qotishlar va zararlar, shu jumladan tabiiy ofatlar oqibatlarini oldini olish yoki ularni bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar;

e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida mol-mulkni bepul topshirishdan ko‘rilgan zararlar, shuningdek telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini bepul topshirishdan hamda ulardan bepul foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatishdan ko‘rilgan zararlar;

j) uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar;

z) asosiy vositalarni har yili amalga oshiriladigan qayta baholash natijasida vujudga keladigan ilgarigi qo‘srimcha baholashdan (bahoning arzonlashtirilgan summasidan) olinadigan o‘sishdan ortadigan bahoni arzonlashtirish summasi;

i) yaroqsiz mahsulotdan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

k) ichki ishlab chiqarish sabablariga ko‘ra bekor turib qolishlardan ko‘rilgan yo‘qotishlar;

l) tashqi sabablarga ko‘ra (yuridik shaxsning aybisiz) bekor turib qolishlardan ko‘rilgan, aybdorlar tomonidan kompensatsiya qilinmaydigan yo‘qotishlar;

m) qarz summasi bilan mazkur qarzni yuzaga keltirgan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxi o‘rtasidagi farqdan oshmaydigan summa doirasidagi qarzni talab qilish huquqidан o‘zganing foydasiga voz kechishdan ko‘rilgan zararlar;

40) kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo‘yicha foizlar mustasno;

41) kredit shartnomasida nazarda tutilgan stavkalar doirasida muddati o‘tgan va

uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar, bundan investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo‘yicha foizlar mustasno;

42) valyuta hisobvaraqlari, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha kursdagi salbiy farq, bu farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi hollarda jami daromaddan chegirib tashlanadi:

- chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqining o‘tish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan past narxda sotilganda;

- chet el valyutasi ushbu chet el valyutasiga bo‘lgan mulk huquqining o‘tish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdan yuqori narxda sotib olinganda;

- chet el valyutasi kursining o‘zgarishi munosabati bilan tegishli hisobot davri uchun balansning valyuta moddalari qayta baholanganda.

Baholari chet el valyutasida belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun o‘zaro hisob-kitoblarni milliy valyutada amalga oshiradigan soliq to‘lovchilar uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilingan yoki olingan sanadan ushbu tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to‘langan sanagacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursdagi o‘zgarish munosabati bilan yuzaga keluvchi salbiy farq buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) haq to‘langan sanadagi jami daromaddan chegirib tashlanadi;

43) o‘zining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

44) moliyaviy ijara, shu jumladan lizing bo‘yicha ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi bo‘lgan mablag‘larni to‘lashga doir xarajatlar;

45) soliq to‘lovchi tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar tarzidagi xarajatlar;

46) favqulodda zararlar. Favqulodda zararlar – soliq to‘lovchilarning odatdagagi faoliyati doirasidan chetga chiquvchi voqealar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlarning moddalaridir. U yoki bu modda favqulodda zararlar muddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- yuridik shaxsning odatdagagi xo‘jalik faoliyati uchun xos bo‘lmasligi;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi;

47) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub’ektining muassisulari (ishtirokchilari) tomonidan uning majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag‘lar chegirib tashlanadigan xarajatlar sifatida qaralmaydi;

48) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini, bolani ikki yoshga to‘lguniga qadar parvarishlash nafaqalarini, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalarni to‘lash xarajatlari.

49) xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ishdan bo‘shtish nafaqasi va boshqa to‘lovlar shuningdek pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo‘la to‘lanadigan

nafaqalar;

50) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta’minalash xarajatlari;

51) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

52) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minalash xarajatlari;

53) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish, mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) xarajatlari;

54) mehnatda mayib bo‘lganlik, kasb kasalligi yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetganligi bilan bog‘liq zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha to‘lovlar.

55) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

- marhum o‘rtacha oylik ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

- boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar.

56) abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq.

57) yordamchi xo‘jaliklar tomonidan ishlab chiqariladigan va soliq to‘lovchining umumiyligi ovqatlanish ehtiyojlari uchun beriladigan tovarlarning narxlaridagi farqlar (zararlar);

58) xo‘jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar;

59) nodavlat pensiya jamg‘armalariga ajratmalar;

60) ishonchli boshqaruvchilar xizmatlarining qiymatini to‘lashga doir xarajatlar;

61) boshqa xarajatlar, bundan Soliq kodeksning 147-moddasida ko‘rsatilgan xarajatlar mustasno.

Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda, joriy hisobot davrida soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ular keyingi davrlarda, soliq to‘lovchining hisob siyosati bilan belgilangan, lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida chegirilishi lozim. Bunday xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1) yangi ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni, shuningdek seriyali va ommaviy ishlab chiqariladigan yangi mahsulot turlarini hamda texnologik jarayonlarni o‘zlashtirish xarajatlari;

2) barcha turdagи asbob-uskunalar va texnik qurilmalarni, ularning o‘rnatalish sifatini tekshirib ko‘rish maqsadida kompleks sinab ko‘rish (ishlab turgan holatida) xarajatlari;

3) ishchi kuchlari qabul qilish va yangi ishga tushirilgan korxonada ishslash uchun kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq xarajatlar;

4) asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblangan amortizatsiya summasi bilan Soliq kodeksning 144-moddasiga muvofiq belgilangan normalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi ijobiy farq;

Yuqorida birinchi qismining 1-3-bandlarida ko‘rsatilgan xarajatlar ular yuzaga kelgan paytda joriy hisobot davrida ham chegirilishi mumkin.

Shubhali qarzlar bo‘yicha zaxira tashkil etish uchun qilingan xarajatlar Soliq kodeksga muvofiq umidsiz deb e’tirof etilgan qarzdorlikni hisobdan chiqarilayotganda, hisobdan chiqarilishi lozim bo‘lgan umidsiz qarzdorlik miqdoridan oshmaydigan summada chegirib tashlanadi.

Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridagi ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar;

2) umumiyl ovqatlanish korxonalariga yoki boshqa chet tashkilotlarga joylarni bepul berish xarajatlari, ushbu korxonalar va tashkilotlar uchun kommunal xizmatlar ko‘rsatish qiymatini to‘lash;

3) soliq to‘lovchining Soliq kodeksning 177-moddasida nazarda tutilgan, jismoniy shaxsning moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblanadigan xarajatlari;

4) dala ta’mnoti, xizmat maqsadida xodimning shaxsiy avtotransportdan foydalanganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to‘langan to‘lovlari;

5) pensiyalarga qo‘sishimcha va ustamalar;

6) xodimlarga to‘lanadigan moddiy yordam, bundan Soliq kodeksning 143 va 145-moddalarida nazarda tutilgan moddiy yordam mustasno;

7) badallar, homiylik va xayriya yordami tarzidagi mablag‘lar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiq holda atrof muhitni ifloslantirganlik va chiqindilarni joylashtirganlik uchun kompensatsiya to‘lovlar;

9) kredit shartnomasida muddatli qarzlar uchun nazarda tutilgan stavkalardan ortiqcha bo‘lgan, to‘lov muddati o‘tgan hamda uzaytirilgan kreditlar (zayomlar) bo‘yicha foizlar;

10) loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob’ekt yonidagi omborgacha tashib keltirilishi chog‘ida yuz bergan buzilishlar va deformatsiyalarni bartaraf etish bo‘yicha xarajatlar, korroziyaga qarshi muhofazadagi nuqsonlar tufayli taftish o‘tkazish (asbob-uskunalarni qismlarga ajratish) xarajatlari, mazkur xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki zararlar uchun javobgar bo‘lgan mahsulot yetkazib beruvchi yoki boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar hisobidan o‘rnini qoplash mumkin bo‘lmagan miqdordagi boshqa shunga o‘xhash xarajatlar;

11) aybdorlari aniqlanmagan o‘g‘irliklar va kamomadlardan yoki zarur summalarining o‘rnini aybdor taraf hisobidan qoplash mumkin bo‘lmaganda ko‘rilgan zararlar;

12) soliq to‘lovchining asosiy vositalari chiqib ketishidan (balansdan chiqarilishidan) ko‘rilgan (buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan) zararlar, bundan Soliq kodeks 145-moddasi 40-bandining «e» va «j» kichik bandlarida ko‘rsatilgan zararlar mustasno;

13) xo‘jalik shartnomalari shartlarini va qonun hujjatlarini buzganlik uchun to‘langan yoki tan olingan jarimalar, penya hamda boshqa turdagи sanktsiyalar;

14) O‘zbekiston Respublikasi norezidenti va boshqa shaxslar uchun to‘langan soliqlar;

15) tekshiruvlar natijalariga ko‘ra qo‘shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;

16) soliq to‘lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi bilan bog‘liq bo‘lмаган тадбирлар (sog‘liqni saqlash, sport va madaniyat tadbirlari, dam olishni tashkil etish va hokazo) uchun xarajatlar;

17) kasaba uyushmasi qo‘mitalariga yordam ko‘rsatish;

18) mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lмаган ishlarni (xizmatlarni) bajarish uchun xarajatlar (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish ishlari, qishloq xo‘jaligiga yordam ko‘rsatish va boshqa turdagи ishlari).

Kredit tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) kredit tashkilotining o‘z nomidan va o‘z hisobidan pul mablag‘larini joylashtirishdan, kreditlar hamda zayomlar berishdan olinadigan foizlar, boshqa foizli daromadlar. O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida berilgan kreditlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga muvofiq foizlarni to‘lash bo‘yicha imtiyozli davr berilgan kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar kredit shartnomasiga ko‘ra olish muddati yetib kelmagunicha soliq solinadigan daromad sifatida qaralmaydi;

2) mijozlarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochganlik va yuritganlik hamda ularning topshirig‘iga binoan hisob-kitoblarni amalga oshirganlik uchun olingan haq, shu jumladan jo‘natma, inkasso, akkreditiv va boshqa operatsiyalar, bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan to‘lov kartalarini hamda boshqa maxsus vositalarni rasmiylashtirganlik va xizmat ko‘rsatganlik uchun, hisobvaraqlar bo‘yicha ko‘chirmalarni hamda boshqa hujjatlarni taqdim etganlik uchun va summalarini qidirganlik uchun vositachilik haqi hamda boshqa pul mukofotlari;

3) pul mablag‘larini inkassatsiya qilishdan, veksellardan, to‘lov va hisob-kitob hujjatlaridan hamda mijozlarga kassa xizmati ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

4) naqd pulli va naqd pulsiz shaklda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarini o‘tkazishdan, shu jumladan chet el valyutasini sotib olish yoki sotish, jumladan mijozning hisobidan va uning topshirig‘i bo‘yicha operatsiyalarda vositachilik va boshqa mukofotlar, valyuta boyliklari bilan operatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

5) uchinchi shaxslar uchun pul shaklida ijro etilishini nazarda tutuvchi bank kafolatlari, majburiyatları, avallari va kafilliklari berishga doir operatsiyalardan olinadigan pul shaklidagi mukofot;

6) hujjatlarni va qimmatliklarni saqlash uchun maxsus jihozlangan xonalar va seyflarni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;

7) pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, boshqa boyliklar va bank hujjatlarini yetkazib bergenlik, tashiganlik uchun haq;

8) qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni tashiganlik va saqlab turganlik uchun haq;

9) forfeyting va faktoring operatsiyalarini amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

10) kredit tashkilotlari tomonidan o‘z professional faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Balansning valyutaga oid moddalari qayta baholanganda olinadigan daromadlar, shuningdek chet el valyutasining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish yoki olish sanasidan ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘langan sanagacha bo‘lgan davrda o‘zgarishi munosabati bilan yuzaga kelgan ijobiy farq Soliq kodeksning 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar sifatida qaraladi.

O‘stirmaslik maqomini olgan kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibga muvofiq daromadlar hisobvaraqlaridan chiqarib tashlanadi.

Kredit tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) kredit resurslari uchun to‘lovlar, pul mablag‘lari va qimmatliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

2) mijozlarning depozit hisobvaraqlari, shu jumladan jismoniy shaxslarning omonatlari bo‘yicha hisoblangan va to‘langan foizlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan normalar doirasida tavakkalchilik operatsiyalari bo‘yicha zaxiralarga ajratmalar.

Tijorat banklarining soliq solinadigan foydasidan ular o‘z filiallariga beradigan mol-mulk qiymati chegirib tashlanadi.

Sug‘urta tashkilotlarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari). Bunda birgalikda sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari (badallari) sug‘urtalovchining (birgalikda sug‘urta qiluvchining) daromadlari tarkibiga faqat uning birgalikda sug‘urta qilish shartnomasida belgilangan sug‘urta mukofotidagi ulushi miqdorida qo‘shiladi;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug‘urtaviy texnik zaxiralarni kamaytirishning (qaytarishning) qayta sug‘urta qiluvchilarining sug‘urta zaxiralaridagi ulushi o‘zgarishi hisobga olingan holdagi summalar;

3) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha pul mukofoti, shuningdek qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha tantemalar (foydadan olinadigan haq);

4) qayta sug‘urta qilishga o‘tkazilgan tavakkalchilik bo‘yicha sug‘urta to‘lovleri ulushining o‘rnini qayta sug‘urta qiluvchilar tomonidan qoplash summalar;

5) qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha mukofotlar deposiga hisoblangan foizlar summalar;

6) sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslarga nisbatan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan, qonun hujjalari muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan daromadlari;

7) sug‘urta agenti, broker, vositachi xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun mukofot;

8) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilariga xizmatlar ko‘rsatganlik

uchun sug‘urtalovchi tomonidan olingen pul mukofoti;

9) sug‘urta xizmatlari ko‘rsatishdan va qo‘shimcha sug‘urta faoliyatidan olingen boshqa daromadlar.

Sug‘urta tashkilotlarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘langan to‘lov summalar;

2) avvalgi hisobot davrlarida shakllantirilgan sug‘urta texnik zaxiralari o‘sishining qayta sug‘urta qiluvchilarning sug‘urta zaxiralaridagi ulushi o‘zgarishi hisobga olingen holdagi summasi;

3) sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish majburiyatlari bo‘yicha amalga oshirilgan hamda hisoblangan to‘lov summalar;

4) fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq o‘tgan yillardagi sug‘urta hodisalari bo‘yicha tugallanmagan to‘lov summalar, shu jumladan da’vo muddati doirasidagi majburiyatlar summasi;

5) sug‘urta hodisasi ro‘y beriganligi haqida ma’lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta summalar;

6) sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisalari ro‘y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashtirishga sarflaydigan mablag‘lar summalar;

7) sug‘urta tashkilotlari zaxira fondlarining miqdori sug‘urta tashkilotlari ustav fondining 25 foiziga yetguniga qadar mazkur tashkilotlar o‘z daromadlarining 20 foizigacha miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar summasi;

8) sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq o‘zga yuridik shaxslarning xizmatlariga to‘langan haq.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

1) qimmatli qog‘ozlarni realizatsiya qilishdan olinadigan, quyidagicha aniqlanadigan daromadlar:

- qimmatli qog‘ozlar, bundan qarz qimmatli qog‘ozlari (obligatsiyalar, depozit sertifikatlari) mustasno, va ishtirok etish ulushi bo‘yicha – realizatsiya qilish qiymati va olish qiymati (hissa) o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida;

- qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha – realizatsiya qilish qiymati bilan realizatsiya qilish sanasidagi diskont amortizatsiyasi va (yoki) mukofot inobatga olingen holda olish qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida;

2) qimmatli qog‘ozlar bozorida vositachilik va boshqa xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

3) mijozlarning mablag‘laridan foydalanishdan yuzaga keladigan daromadning bir qismi;

4) depozitar xizmatlar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risida axborot taqdim etish, depo hisobvarag‘ini yuritish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

5) qimmatli qog‘ozlar bilan birjada va birjadan tashqarida savdolarni tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

6) qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan investitsiya aktivlarini boshqarish bo‘yicha daromadlar;

7) qimmatli qog‘ozlar bozorida maslahat xizmatlari ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar;

8) professional faoliyatdan olingen boshqa daromadlar.

Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining chegiriladigan xarajatlariga Soliq kodeksning 142-146-moddalarida nazarda tutilgan xarajatlardan tashqari quyidagilar kiradi:

1) tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan savdoni tashkil etuvchilarga badallar tarzida to‘lanadigan xarajatlar;

2) professional faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan paydo bo‘ladigan savdo qilish joylarini saqlab turish va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

3) qimmatli qog‘ozlar muomalasi va ularni hisobga olish bilan bog‘liq o‘zaro elektron aloqani tashkil etish hamda olib borish bo‘yicha xarajatlar;

4) qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish bilan bog‘liq xarajatlar;

5) o‘z mijozlarining topshirig‘iga binoan aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlarida ishtirok etish xarajatlar.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining soliq solinadigan foydasini aniqlashda foya solig‘ini hisoblab chiqarish maqsadi uchun soliq solinadigan foya summasi ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan xarajatlar summasining 7 foizidan kam bo‘lishi mumkin emas;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga doimiy muassasa faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha turdagи daromadlar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining xarajatlariga O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingen daromadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ular O‘zbekiston Respublikasida yoki uning tashqarisida qilinganligidan qat‘i nazar, barcha turdagи xarajatlari kiradi.

Soliq kodeks 20-moddasi uchinchi qismining 8-bandida ko‘rsatilgan faoliyat amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza tovarlarni realizatsiya qilish qiymati bilan ularni olish qiymati o‘rtasidagi O‘zbekiston Respublikasida omborga tovarlar yetkazib berish xarajatlari hisobga olingen holdagi farq sifatida aniqlanadi.

Yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaga quyidagilar sifatida taqdim etilgan summalarini doimiy muassasaga chegirishga kiritish huquqiga ega emas:

1) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining mol-mulkidan va intellektual mulk ob’ektlaridan foydalanganlik yoki foydalanish huquqini bergenlik uchun olinadigan royligi, gonoralar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar;

2) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining xizmatlari uchun vositachilik daromadlari;

3) O‘zbekiston Respublikasining ushbu norezidenti tomonidan berilgan zayomlar bo‘yicha pul mukofotlari;

- 4) shu norezidentning O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatidan olinadigan daromadlari bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar;
- 5) hujjatlar bilan tasdiqlanmagan xarajatlar;
- 6) O‘zbekiston Respublikasi ushbu norezidentining O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida qilingan boshqaruv va ma’muriy xarajatlari.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa alomatlariga javob beradigan faoliyatidan, davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilguniga qadar olingan daromadlariga Soliq kodeksning 155-moddasida belgilangan tartibda to‘lov manbaida soliq solinadi. Bunda to‘lov manbaida soliq agenti tomonidan ushlab qoltingan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i u O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organida doimiy muassasa sifatida hisobga qo‘yilganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi norezidentining soliq majburiyatlarini uzish hisobga olinishi kerak.

Agar O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyatdan daromad olingan bo‘lsa va shu daromaddan O‘zbekiston Respublikasida to‘lov manbaida haqiqatda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qoltingan hamda byudjetga o‘tkazilgan bo‘lsa, ushbu norezidentning doimiy muassasasida ushlab qoltingan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisobga olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlariga, mazkur daromadlarni olish bilan bog‘liq xarajatlar chegirib tashlanmagan holda to‘lov manbaida soliq solinadi.

Investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish uchun jalb qilingan kreditlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi banklari va lizing beruvchilari tomonidan xorijiy moliya institutlariga to‘lanadigan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagilar kiradi:

- 1) dividendlar va foizlar;
- 2) Soliq kodeksning 157-moddasiga muvofiq belgilanadigan, oddiy shirkat shartnomasi asosida birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- 3) O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar:

– yuridik shaxslarning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalari (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan aksiyalar mustasno), ulushlari (paylari);
– ko‘chmas mulk.

To‘lov manbaida soliqqa tortiladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbaida ushlab qolish mol-mulkni realizatsiya qilish qiymatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi;

- 4) O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga tegishli tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi norezidentining o‘zi yoxud O‘zbekiston Respublikasi rezidenti

tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Bunda tovarlarni realizatsiya qilishdan olinadigan mazkur daromadlar O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lanadigan summaning olib kirilgan tovarning kontrakt (faktura) qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi;

5) royalti;

6) Soliq kodeksning 134-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, O‘zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan mol-mulkni ijaraga yoki ikkilamchi ijaraga topshirishdan olinadigan daromadlar;

7) tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish, bиргаликда sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari;

8) o‘tkazgichli, radio, optik yoki boshqa elektromagnitli tizimlar orqali belgilar, signallar, matnlar, tasvirlar, tovushlarni uzatganlik, qabul qilganlik va qayta ishlaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga haq to‘lanishini nazarda tutuvchi xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar xizmatlariga to‘lov;

9) dengiz, daryo va havo kemalaridan, temir yo‘l yoki avtomobil transporti vositalaridan xalqaro tashishlarda foydalanishdan olinadigan daromadlar. Ushbu daromadlarga transport vositalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishdan, ularni ijaraga berishdan yoki har qanday boshqa shakllarda foydalanishdan, shu jumladan konteynerlardan, konteynerlarni tashish uchun treylerlar va qo‘srimcha uskunalaridan foydalanish, ularni saqlash yoki ijaraga berishdan olinadigan daromadlar (fraxtdan olinadigan daromadlar) kiradi. Ayrim hollarda fraxt (shartnomalaridan kelib chiqib) yukni ortish, qayta yuklash, tushirish va joylashtirish uchun to‘lovlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunda, agar jo‘natish punkti yoki tayin etilgan punkt O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan bo‘lsa, tashish xalqaro tashish deb hisoblanadi, bundan faqat O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan punktlar o‘rtasida amalga oshiriladigan tashish mustasno;

10) xalqaro tashishlarda va O‘zbekiston Respublikasi hududidagi tashishlarda transport-ekspeditorlik xizmatlarini ko‘rsatishdan olinadigan daromadlar. Bunda yuk jo‘natuvchidan (yukni qabul qilib oluvchidan) olingan summa bilan yuk tashuvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan, yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bilan tasdiqlangan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan haq summasi soliq solinadigan daromad hisoblanadi. Yuk tashuvchining tegishli birlamchi hujjatlari bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga norezidentning ushu qismning **9-bandida** ko‘rsatilgan fraxtdan olinadigan daromadlariga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘langan umumiy summaga soliq solinadi;

11) O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan shartnomalarini buzilganligi uchun jarimalar hamda penya;

11¹) tekinga olingan mol-mulk;

12) O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan boshqa daromadlar.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining O‘zbekiston Respublikasidagi

manbalardan olgan daromadlariga quyidagilar kirmaydi:

✓ O‘zbekiston Respublikasi norezidentining, faqat shu norezident nomidan amalga oshiriladigan va faqat tovarlar xarid qilish (olish), shuningdek tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish bilan bog‘liq tashqi savdo operatsiyalari (shu jumladan tovar ayirboshlash operatsiyalari) bo‘yicha olingan daromadlar;

✓ banklarning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining vakillik hisobvaraqlarini ochish va yuritish hamda ular bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar ko‘rsatishdan, shuningdek xalqaro to‘lov kartochkalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishdan olinadigan daromadlar;

✓ O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar, bundan ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan olinadigan daromadlar mustasno .

Daromadni to‘lash deganda naqd pulli va (yoki) naqd pulsiz shaklda pulni, qimmatli qog‘ozlarni, ishtirok etishdagi ulushni, tovarlarni, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromadlar to‘lash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti oldidagi qarzdorlikni uzish hisobiga amalga oshiriladigan, daromad oluvchining – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining qarzi talabini hisobdan chiqarish yoki hisobga olish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlariga soliq solish mazkur O‘zbekiston Respublikasi norezidenti o‘z daromadlarini uchinchi shaxslar, boshqa davlatlardagi o‘z bo‘linmalarini foydasiga va boshqa maqsadlarda tasarruf etishidan qat’i nazar, amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov manbaida ushlab qolishni O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi va O‘zbekiston Respublikasining boshqa norezidentiga daromad to‘lovchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari amalga oshirishlari shart.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi daromadni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga to‘lash sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha hisoblab chiqariladi.

Sug‘urta badallaridan olingan daromadlar bo‘yicha soliqlarning to‘langan summalarini sug‘urta hodisasi yuz berganda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta uchun to‘lovga doir xarajatlar to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolningan va byudjetga o‘tkazilgan sug‘urtalovchining – O‘zbekiston Respublikasi norezidentining daromadlarini kamaytirish uchun hisobga olinadi. Mazkur qayta hisob-kitobni O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga daromadni to‘lagan va to‘lov manbaida soliqni ushlab qolgan yuridik shaxs bajarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolinmagan holda daromadni to‘lash Soliq kodeksning 20-moddasiga muvofiq doimiy muassasani tashkil etishga olib keladigan faoliyatdan olinadigan daromadlar bo‘yicha – O‘zbekiston Respublikasining norezidenti faoliyatni O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi sifatida amalga oshirishi

va davlat soliq xizmati organida hisobda turganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnomalar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga daromadlarni to‘lash to‘lov manbaida O‘zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan taqdim etilgan, chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan, O‘zbekiston Respublikasi qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lsa, o‘sha davlatda mazkur shaxsning rezidentligi borligi faktini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lgan taqdirda ham O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq to‘lov manbaida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolimagan yoki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining pasaytirilgan stavkasi qo‘llanilgan holda amalga oshiriladi.

Daromadlar xorijiy banklarga va xalqaro banklararo telekommunikatsiya tizimlariga to‘langan taqdirda, qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga mavjud bo‘lsa, o‘sha davlatda xorijiy bankning yoki xalqaro banklararo telekommunikatsiya tiziminining doimiy joylashgan yeri mavjudligi faktini tasdiqlash, agar ushbu doimiy joylashilgan yer hamma foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot manbalaridagi ma’lumotlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, talab qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan to‘langan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlaridan ushlab qoligan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i byudjetga to‘langan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomasi qoidalariga muvofiq Soliq kodeksning 38-moddasida belgilangan soliq majburiyatları bo‘yicha da‘vo muddati ichida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini byudjetdan qaytarish huquqiga ega. Bunda O‘zbekiston Respublikasining norezidenti O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shakldagi soliqni qaytarish uchun ariza;
- daromadni to‘lash paytida O‘zbekiston Respublikasining mazkur norezidenti O‘zbekiston Respublikasi soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomaga ega bo‘lgan mamlakatda doimiy joylashgan joyiga (rezidentligiga) ega bo‘lganligini tasdiqlovchi, tegishli chet davlatning vakolatli organi tomonidan berilgan rasmiy tasdiqnoma;
- O‘zbekiston Respublikasining norezidentiga qaysi kontrakt yoki boshqa hujjatga muvofiq daromad to‘langan bo‘lsa, o‘sha kontrakt yoki boshqa hujjatning nusxalari, shuningdek daromadning to‘langanligini va qaytarilishi lozim bo‘lgan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini ushlab qoligan va byudjetga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi to‘lov hujjatlarining nusxalari.

Agar yuqoridaq o‘n birinchi va o‘n to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan hujjatlar, shuningdek Soliq kodeksning 155¹-moddasida ko‘rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlar chet tilida tuzilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organi ularning notarial tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasini talab etishga haqli. Bunda hujjatlarni taqdim etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ular konsullik orqali

legallashtirilgan yoki apostil qo‘yilgan holda amalga oshiriladi.

Ortiqcha hisoblangan va to‘langan soliqni qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan qaytarish to‘g‘risida chiqarilgan qaror asosida, ariza berilgan kundan e’tiboran o‘n besh ish kuni ichida Soliq kodeksning 57-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidenti mazkur shaxsning rezidentligini tasdiqlovchi hujjatda ko‘rsatilgan vaqt davri mobaynida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnama tuzilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning rezidenti deb e’tirof etiladi. Agar rezidentlikni tasdiqlovchi hujjatda rezidentlik vaqtining davri ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ushbu hujjat berilgan kalendar yil davomida O‘zbekiston Respublikasi norezidenti O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qaysi davlat bilan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi xalqaro shartnama tuzilgan bo‘lsa, o‘sha davlatning rezidenti deb e’tirof etiladi.

Soliq kodeks 155-moddasi uchinchi qismining 3-bandida ko‘rsatilgan mol-mulk bir yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan boshqa yuridik shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga, jismoniy shaxsga – O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga yoki rezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda qo‘llaniladi.

Yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini ushlab qolish va to‘lash majburiyati soliq agenti deb e’tirof etiladigan daromadni to‘lash manbaiga (mol-mulkni sotib oluvchining zimmasiga) yuklatiladi.

Mol-mulkni realizatsiya qiluvchi yuridik shaxs – O‘zbekiston Respublikasi norezidenti soliq agentiga mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini (mavjud bo‘lsa) taqdim etishi shart. Taqdim etilgan hujjatlar asosida soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasini Soliq kodeks 155-moddasi uchinchi qismining 3-bandiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va Soliq kodeks 160-moddasining 4-bandida belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi hamda ushlab qoladi.

Soliq agenti olinayotgan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga (rasmiylashtirilguniga) qadar O‘zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olgan daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini:

-yuridik shaxsning – O‘zbekiston Respublikasi rezidentining ustav kapitalidagi aksiyalari, ulushlari (paylari) realizatsiya qilinganda – ushbu yuridik shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga;

-ko‘chmas mulk realizatsiya qilinganda – ko‘chmas mulk joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha, mustaqil ravishda yoki vakolatli shaxs orqali taqdim etishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobi O‘zbekiston Respublikasi norezidenti qaysi valyutada daromad olayotgan bo‘lsa, o‘sha valyutada tuziladi. Hisob-kitobga mol-mulk oldi-sotdi shartnomasining ko‘chirma nusxasi va sotuvchi tomonidan taqdim etilgan mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi

hujjatlarning ko‘chirma nusxalari (mavjud bo‘lsa) ilova qilinadi. Agar mol-mulkni olish qiymati hisob-kitob tuzilgan valyutada ifodalanmagan bo‘lsa, u holda ushbu qiymat mol-mulkni olish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisob-kitob tuzilgan valyutada qayta hisoblab chiqariladi. Davlat soliq xizmati organlari hisob-kitob taqdim etilgan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida soliq agenti yoki uning vakolatli shaxsi nomiga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitob taqdim etilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha hisoblangan milliy valyutadagi summasi ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga (rasmiylashtirilguniga) qadar byudjetga to‘lanishi lozim.

Davlat soliq xizmati organlari yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligi faktini tasdiqlovchi hujjat asosida soliq agentiga yoki uning vakolatli shaxsiga olingan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organga taqdim etiladigan soliq to‘langanligi to‘g‘risida ma’lumotnoma beradi.

Olinadigan mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (rasmiylashtiruvchi) organlar mulk huquqini soliq to‘langanligi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma taqdim etilgan taqdirdagina ro‘yxatdan o‘tkazishni (rasmiylashtirishni) amalga oshiradi.

Ushbu modda ikkinchi – sakkizinch qismlarining qoidalari aksiyalar O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlarining birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda qo‘llanilmaydi.

Aksiyalar qimmatli qog‘ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlari bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e’tirof etiladi.

Aksiyalarning oldi-sotdisi bo‘yicha amalga oshirilgan bitimlarga doir savdo yakunlari reestri asosida soliq agenti hisob-kitob-kliring operatsiyalarini amalga oshirish vaqtida sotuvchining pul mablag‘laridan realizatsiya qilingan aksiyalarning qiymati va Soliq kodeks 160-moddasining 4-bandida belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini ushlab qoladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi sotuvchining hisobiga aksiyalar qiymatini to‘lash hisobidan pul mablag‘larini o‘tkazish bilan bir vaqtda to‘lov valyutasida byudjetga o‘tkaziladi. Soliq agenti bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolning summasi to‘g‘risida aksiyalarini sotuvchining talabiga ko‘ra ma’lumotnoma berishi shart.

Soliq agenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini taqdim etish muddatlarida soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i ushlab qolning aksiyalar oldi-sotdisi bo‘yicha bitimlar reestrini taqdim etadi.

Aksiyalarni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda sotuvchi ortiqcha to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini qaytarish

to‘g‘risidagi arizani soliq agentining soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish huquqiga ega. Arizaga aksiyalarni realizatsiya qilish va olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlarning ko‘chirma nusxalari hamda soliq agenti tomonidan berilgan bitim summasi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolningan summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning ko‘chirma nusxasi ilova qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining daromadlari bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ortiqcha to‘langan summasini qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Dividendlar va foizlarga to‘lov manbaida soliq solinadi.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar soliqqa tortishdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan kredit tashkilotlariga to‘lanadigan foizlarga to‘lov manbaida soliq solinmaydi, balki ushbu Kodeksda belgilangan tartibda kredit tashkilotida soliq solinadi. Xuddi shunday tartib mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) berishda ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘lanadigan foizli daromadlarga ham tatbiq etiladi.

Soliq kodeksning 380 va 381-moddalarida belgilangan tartibda aniqlanadigan, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromad boshqa daromadlar tarkibida jami daromadga kiritiladi va unga ushbu bo‘limga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i solinishi lozim.

Oddiy shirkat shartnomasining amal qilishi tugatilganda va mol-mulk ushbu shartnomada sheriklariga (ishtirokchilariga) qaytarilganda:

-oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) yoki uning huquqiy vorisi tomonidan qo‘yilma doirasida olingan mol-mulk va mulkiy huquqlar tarzidagi tushumlar, uning ulushi shartnomada sheriklarining (ishtirokchilarining) umumiy mulkidagi mol-mulkdan ajratilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, oddiy shirkat sheringining (ishtirokchisining) daromadlari tarkibiga kiritilmaydi;

-qaytarilayotgan mol-mulk qiymati bilan bu mol-mulkning ilgari oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha topshirilgan qiymati o‘rtasidagi salbiy farq soliq solish maqsadlari uchun zarar deb e’tirof etilmaydi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

4-§. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.

Yuridik shaxslarning foyda solig‘i stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining keyingi yil uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001 yilda 26 foizga tushgan. 2002 yilga esa 24 foiz, 2003 yilda 20 foiz, 2004 yilda 18 foiz, 2005 yilda 15 foiz, 2006 yilda 12 foiz va 2007 yilda 10 foiz, 2018 yildan boshlab 14 foiz qilib belgilangan.

Quyidagi jadval ma’lumotlarida 2019 yilda yuridik shaxslarning foydasiga soliq stavkalari keltirilgan.

4-jadval

Yuridik shaxslar foydasiga solinadigna soliq stavkalari¹

T/r	To‘lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, foizda
1.	Yuridik shaxslar (2 va 3-bandlarda nazarda tutilganlari bundan mustasno)	12
2.	Tijorat banklari	20
3.	Yuridik shaxslar: tsement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchilar; asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatishdan iborat bo‘lganlar	20

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra norezident soliq to‘lovchining daromadini chet elga o‘tkazilayotganda 10 foiz miqdorida foydaga soliq undiriladi.

Doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘limgan O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan norezidentning daromadi hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘limgan va to‘lov manbaida soliq solinadigan daromadlariga quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

1) dividendlar va foizlarga – 10 foiz;

2) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlariga – 10 foiz;

3) xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashishlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) – 6 foiz;

4) ushbu Kodeksning 155-moddasida belgilangan daromadlar, bundan ushbu qismning 1-3-bandlarida ko‘rsatilgan daromadlar mustasno – 20 foiz.

Yuridik shaxslarga to‘lanadigan dividendar va foizlar to‘lov manbaida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb, aksiyalardan va boshqa xo‘jaliklar sub’ektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Foizlarga esa depozit qo‘yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlardan olgan daromadlar kiradi.

Manbaida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega bo‘ladi.

Soliq kodeksining 158-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

- ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘linmalari.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 159¹-modda.

Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi:

- 1) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta‘mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan olingan foydasi;
- 2) shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi;
- 3) tarix va madaniyat yodgorliklarini ta‘mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;
- 4) investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo‘naltiriladigan foydasi;
- 5) Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalanishdan olingan foydasi.

Soliq kodeksining 159-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

- 1) ekologiya, sog‘lomlashtirish va xayriya jamg‘armalari, madaniyat, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan badallar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta’lim muassasalari qurilishiga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;
- 3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;
- 4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing ob‘ekti qiymatining o‘rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga.

Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan e’tiboran, texnologik jihozlar bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan e’tiboran uch yil ichida amalga oshiriladi. Yangi texnologiya jihozlari ular olingan (import qilingan) paytdan e’tiboran uch yil ichida realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi foydadan olinadigan soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda, imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun bekor qilinadi;

5) yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to‘lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va

harakatlardan tashqari), xayriya jamg‘armalarining mulkida bo‘lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg‘armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan ajratmalari summasiga.

5-§. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to‘lash muddatlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblab chiqarish Soliq kodeksning 128-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobi, agar ushbu moddada boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari doimiy muassasa joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasidagi faoliyatining xususiyati haqidagi hisobotni (erkin shaklda), shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining hisob-kitobini chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun yillik moliyaviy hisobotni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etadi. Faoliyat kalendar yil tugashidan avval tugatilgan taqdirda, bu hujjatlar faoliyat tugatilganidan keyin bir oydan kechiktirmasdan taqdim etilishi shart.

Hisobot davri mobaynida soliq to‘lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini joriy to‘lovlarni kiritish orqali to‘laydilar, ushbu moddaning to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar bundan mustasno.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovarning summasini aniqlash uchun soliq to‘lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi haqida ma’lumotnomaga taqdim etadilar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan yil choragi bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining uchdan bir qismi miqdorida to‘lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to‘lovchilar joriy to‘lovlarni to‘lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi hisobot davri uchun byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasiga nisbatan 10 foizdan ko‘proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to‘lovlar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan

olinadigan foyda solig‘ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to‘lovlarni to‘lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to‘laydi.

Yuridik shaxslardan to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘i belgilangan stavkalarni chegirmalarni amalga oshirmsandan to‘lanadigan daromad summasiga nisbatan qo‘llash orqali hisoblab chiqariladi.

Agar Soliq kodeksning 155¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yuridik shaxslardan to‘lov manbaida olinadigan foyda solig‘ini yuridik shaxslar quyidagilarni to‘lash paytida ushlab qolishi shart:

- dividendlar va foizlarni;
- O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga daromadlarni.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi to‘lov manbaida ushlab qolinmagan yoki O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnoma qoidalarining g‘ayriqonuniy tarzda qo‘llanilishi mazkur soliq ushlab qolinmasligiga yoxud to‘liq ushlab qolinmasligiga sabab bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining ushlab qolinmagan summasini va u bilan bog‘liq penya summasini qonun hujjatlariga muvofiq byudjetga kiritishi shart.

Yuqorida ikkinchi va uchinchi qismlarida ko‘rsatilgan shaxslar:

1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini O‘zbekiston Respublikasi norezidentlariga dividendlar, foizlar va to‘lovlarni to‘lash sanasidan kechiktirmay byudjetga o‘tkazishi. Banklar O‘zbekiston Respublikasining norezidentlariga amalga oshirilgan to‘lovlari (dividendlar va foizlar to‘lovidan tashqari) bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lov amalga oshirilgan oydan keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay byudjetga o‘tkazadi;

2) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisob-kitobini davlat soliq xizmati organlariga to‘lov amalga oshirilgan hisobot davri tugagandan keyin yigirma besh kundan kechiktirmay taqdim etishi;

3) davlat soliq xizmati organlariga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi, bu shaxslarning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, ularning nomi, daromadining umumiyligi summasi va soliq davri uchun ushlab qolningan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining umumiyligi summasi ko‘rsatilgan ma’lumotnomani soliq davri tugaganidan keyin o‘ttiz kun ichida taqdim etishi;

4) daromad oluvchi shaxslarga ularning talabiga binoan, daromad summasi va soliq davri uchun ushlab qolningan soliqning umumiyligi summasi haqida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda ma’lumotnomani taqdim etishi shart.

Yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromad qilingan xarajatlar hamda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i chegirib tashlanguniga qadar to‘liq miqdorda soliq to‘lovchining jami daromadiga qo‘shiladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida foyda olish munosabati bilan qilingan hamda hujjatlar

bilan tasdiqlangan xarajatlar ushbu Kodeksda belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lash paytida hisobga olinadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organining to‘lov xabarnomasi, ma’lumotnomasi yoki O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat asos bo‘ladi.

6-§. Rivojlangan xorijiy davlatlarda yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortishning o‘ziga xosligi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ham yuridik shaxslar o‘z faoliyatlari davomida ega bo‘lgan daromadlaridan foyda solig‘i to‘lashadilar. Ushbu davlatlar soliq tizimida ham korxonalar olinadigan foyda solig‘i alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur soliqning ko‘pgina umumiyligini hususiyatlarga egaligi bilan ayni paytda bir-biridan farq qilishini ham ta’kidlash lozim. Ushbu fikrni davom ettirgan holda quyida korxonalar daromadini soliqqa tortishning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini tahlilini keltiramiz (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Xorijiy davlatlarda korxonalardan olinadigan foyda solig‘ining stavkalari miqdorlari¹

t/r	Davlatlar	Foyda solig‘i miqdori, %
1.	Yaponiya	37
2.	Italiya	36
3.	Ispaniya	35
4.	Niderlandiya	34,5
5.	Avstriya	34
6.	Fransiya	33,3
7.	Buyuk britaniya	30
8.	Qozog‘iston Respublikasi	30
9.	Germaniya Federativ Respublikasi	25
10.	Rossiya Federatsiyasi	24
11.	O‘zbekiston Respublikasi	14

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, foyda solig‘i stavkasi dunyoda iqtisodiy salohiyati bo‘yicha faqat AQShdan keyingi o‘rinda turgan Yaponiya mamlakatida 37 foizni yoki korxonalar moliyaviy natijasining 1/3 qismidan ko‘pini tashkil etmoqda. Bu O‘zbekiston Respublikasida o‘rnatalgan soliq stavkasiga qaraganda esa 3 barobardan ham ko‘pni tashkil etmoqda. Umuman olganda nomlari keltirilgan davlatlar ichida O‘zbekistondan bir pog‘ona oldin Rossiya Federatsiyasi bo‘lib, undagi stavka ham bizdagiga qaraganda ikki barobar ko‘p bo‘lmoqda.

¹ IBFD. Publications. European Tax Handbook-2002. r. 59.

AQSh soliq tizmida foyda solig‘ini tahlil etar ekanmiz, federal byudjeti daromadlarining umumiy hajmida salmog‘iga ko‘ra uchinchi o‘rinni korporatsiyalarning daromadalaridan olinadigan soliq egallaydi¹.

6-jadval

AQShda korporatsiyalar foydasidan olinadigan soliqning soliq solish bazasi va stavkalari miqdori²

Soliqqa tortiladigan daromad, dollar	Soliq stavkasi, foizda
50 000gacha	15
50 000 - 75 000	25
75 000 – 100 000	34
100 000 – 335 000	39
335 000 – 10 000 000	34
10 000 000 – 15 000 000	35
15 000 000 – 18 333 333	38
18 333 333 dan yuqori	35

Keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq kichik biznes korxonalarini moliyaviy rag‘batlantirish vazifasini o‘taydi. Chunki, daromad hajmining o‘sib borishi bilan soliq stavkalari ham oshib boradi.

AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliqni qo‘llashga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri shundaki, bu erda dividendlar soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanmaydi. Ammo, dividendlarga nisbatan sezilarli darajada soliq imtiyozlari qo‘llaniladi. Masalan, korporatsiyalarning daromadalaridan olinadigan soliq imtiyozlari ularning aktsionerlik kapitalidagi salmog‘idan kelib chiqqanholda, belgilangan. Xususan korporatsyaning boshqa korporatsiya aktsionerlik kapitalidagi salmog‘i 80 foiz va undan ortiq bo‘lsa, u holda korporatsiya oladigan dividend 100 foiz soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi. Agar bu ko‘rsatkich 20 foiz va undan ortiq bo‘lsa dividendlarning 80 foizi, qolgan barcha boshqa holatlarda dividendlarning 70 foizi soliqqa tortish bazasidan chegirib tashlanadi³.

AQShda korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq bazasini hisoblashda amortizatsiya ajratmalari, kredit bo‘yicha foiz to‘lovlari, fuqarolarga to‘langan daromad soliqlari, mol-mulk solig‘i, xayr-ehson maqsadlariga ajratilgan mablag‘lar, sug‘urta to‘lovlari bilan ta’minlanmagan yo‘qotish summalarini va umidsiz qarzlar chegirib tashlanadi.

Shunisi xarakterlikni, AQShda korporatsiyalarning yuqori foydasidan ham soliq olinadi. Mazkur soliq bo‘yicha soliq bazasi amaldagi qonunchilikka ko‘ra soliqqa tortishning imtiyozli shartlari belgilangan daromadlar majmuuni o‘z ichiga oladi. Bunda soliqqa tortilmaydigan daromad summasi 40 000 AQSh dollarin tashkil qiladi, daromad summasi 40 000 AQSh dollarga etishi bilan amaldagi stavka 20 foizga tushadi. O‘zbekiston Respublikasida ham soliqqa tortishning imtiyozli sharoitlariga

¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. Стр. 120.

² Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. Стр. 121.

³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. Стр. 123.

ega bo‘lgan korxonalar mavjud, masalan, neft va gaz sanoatiga qarashli bir qator korxonalarni bunga misol qilish mumkin. Shuning uchun mazkur korxonalarga nisbatan yuqori foydadan olinadigan soliqlarni qo‘llash masalasini ilmiy asosda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Germaniyada korporatsiyalar foydasiga soliq solishda soliqqa tortilmaydigan minimumlar bor. Soliq stavkasi 25 foizni tashkil etadi. Korporatsiyalar foydasini soliqqa tortishda foyda ikkiga bo‘linadi; taqsimlanadigan va taqsimlanmaydigan¹.

Fransiyada esa korxonalar foydasidan olinadigan soliq - bu korxonani barcha operatsiyalar yig‘indisi bo‘yicha olingan sof foydasidan undiriladi. Hozirgi kunda soliqning asosiy stavkasi 33,3 foiz bo‘lib, ushbu soliq stavkasiga pasaytiruvchi koefitsientlar qo‘llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 42 foizdir.

Yaponiyada korporatsiyalar foydasiga soliqning stavkasi 37 foizni tashkil etadi. Ushbu soliqqa nisbatan ham pasaytiriluvchi koefitsientlar qo‘llaniladi. Eng yuqori soliq stavkasi 48,8 foizni tashkil etadi².

Kanadada korxonalar foyda solig‘i stavkalari federatsiya stavkalari va provinsiyalar stavkalariga bo‘linadi. Federatsiya stavkalari 28 foiz (sanoatni qayta ishslash bilan shug‘ullanuvchilar uchun 23 foiz), provinsiyalarda esa amal qiluvchi foyda solig‘i stavkalari har bir hudud uchun alohida belgilangan.

Foya solig‘i bo‘yicha beriladigan imtiyozlar asosan soliq stavkalarini pasaytirish orqali namoyon bo‘ladi. 500 ming Kanada dollaridan ko‘p investitsiyalarni jalb etgan kompaniyalar uchun 2 barobar pasaytirilgan soliq stavkalari amal qiladi.

Korporatsiya solig‘i, ya’ni kompaniyalardan olinadigan foyda solig‘i Buyuk Britaniyada 1965 yilda joriy qilingan. 1965 yilgacha ular jismoniy shaxslar bilan teng soliqqa tortilgan va bunga qo‘srimcha 15 foizli foyda solig‘ini to‘laganlar³.

Buyuk Britaniyada 1965 yildan 1973 yilgacha amal qilgan korporatsiya solig‘ining klassik tizimi o‘rniga imputatsion tizim deb ataluvchi (imputation system) korporatsiya solig‘ini undirish tizimi vujudga keldi.

Korporatsiya solig‘i kompaniyalar foydasidan barcha ruxsat etilgan chegirmalarni ayirib tashlangandan so‘ng undiriladi. Soliq stavkasi davlat byudjeti bilan birgalikda har yili tasdiqlanadi va kelgusi moliya yili daromadlariga qo‘llaniladi. Hozirgi vaqtida 30 foiz va 24 foiz (kichik biznes uchun) stavkalari amal qilmoqda. Korporatsiya solig‘iga tortish 12 oydan oshmaydigan hisobot davridan kelib chiqib amalgalashiriladi. Agar hisobot davri 2 moliya yiliga to‘g‘ri kelsa, kompaniya foydasi 2 qismga bo‘linadi va har biriga mos moliya yilidagi soliq stavkasi qo‘llaniladi. Odatda soliq hisobot davri tugagandan keyin 9 oy o‘tgandan so‘ng to‘lanadi⁴.

Imputatsion tizimga muvofiq, kompaniya olgan barcha foyda summasidan korporatsiya solig‘ini to‘laydi. Agar bu foyda aktsionerlar o‘rtasida taqsimlansa, u holda kompaniya tomonidan to‘langan soliqning unga mos qismi aktsionerlardan daromad solig‘ini undirishda hisobga olinadi.

Imputatsion tizim 5 asosiy xususiyat bilan harakterlanadi:

➤ kompaniya (korporatsiya) solig‘ini o‘zining hamma foydasi (taqsimlangan va

¹ James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 121.

² Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // . –М.: “Кнорус”. 2004. Стр. 102.

³ Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. p. 258.

⁴ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // . –М.: “Кнорус”. 2004. Стр. 104.

taqsimlanmagan)dan so‘ng yagona stavkada to‘laydi:

➤ dividendlar bo‘yicha daromad solig‘i manbada undirilmaydi.

➤ agar kompaniya dividend to‘lassa, u holda u korporatsiya solig‘i hisobiga oldindan to‘lovni amalga oshirishi, ya’ni aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan foyda summasiga hisoblangan korporatsiya solig‘i bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi kerak.

➤ Buyuk Britaniyada dividend oluvchi rezidentlarga foyda solig‘ini to‘lashda bo‘nak to‘lov summasiga chegirma qilishga ruxsat etiladi. Chegirma stavkasi shaxsiy daromad solig‘ining asosiy stavkasiga bog‘liq.

➤ hisobot davri tugaganda kompaniya tomonidan korporatsiya solig‘i bo‘yicha to‘langan bo‘nak to‘lovlar korporatsiya solig‘i hisobiga, majburiyatlardan chegirib tashlanadi.

Norezident korporatsiyalar, agar ular o‘z filiallari yoki bo‘limlari orqali Buyuk Britaniyada savdo-sotiqni amalga oshirsa, korporatsiya solig‘iga tortiladilar. Norezident kompaniyalar (Buyuk Britaniyada o‘z bo‘limlari orqali savdo-sotiq bilan shug‘ullanadigan) quyidagilar bo‘yicha korporatsiya solig‘iga tortiladi:

➤ o‘z bo‘limlari orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita amalga oshirilgan savdo-sotiqdan olingan daromadlar bo‘yicha;

➤ bu bo‘limlar foydalanadigan mulkka egalik huquqidan yoki mulkdan olinadigan daromadlar bo‘yicha;

➤ bo‘limlar foydalanadigan aktivlardan olingan (kapital) sarmoya o‘sishidan.

Norezident kompaniya Buyuk Britaniyada olingan, kapital o‘sishdan olinadigan korporativ soliqqa tortilmaydigan har qanday daromaddan bazaviy stavkada foyda solig‘iga tortiladi. Norezident kompaniya taqsimlangan foydadan korporatsiya solig‘ining bo‘nak to‘lovlarini to‘lamaydi.

Kompaniyalarning soliqqa tortiladigan foydasi kompaniyaning yalpi daromadidan hisobot soliq yilda qilingan, qonunchilik tomonidan ruxsat etilgan barcha harajatlarni chegirish yo‘li bilan aniqlanadi. Chegirib tashlanishi uchun bu xarajatlar “joriy-xarajatlar” bandiga kirishi va tadbirkorlik faoliyatida to‘liq foydalanishi shart.

Quyidagi harajatlar yalpi daromaddan chegirib tashlanadi:

1. Faoliyat bilan bog‘liq joriy xarajatlar;

2. Ishlab chiqarish ehtiyojlardan kelib chiqib, ishchi va xizmatchilarni bo‘shatishda to‘lanadigan kompensatsion to‘lovlar, kadrlarni texnik va malakaviy qayta tayyorlash harajatlari, mukofotlari va sovg‘alar ko‘rinishidagi to‘lovlar;

3. Kompaniyaning moliyaviy masalalari bo‘yicha yuridik maslahatlarga ketadigan harajatlar, buxgalteriya hisobi bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lovlar, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq transport harajatlari;

4. Litsenziya to‘lovlar va shunga o‘xshash to‘lovlar, shuningdek kelgusida foyda olish bilan bog‘liq to‘lovlar, masalan: bir necha yildan so‘ng hosil beradigan qishloq xo‘jalik ekinlari uchun qilinadigan harajatlar;

5. Kompaniya hamkorlariga va xorijiy sheriklariga qilinadigan ko‘ngil olish harakteridagi vakillik harajatlari (agar ular tadbirkorlik maqsadlarida qilinmasa) ma’lum chegarada; reklama harakteridagi sovg‘alar (10 f.s. qiymatida oziq-ovqat, ichimlik va tamaki mahsulotlaridan tashqari); kompaniya mahsuloti namunalari

ko‘rinishidagi sovg‘a harajatlari (har bir sovga oluvchi uchun sovg‘a harajatlari 1 yilda 10 f.s. dan oshmasligi zarur) va boshqa xarajatlar.

Buyuk Britaniya kompaniyalari kapitalning o‘sishidan soliqni ham to‘laydilar. Norezident kompaniyalar bu soliqni to‘lamaydilar¹.

Shveytsariyada korxonalar foydasiga solinadigan federal soliq progressiv soliq bo‘lib, u uch darajali shkala bo‘yicha undiriladi. Soliqqa tortiladigan foydaning 4,0 foizdan ko‘p daromad keltiradigan qismidan 3,63 foiz miqdorida qo‘sishimcha soliq undiriladi. 4,84 foiz miqdoridagi ikkinchi qo‘sishimcha soliq foydaning 8,0 foizdan ko‘p daromad keltiradigan qismidan undiriladi. Eng yuqori soliq stavkasi jamlama foydaning 9,8 foizidan oshishi mumkin emas².

Soliq bazasini aniqlash uchun umumiylar daromaddan foyda olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha bevosita xarajatlar chegiriladi. Uskunalarni ishlataladigan holatda saqlashga, ma’muriy personalning ish haqiga qilingan sarf-xarajatlar, hom ashyo qiymati, zaxira fondlarini yaratishga yo‘naltirilgan transfertlar chegirilishi mumkin. Sarflar sotib olishdagi qiymat yoki bozordagi narx bo‘yicha baholanadi. Soliq solish maqsadlari uchun qiymatning 1/3 qismi chegirilishi mumkin.

Federal soliqni qo‘llanishi uchun zaralar etti yil oldinga o‘tkazib chegiriladi. Kantonlar o‘z qoidalarini belgilaydilar. Masalan, Jeneva kantonida kanton byudjetiga kiritib qo‘yiladigan soliqni hisoblab chiqarish uchun muayyan hollarda zaralarni vaqtini cheklamagan holda oldinga o‘tkazib chegirish ruxsat etilgan.

Demak rivojlangan industrial mamlakatlarda korporatsiyalarning daromadlaridan olinadigan soliqning davlat byudjeti daromadlaridagi salmog‘i pasayish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Chunonchi, ikkinchi jahon urushi arafasida mazkur soliq bo‘yicha olingan tushum summasi AQSh federal byudjetiga jami soliq tushumlarining 50 foizga yaqin qismini tashkil qilar edi. 1955 yilga kelib bu ko‘rsatkich 30 foizni, 1975 yilda 15 foizni, 1998 yilda esa 12 foizni tashkil qildi³. Mazkur soliqning davlat byudjeti daromadlari hajmidagi ahamiyatini pasayib borishi, asosan, ushbu soliq turiga nisbatan soliq imtiyozlarini doimiy ravishda qo‘llanilayotganligi va soliq stavkalarini pasaytirib borilayotganligining oqibatidir.



Nazorat savollari:

1. O‘zbekistonda foyda solig‘i qachon joriy qilingan?
2. 2019 yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i davlat byudjeti daromadlarida qancha foizni tashkil etishi rejalashtirilgan?
3. Yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lovchilari kimlar?
4. Rezident va norezident yuridik shaxslar va ular qandan tartibda soliqqa tortiladi?
5. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i soliq ob’ekti qanday aniqlanadi?

¹ Перв А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2003. Стр. 108.

² Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. //.-М.: “Кнорус”. 2004. Стр. 113.

³ James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 е. р. 128.

6. Yuridik shaxslarning qaysi daromadlari soliq ob'ekti sifatida qaralmaydi?
7. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
8. Yuridik shaxslarning qaysi daromadlari jami daromadlar tarkibiga kiritiladi?
9. Korxonaning moliyaviy faoliyat natijalari qanday aniqlanadi?
10. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqlashtirilgan?
11. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
12. Yuridik shaxslar devidentlardan qanday tartibda soliqqa tortiladi?
13. Qanday yuridik shaxslar foyda solig'idan to'liq ozod etiladi?
14. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig'ini to'lashdan ozod etiladi?
15. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inining hisob-kitobi qachon taqdim etiladi?
16. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar qachon amalga oshiriladi?
17. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i qachon byudjetga to'lanadi?
18. Norezident yuridik shaxslar qanday tartib va stavkada foyda solig'ini to'laydilar?



3. SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI

Tayanch so'z va iboralar: savdo korxonalari, mikrofirma, umumiy ovqatlanish korxonalari, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor, soliq tizimi, soliq to'lovchilar, yalpi tushum, soliq ob'ekti, soliq sub'ekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to'lash muddatlari.

1-§. Yagona soliq to'lovi.

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotiga tadbiq etilishi, uning iqtisodiy mohiyati.

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik b

i O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi 159-sون qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona r

soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

2. Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilari va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezoni.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarini jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes sub'ektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

U bixillashtirilgan bo'lib, quyidagi majburiy to'lovlarini to'lash o'rniga joriy qilingan:

- yagona soliq;
- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi;
- Respublika yo'l jamg'armasi;
- Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar uning summasini soliq solinadigan baza va tasdiqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladilar. Bunda soliq organlariga davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha hisob-kitoblar alohida taqdim etilmaydi, shuningdek pensiya, yo'l va maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armalariga majburiy ajratmalar summalarini alohida to'lanmaydi.

Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes sub'ektlari - mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati 2007 yil 1 yanvardan boshlab kengaydi. Jumladan, ular tarkibiga soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini (Ulgurji savdo korxonalarini uyushmasi tizimiga kiruvchi respublika ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralarini va ularning xududiy bazalari bundan mustasno. Ular uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 8 iyundagi “Ixtisoslashtirilgan ulgurji baza – kontoralarini soliqqa tortish tartibini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-374-son qarori bilan nazarda tutilgan soliq solish tartibi saqlab qolinadi); mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga tegishli bo'lgan tayyorlov va ta'minot – sotish tashkilotlari, brokerlik firmalari, komissiya shartnomasi (topshirig'i) bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar; soliq solishning boshqa tizimini tanlash huquqisiz lotereyalar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'ynlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik shaxslar kiritildi.

2007-yil 1-yanvardan yagona soliq to'lovi to'lovchilari hisoblangan alkogolli mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lash huquqisiz, soliqlar va majburiy to'lovlarini umumbelgilangan tartibda to'lashga o'tkazildi. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirma va kichik korxonalarga yagona soliq to'lovi tadbiq etilmaydi. Bundan tashqari Soliq kodeksining 350-moddasiga ko'ra yagona yer solig'ini to'lovchilarga, qat'iy belgilangan soliqni to'lash nazarda tutilgan mikrofirma va kichik korxonalarga hamda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar

ishtirokchisi bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalarga ham yagona soliq to‘lovi tatbiq etilmaydi.

Soliqlar va majburiy to‘lovlarni umumbelgilangan tartibda to‘lovchilar hisoblangan xususiy amaliyot bilan shug‘ullanadigan notariuslar esa soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqisiz yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagи “1998-yil 9-apreldagi “Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rtacha biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga o‘zgartirish va qo‘sishchalar to‘g‘risida”gi PF-3305 sonli farmoniga ko‘ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes sub’ektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar;
- xodimlarining o‘rtacha yillik soni:
 - ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishidan;
 - xizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga bevosita aloqasi bo‘lmagan tarmoqlarda 10 kishidan;
 - ulugurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;
- quyidagi tarmoqlarning o‘rtacha yillik xodimlari soni:
 - yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishslash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati 100 kishidan;
 - mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishslash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari 50 kishidan;
 - fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalar 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Kichik biznes sub’ektlariga amaldagi soliq qonunchiligiga ko‘ra tadbiq etiladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalar faqat yuqoridagi sanab o‘tilgan sub’ektlarga taalluqli bo‘ladi.

U yoki bu korxonaning yuqorida aytilgan sub’ektlar toifalarining birortasiga kiritilish mezoni bo‘lib xodimlarning yillik o‘rtacha soni, shu jumladan unitar (sho‘ba) korxonalarda, filiallarda va vakolatxonalarda ishlaydiganlar soni hisoblanadi.

3. Soliq ob’ekti, yalpi tushum tarkibi va soliq bazasi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi soliq to‘lovchilarining ayrim toifalari uchun qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek mazkur soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi.

Soliqlar Soliq kodeksda nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning o‘rniga to‘lanadi, Soliq kodeksning 349-moddasida sanab o‘tilganlar bundan mustasno.

Soliq davri mobaynida, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan hollarda, soliq solish tartibi o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchi bu haqda soliq bo‘yicha hisobga olish

joyidagi davlat soliq xizmati organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma ravishda xabardor etadi. Bunda o‘tgan davr uchun soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini o‘sha davrda amal qilgan soliq solish tartibidan kelib chiqqan holda to‘lash bo‘yicha majburiyatlar soliq to‘lovchilarda saqlanib qoladi.

Qurilishi tugallanmagan ob’ektlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdorlari bo‘lgan, soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llaydigan yuridik shaxslar investitsiya loyihasi amalga oshirilmaganligi to‘g‘risida xulosani berishga haqli bo‘lgan vakolatli organning xulosasi chiqarilganidan keyingi oydan e’tiboran umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tadi.

O‘ziga nisbatan soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan soliq to‘lovchilar uchun, agar Soliq kodeksning 373-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘lov manbaida soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlarini ushlab qolish majburiyatları hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga quyidagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lash majburiyatları saqlanib qoladi:

- Soliq kodeksning **165-moddasida** nazarda tutilgan tartibda to‘lov manbaida undiriladigan foya solig‘i;
- Soliq kodeksning **207-moddasida** nazarda tutilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko‘rsatiladigan) ishlari (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- qurilishi moliyalashtirishning markazlashtirilgan manbalarini jalg etgan holda amalga oshirilayotgan ob’ektlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- agar Soliq kodeksning **350-moddasida** boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, aktsiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aktsiz solig‘i;
- agar Soliq kodeksning 350-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlari;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (agar ushbu Kodeksning 57-bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bundan yagona yer solig‘ini to‘lovchilar mustasno);
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (agar ushbu Kodeksning 57-bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bundan yagona yer solig‘ini to‘lovchilar mustasno);
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (agar ushbu Kodeksning 57-bobida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, bundan yagona yer solig‘ini to‘lovchilar mustasno);
- bojxona to‘lovlari;
- yagona ijtimoiy to‘lov;
- davlat bojlari;
- tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko‘rsatish huquqi uchun yig‘im;
- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im.

Yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar quyidagilardir:

- 1) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan yuridik

shaxslar;

2) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – soliq davrida oddiy shirkat faoliyatidan olingan yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan yakka tartibdagi tadbirkor;

3) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi belgilangan miqdordan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan ushbu moddaning 4-bandida ko‘rsatilganlar mustasno;

4) soliq davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan:

- meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshiruvchi;
- Elektron tijorat sub’ektlarining milliy reestriga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

5) soliq davrida olingan yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshmagan oilaviy korxonalar;

6) notijorat tashkilotlar daromadlarining soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan qismi bo‘yicha, soliq davrida tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari bir milliard so‘mdan oshmasligi sharti bilan.

Vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar yillik aylanmaning (tushumning) belgilangan chegaraviy miqdorini tovar aylanmasidan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqaradi.

Yagona soliq to‘lovi:

- ✓ aktsiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi;
- ✓ aktsiz solig‘iga tortiladigan mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi;
- ✓ Soliq kodeksning 57-bobiga muvofiq yagona yer solig‘i to‘lash nazarda tutilgan faoliyat doirasidagi;
- ✓ mahsulot taqsimotiga oid bitimlarning ishtirokchilari bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliq kodeks 350-moddasi birinchi qismining 1 va 6-bandlarida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar yagona soliq to‘lovini to‘lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini yoki umumbelgilangan soliqlar to‘lashni tanlashga haqli.

Yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tish uchun soliq to‘lovchilar yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tilayotgan joriy hisobot davri birinchi oyining 10-sanasidan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yangi tuzilayotgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran tadbirkorlik faoliyati sub’ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida tanlangan soliq solish tartibini ko‘rsatish orqali yagona soliq to‘lovini to‘lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Soliq to‘lovchilar yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ixtiyoriy ravishda voz kechgan taqdirda, hisobot davri tugaganidan so‘ng o‘n kun ichida davlat soliq xizmati

organlariga taqdim qilinadigan yozma bildirish asosida keyingi hisobot davridan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tadi.

Soliq davrida olingen yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar belgilangan chegaraviy miqdor oshib ketgan oydan keyingi oyning boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tadi.

Turli soliq solish ob‘ektlari va (yoki) yagona soliq to‘lovi stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar shu faoliyat turlari bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda soliq to‘lovchilarining tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha yagona soliq to‘lovini to‘lashlari kerak. Bunda ushbu Kodeks 355-moddasining ikkinchi qismi **2-bandida** ko‘rsatilgan daromadlarga asosiy (soha) faoliyat turi uchun belgilangan yagona soliq to‘lovi stavkalari bo‘yicha soliq solinadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar, agar ushbu moddaning ikkinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, kamida o‘n ikki oydan so‘ng yagona soliq to‘lovini to‘lashga qayta o‘tishga haqlidir.

Soliq kodeks 351-moddasining beshinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar, agar joriy soliq davri yakunlariga olingen yalpi tushumi belgilangan chegaraviy miqdordan oshmasa, keyingi soliq davridan boshlab yagona soliq to‘lovini to‘lashga qayta o‘tishga haqlidir.

Yagona soliq to‘lovini to‘lashdan umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan soliq to‘lovchilar umumbelgilangan soliqlarni to‘lashga o‘tgan birinchi chorak uchun foyda solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlanri to‘lashdan ozod qilinadi.

Agar yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar ushbu Kodeksning 199-moddasiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni amalgalash oshirsa, qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy asosda to‘lashi mumkin. Yuridik shaxslar qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tish uchun hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa o‘z faoliyatini amalgalash oshirishni boshlanguniga qadar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yozma bildirish taqdim etadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashni yagona soliq to‘lovini to‘lovchilar tomonidan rad etish soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida, faqat navbatdagi soliq davrining boshidan e’tiboran amalgalash oshirilishi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash ushbu Kodeksning VII bo‘limida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yalpi tushum soliq solish ob‘ektidir.

Soliq solish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo‘shilgan qiymat solig‘ini, va aktsiz solig‘ini chegirgan holda (ushbu soliqlarni to‘laydigan soliq to‘lovchilar uchun) realizatsiya qilishdan tushgan tushum.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

➤ qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-

qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o‘z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarni realizatsiya qilishdan tushgan tushum. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan ishlarni materiallar bilan ta’minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, o‘z kuchlari bilan bajarilgan ishlarni realizatsiya qilishdan olinadigan tushum bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati sifatida belgilanadi;

- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun – tovar oboroti;
- mol-mulkni moliyaviy ijara (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi;
- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;
- lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o‘yin chiptalarini ularda ko‘rsatilgan narx bo‘yicha tarqatishdan tushgan tushum;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tannarxidan yoki olish bahosidan past baholarda (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda) realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun – agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Bunda baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun realizatsiya qilishdan olinadigan tushum belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. O‘zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo‘yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo‘yicha eksport qilish masalalarini ko‘rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo‘yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum tovarlarni realizatsiya qilishning haqiqiy bahosidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ushbu norma ekologiya, sog‘lomlashtirish hamda xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta’lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi.

2) Soliq kodeksning **132-moddasida** nazarda tutilgan boshqa daromadlar.

Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum Soliq kodeks 130-moddasining **ettinchi – o‘ninchি** qismlarida nazarda tutilgan tartibda hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Quyidagilarga soliq solish ob’ekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni

amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiyligida hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sheri (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to‘lash (bo‘nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o‘tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjalariiga muvofiq ta’minalash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag‘larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o‘tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

9) notijorat tashkilotlar tomonidan ustav faoliyatining ta’minoti va ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun olingan, belgilangan maqsadga ko‘ra va (yoki) tekin kelib tushgan mablag‘lar.

10) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta toponi (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko‘rsatishga oid boshqa shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to‘lovi bundan mustasno);

12) ob’ekt qiyomatining ijara beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to‘loving bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub’ektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjalari belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag‘lar soliq solish ob’ektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatları sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy

farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobjiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Yagona soliq to'lovi ob'ekti (soliq solinadigan aylanma) bo'lib, yalpi tushum hisoblanadi.

Quyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:

1) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun) sotilishidan tushgan tushum summasi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotilishidan tushgan tushum deganda quyidagilar tushuniladi:

✓ qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv va ilmiy-tadqiqot korxonalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblangan yalpi tushum tushuniladi;

✓ lizing kompaniyalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda lizing bo'yicha foizli daromadlar tushuniladi;

✓ vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi;

✓ tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun – realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

✓ lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum.

2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.

Quyidagilar asosiy faoliyatdan boshqa daromadlarga kiritiladi:

a) undirilgan yoki qarzdor e'tirof etgan jarimalar, penyalar hamda xo'jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun boshqa jazo turlari, shuningdek etkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha daromadlar;

b) hisobot yilda aniqlangan, o'tgan yillardagi daromadlari;

c) mikrofirma va kichik korxonalar huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar singari bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bilan bog'lanmagan operatsiyalardan boshqa daromadlar;

d) mikrofirma va kichik korxonaning asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini sotishdan daromadlar;

e) kreditorlik va debetorlik qarzini qonun bilan belgilangan tartibda hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

f) tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash.

Tovar-moddiy boyliklarni qo'shimcha baholash summasi mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishiga qarab soliq solinadigan yalpi tushumga kiritiladi:

a) tekin moliyaviy yordam, shu jumladan tekinga olingan mol-mulk;

b) boshqa operatsion daromadlar.

3) moliyaviy faoliyatdan daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

- a) olingen roylati;
 - b) O'zbekiston Respublikasi hududi va undan tashqarida boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ulushli ishtirok etishdan olingen daromadlar, aksiyalar bo'yicha dividendlar hamda mikrofirma va kichik korxonaga tegishli bo'lgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar;
 - c) mol-mulkni uzoq muddatli ijara (lizing)ga berishdan daromad (marja);
 - d) chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursdagi farqdan daromadlar.
 - e) qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va hokazolarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashlarni o'tkazishdan daromadlar;
 - f) moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.
- 4) favqulodda daromadlar.

Tovarlar (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish) bepul berilganda soliq solish ob'ektiga ularning qiymati ham kiritiladi, bu qiymat ularni ishlab chiqarishga ketgan amaldagi xarajatlardan, mol-mulk bepul berilganda esa balansda qayd etilgan qoldiq qiymatdan kelib chiqib belgilanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan yalpi tushum hisoblab chiqilayotganda quyidagilar yalpi tushum sifatida qaralmaydi:

- 1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingen hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;
- 2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisları (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 3) shartnoma muassisları (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjaligiga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;
- 7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;
- 8) olingen grantlar;

9) aksiyador – yuridik shaxsning o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga yo'naltirilganda qo'shimcha

aksiyalarning qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko‘paytirish tariqasida olingan daromadlari;

10) sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tariqasida olingan mablag‘lar;

11) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik va topshiriq shartnomalari yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga oid boshqa shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan komitent yoxud o‘zga ishonchli shaxs uchun amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash hisobiga tushgan mol-mulk (pul mukofoti bundan mustasno);

12) ob’ekt qiymatining ijara beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to‘loving bir qismi tarzida qoplanishi;

13) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;

14) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub’ektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) ularning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag‘lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag‘lar soliq solish ob’ektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

15) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog‘ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o‘rtasidagi saldo soliq solish ob’ekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo‘lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to‘lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko‘ra soliq solinadigan bazani aniqlash uchun yalpi tushum summasidan quyidagilar chegirib tashlanadi:

1) davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar;

2) to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingan va qaysi yuridik shaxsdan olingan bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo‘naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqib ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to‘lov manbaida umumiylashtirishda soliq solinadi;

4) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha o‘tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

5) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumming tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;

6) mahsulot etkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatish (hisobdan chiqarish) natijasida olingan boshqa daromadlar.

Chegirmalardan tashqari soliq solinadigan baza quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari uchun:

- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatsanlik uchun olinadigan soliq summasiga;

- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalarining belgilangan eng yuqori ustamadan oshadigan chakana narxi bilan olish narxi o‘rtasidagi mahalliy byudjetga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan farq summasiga;

2) lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo‘lmagan miqdoriga;

3) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

4) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlar summasiga.

5) yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

6) yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

Soliq kodeksning 355-moddasiga muvofiq quyidagilar chegirib tashlangan holda hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solinadigan bazadir:

1) davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar;

2) to‘lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingan daromadlar;

3) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davrdagi qonun hujjalari muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingan holda soliq solinishi kerak;

4) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;

5) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingan boshqa daromadlar;

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning **birinchi qismida** nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) lotereya o‘yinlarini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun – yutuq (mukofot) fondining summasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo‘lmagan miqdoriga;

2) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

3) vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga.

4) turistik faoliyat sub’ektlari uchun – turistik xizmatlarni onlayn-bronlashtirish va sotish bo‘yicha dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga.

5) kalendar yil mobaynida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan belgilangan eng yuqori chegaraviy miqdordan oshganligi sababli yagona soliq to‘lovini to‘lashga o‘tganda yakka tartibdagi tadbirdorlar uchun – qat’iy belgilangan soliqni to‘lash davrida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga.

Hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan baza quyidagilarga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga kamaytiriladi:

-yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, sifatni boshqarish tizimlarini joriy etishga, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatlashtirishdan o‘tkazishga, laboratoriya testlari va sinovlarini o‘tkazish uchun komplekslar olishga, biroq soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlar amalga oshirilgan soliq davridan boshlab, texnologik asbob-uskuna bo‘yicha esa u foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yil ichida amalga oshiriladi;

-yosh oilalar jumlasidan bo‘lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo‘yicha badallar to‘lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga.

Soliq to‘lovchida yalpi tushumga tuzatish kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- 1) tovarlar to‘liq yoki qisman qaytarilganda;
- 2) bitim shartlari o‘zgarganda;
- 3) baholar o‘zgarganda, sotib oluvchi siylovdan (skidkadan) foydalanganda;
- 4) bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlardan voz kechilganda.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish bir yillik muddat doirasida, kafolat muddati belgilangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha esa kafolat muddati doirasida amalga oshiriladi.

Yalpi tushumga tuzatish kiritish yuqorida birinchi qismida ko‘rsatilgan hollar yuz bergenligini tasdiqlovchi hujjalalar asosida amalga oshiriladi. Bunda tovari (ishni, xizmatni) yetkazib beruvchi yalpi tushumga tuzatish kiritishni Soliq kodeksning 222-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadga yuqorida birinchi qismida nazarda tutilgan hollarda tuzatish kiritish ko‘rsatilgan hollar yuz bergen soliq davrida amalga oshiriladi.

4. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.

Yagona soliq to‘lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib hisoblaydilar. Yagona soliq to‘lovi stavkalari 2019 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-sonli qarori

bilan tasdiqlangan bo‘lib, u quyidagicha tabaqlashtirilgan:

7-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari¹

T/r	To‘lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, 2-12-bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	4*
2	Bojxona rasmiylashtirushi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	25
4	Konsert-tomosha ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo‘li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5	Brokerlik idoralari (6-bandda ko‘rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalar bo‘yicha vositachilik xizmatlari ko‘rsatadigan yuridik shaxslar	25**
6	Qimmatli qog‘ozlar bozori va tovar-xom ashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13**
7	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	30

*) Mol-mulkni moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo‘yicha foizli daromad summasi.

**) Haq summasi (yalpi daromad).

Izoh:

Agar chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchi mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan, ular bo‘yicha yagona soliq to‘loving turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchasiga ega bo‘lsa, har bir savdo shoxobchasi bo‘yicha tovar oborotining alohida-alohida hisobini yuritishi hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalarda yagona soliq to‘lovini to‘lashi lozim.

Yagona soliq to‘lovidan tushumlar quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga - 46%;
- Pensiya jamg‘armasiga - 46%;
- O‘zbekiston yoshlar ittifoqini rivojlantirish jamg‘armasiga - 4%;
- O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashiga - 4%.

Yagona soliq to‘lovini to‘lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiyl sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-sonli qarori.

yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinadi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari – yagona yer solig'i to'lovchilar, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari reestriga kiritilgan kundan boshlab qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish bilan bog'liq bo'lмаган boshqa daromad turlari bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashdan besh yil muddatga ozod etiladi.

5. Soliq hisobini taqdim etish va soliqni byudjetga to'lash muddatlari.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Yagona soliq to'loving hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingen tushum soliq to'lovchining yalpi tushumiga to'liq miqdorda qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovini to'lash chog'ida hisobga olinadi.

To'lov xabarnomasi, chet davlat soliq organining ma'lumotnomasi yoki chet elda soliq to'langanligi faktini tasdiqlovchi boshqa hujjat chet elda to'langan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

6. Yagona soliq to'lovi bo'yicha to'lovni kechiktirish tartibi hamda uning ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarни rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-son Farmoniga muvofiq yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarga yagona soliq to'lovini to'lash muddatini kechiktirish huquqini berish tartibi belgilangan. To'lashni kechiktirish yagona soliq

to‘lovi bo‘yicha soliq majburiyatini to‘lash muddatini muayyan muddatga ko‘chirishni anglatadi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqini olish uchun korxona, yagona soliq to‘lovini to‘lashning bиринчи muddati boshlanishiga ko‘pi bilan 15 kun qolganda, unga to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risida tegishli tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan shaklda ariza topshiradi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasini to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi arizani ariza kelib tushgan kundan boshlab 3 ish kuni mobaynida ko‘rib chiqadi, so‘ngra to‘lash muddatini kechiktirish yoki rad etish to‘g‘risida qaror chiqarib, korxonaning taqdim etilgan arizasiga qabul qilingan qaror natijasining tegishli belgisini qo‘yadi.

Tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasining rad etish to‘g‘risidagi qarori quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

➤ to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi ariza belgilangan shaklda taqdim etilmagan bo‘lsa;

➤ to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish to‘g‘risidagi ariza belgilangan muddatdan keyin topshirilsa;

➤ korxona yagona soliq to‘lovining to‘lovchisi hisoblanmasa.

Yagona soliq to‘lovini to‘lash muddatini kechiktirish huquqini boshqa sabablarga ko‘ra rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Korxona arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi (haqqoniyligi) uchun qonun hujjalariга muvofiq javob beradi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqi korxonaga korxona davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oyning 1-kunidan boshlab bir yilga beriladi.

Misol uchun, agar korxona davlat ro‘yxatidan 15 yoki 25 yanvarda o‘tkazilgan bo‘lsa, mazkur korxonaga soliqni to‘lash muddatini kechiktirish huquqi joriy yilning 1 yanvaridan keyingi yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan davrga beriladi.

Korxonaning xohishiga ko‘ra soliqni to‘lash muddatini kechiktirish huquqi uning yozma arizasiga asosan bir yildan kam bo‘lgan muddatga berilishi mumkin. Korxona to‘lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan davrda boshqa soliq rejimiga o‘tganida, o‘tgan paytidan boshlab korxona to‘lash muddatini kechiktirish huquqidан mahrum bo‘ladi va unda qonunga muvofiq soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarни to‘lash bo‘yicha majburiyatlar vujudga keladi.

To‘lash muddatini kechiktirish yoki muddati kechiktirilgan to‘lov summasini so‘ndirish huquqi berilgan davrda korxona tugatilsa, to‘lash muddati kechiktirilgan to‘lov summasi qonunda nazarda tutilgan tartibda to‘lanadi.

To‘lash muddatini kechiktirish huquqi berilgan korxona tuman (shahar) davlat soliq inspeksiyasiga belgilangan tartibda, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kuniga qadar yagona soliq to‘lovining hisob-kitobini taqdim etadi. Bunda korxona yagona soliq to‘lovi hisob-kitobining o‘ngdagи yuqori burchagiga “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-son Farmoniga muvofiq to‘lash muddati kechiktirilgan” belgisini qo‘yadi.

Agar to‘lash muddatini kechiktirish huquqini berish muddati chorak oxiriga qadar tugasa, ushbu davrlar uchun yagona soliq to‘lovining summasini aniqlash uchun korxona davlat soliq xizmati organlariga yagona soliq to‘lovi hisob-kitobining

belgilangan shakli bo'yicha yagona soliq to'lovi bo'yicha ma'lumotnoma hisob-kitobni taqdim etadi.

Misol uchun, agar to'lash muddatini kechiktirish huquqining muddati 1 iyunda tugasa, korxona tuman (shahar) davlat soliq inspektsiyasiga aprel va may oylari uchun yagona soliq to'lovining ma'lumotnoma-hisob-kitobini taqdim etadi, iyun oyi uchun yagona soliq to'lovining hisob-kitobi esa 25 iyulga qadar taqdim etadi.

2-§. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish.

1. Savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovining joriy etilishi. Ma'lumki, savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini 2007 yil 1 yanvarga qadar byudjetga to'lab kelgan yalpi daromadidan yalpi daromad solig'i, mol-mulk solig'i, tovarlar aylanmasidan Pensiya jamg'armasiga, Respublika Yo'l jamg'armasiga hamda Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlari to'lash o'rniqa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjetining parametrlari to'g'risida"gi PQ-532-sonli qaroriga muvofiq 2007 yil 1 yanvardan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashga o'tkazildi.

2006 yil yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiyl ovqatlanish sohasidagi faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovlarini to'lashlari shart qilib belgilandi.

Shu bilan birga savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini uchun:

- bojxona to'lovlar (bojxona bojlari va yig'imlari, aksiz solig'i va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);
- davlat bojlari;
- ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakuni bo'yicha savdo (umumiyl ovqatlanish) korxonasiga mansub bo'lmasa, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari to'lashga o'tishlari shart, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Yagona soliq to'lovi to'lashga o'tish savdo (umumiyl ovqatlanish) korxonalarini umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari to'lashga o'tgan birinchi hisobot choragi uchun foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarini to'lamaydilar. Ishchilar sonidan qat'iy nazar ulgurji, chakana savdo va umumiyl ovqatlanish korxonalarini (shu jumladan kichik korxonalar va mikrofirmalar) yagona soliq to'lovini to'lovchilari hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchisini aniqlashda asosiy mezon bo'lib, yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik to'g'risidagi guvohnomada ko'rsatilgan korxona faoliyatining kodи hisoblanadi. Bunda korxonaning ixtisoslashishi XXTUT asosiy kodga to'g'ri kelishi kerak. Agar korxonaning faoliyati XXTUT kodiga to'g'ri kelmasa, o'z faoliyati kodini qonun hujjalarda belgilangan tartibda statistika organlarida qayta ro'yxatdan o'tkazishga va ushbu toifadagi korxonalar (faoliyati turlari) uchun belgilangan tegishli soliqlarni to'lashga majbur.

Yagona soliq to'lovida realizatsiya (tovaroborot) umumiyl yillik hajmida tushum

ulushi aksariyat qismini tashkil etgan faoliyat turi, asosiy (profil) faoliyat turi hisoblanadi.

Agar joriy yil yakuni bo'yicha realizatsiya (tovaroborot) ning umumiy yillik hajmida tushum ulushi faoliyati turlari bo'yicha bir xil miqdorni tashkil etsa, asosiy (profil) faoliyat turi o'tgan hisobot yil yakuni bo'yicha aniqlanadi.

Savdo (umumiy ovqatlanish) korxonalariga, soliq solish maqsadida, o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha asosiy (profil) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyati) hisoblanadigan yuridik shaxslar kiradi.

Savdo faoliyati deganda - qayta sotish maqsadida xarid qilingan tovarlarni sotish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Quyidagilar savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

✓ o'zi ishlab chiqargan mahsulot hisoblanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

✓ komissioner (ishonchli vakil) tomonidan komissiya (topshiriq) shartnomalari bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

✓ tayyorlov va ta'minot-sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni is'temol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Yagona soliq to'lovini hisoblashda soliq solish ob'ekti bo'lib, aksariyat hollarda yalpi tushum hisoblanadi, lekin savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yalpi tushum bo'lib tovarlar aylanmasi hisoblanadi. Bundan tashqari, savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi.

Shuningdek, yagona soliq to'lovi hisob-kitob bazasini aniqlashda tushumdan quyidagilar chegirib tashlanadi:

a) qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari uchun qo'shilgan qiymat solig'ini;

b) davlat subsidiyalarini;

v) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

d) to'lov manbaida ushlab qolinishi lozim bo'lgan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar;

e) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ustav kapitalini oshirishga yo'naltirishda aksiyador qo'shimcha aksiyalarining qiymati yoki aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish tarzida olingan daromadlari;

j) hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda. Mazkur daromadlar qaysi davrda paydo bo'lga bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjalariiga muvofiq shu davrdagi soliqlar va majburiy to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblarni o'tkazishni hisobga olgan holda soliqqa tortiladi.

z) olingan grantlar. Grant deganda – ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadni ko'zlagan, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik va innovatsion dasturlarni bajarish uchun korxonaga davlat (hukumat), shuningdek nodavlat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va

jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatiladigan tekin, gumanitar mablag‘li yoki moddiy- texnik yordam tushuniladi. Grant mablag‘lari qat’iy ravishda belgilangan maqsadlarga ishlataladi.

i) ko‘p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilishdan tushumning tarkibiga ilgari kiritilgan bo‘lsa;

k) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chegirmalar.

2. Savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to‘lovi stavkalari va soliqni hisoblash muddatlari. Yagona soliq to‘lovi uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi PQ-4086-sonli qaroriga muvofiq 2019 yildan boshlab savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari uchun ishchilari sonidan qat’iy nazar yalpi tushumdan (tovar aylanmasi hajmidan) quyidagi stavkalarda yagona soliq to‘lovi to‘lash joriy qilindi:

8-jadval

2019 yilda savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovining stavkalari¹

T/r	To‘lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1	Umumiylar ovqatlanish korxonalari joylashgan joyiga qarab: aholisi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda shundan umumta’lim maktablari, maktab-internatlar, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga xizmat ko‘rsatuvchi ixtisoslashgan umumiylar ovqatlanish korxonalari	8 6 4 joylashgan joyiga qarab belgilangan stavkaning 75%i
2	Chakana savdo sohasidagi soliq to‘lovchilar	
2.1	joylashgan joyiga qarab: aholisi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda boshqa aholi punktlarida borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	4 2 1
2.2	joylashgan joyidan qat’i nazar: alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qilishdan tovar oboroti bo‘yicha	4
3	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari (4-bandda)	4

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3454-sonli qarori.

	ko‘rsatilganlardan tashqari)	
4	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari: aholisi soni 100 ming va undan ko‘p kishidan iborat shaharlarda	
	boshqa aholi punktlarida	3
	borish qiyin bo‘lgan va tog‘li tumanlarda	2
		1
5	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqllovchi va qadoqllovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar oborotining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va yagona soliq to‘loving turli stavkalari belgilangan turli aholi punktlarida joylashgan bir necha savdo nuqtalariga ega bo‘lsa, unda ular har bir savdo nuqtasi bo‘yicha tovar oborotining alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha yagona soliq to‘lovinci to‘lashlari lozim.

Agar savdo korxonalari, jumladan ulgurji va chakana dorixonalar, yagona soliq to‘loving turli stavkalari o‘rnatilgan aholi punktlarida mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan bir necha savdo shahobchalariga ega bo‘lsalar, ular har bir savdo shahobchasi bo‘yicha tovarlar aylanmasini alohida-alohida hisobini yuritishlari va shu aholi punktlari uchun o‘rnatilgan soliq stavkalari bo‘yicha yagona soliq to‘lovinci to‘lashlari shart.

Bunda savdo korxonalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatdan daromadlari va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlari savdo korxonasi davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tgan joy uchun o‘rnatilgan stavrasi bo‘yicha yagona soliq to‘lovinci to‘laydilar.

Agar savdo korxonalari balansida qayd etilgan asosiy vositalarni ijara topshirsalar, ular ijara berilgan ushbu aktivlar qiymatidan umumbelgilangan tartibda mol-mulk solig‘ini to‘laydilar hamda ularga mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

Savdo korxonalari yagona soliq to‘lovinci mustaqil ravishda soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqadilar va byudjetga to‘laydilar.

Yagona soliq to‘lovinci hisob-kitobi ro‘yxatdan o‘tgan joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot oydan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatlarda davlat soliq xizmati organlariga belgilangan shaklda taqdim etiladi.

Yagona soliq to‘lovinci to‘lash ortib boruvchi yakun bilan hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

3-§. Yagona yer solig‘i.

1. Yagona yer solig‘ining joriy etilishi va ahamiyati. 1999 yilda qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimida tub o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig‘ini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘i joriy etildi.

Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ini joriy etilishi, o‘z navbatida ularni quyidagi soliqlar va yig‘imlarni to‘lashdan ozod qildi:

- foyda solig‘i;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- yer solig‘i;
- yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilari hisoblangan qishloq xo‘jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona to‘lovleri, davlat boji, litsenziya yig‘imlari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aksizosti mahsulotlarga aksiz solig‘ini to‘lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Yagona yer solig‘ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo‘jalik erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va birxillashtirishdan iboratdir.

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi yerlaridan yanada oqilona foydalanishga da‘vat etadi, chunki har bir hektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat’iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to‘lash lozim bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ining joriy etilishi soliqqa tortish tizimida uning amal qilishi jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqqa tortishning ushbu tizimi xo‘jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to‘lash borasidagi ishlarnini keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xo‘jalik korxonalari o‘nlab turdagilari soliqlar va yig‘imlarni to‘lashardi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida to‘lanishini hisobga oladigan bo‘lsak, unda ayrim xo‘jaliklar davlat soliq organlariga soliqlar bo‘yicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, 1 yilda ana shuncha to‘lov topshiriqnomalarini to‘ldirishi kerak bo‘lar edi. Endilikda esa xo‘jaliklar 1 yilda 1 marta bir turdagilari soliq summasini hisoblab chiqishadi.

2. Yagona yer solig‘i to‘lovchilari, soliq ob’ekti va soliq bazasi. Qishloq xo‘jaligi tovari ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo‘jaliklari va ta’lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari yagona yer solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadi.

Soliq kodeksiga ko‘ra quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar – soliq solish maqsadida qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar tarkibiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va o‘zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishslash yoxud yer uchastkalaridan

foydalangan holda faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo‘lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo‘jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiysi organlari tomonidan o‘zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va o‘zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishslash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishslash uchun olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotini o‘z ichiga oluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishslash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

O‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari yagona yer solig‘ini to‘lovchilar hisoblanishmaydi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘zlari ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash bo‘yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig‘ini to‘lashdilar va ular boshqa soliqqa tortish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Yagona yer solig‘ini to‘lovchi hisoblangan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, litsenziya yig‘imlari, davlat maqsadli jamg‘armalariga ajratmalarini to‘lashning amaldagi tartibi saqlanadi.

Agar yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘zlari ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishslash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo‘yicha shu toifadagi to‘lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan soliqlar va yig‘imlar to‘lanadigan savdo va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to‘lov yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to‘laydilar.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yerlar ijara (shu jumladan ichki xo‘jalik pudratiga) berilganda ijara beruvchida ijara berilgan yerlar bo‘yicha yagona yer solig‘ini to‘lash majburiyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo‘jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalananishga yoki ijara berilgan yer uchastkasi maydoni yagona yer solig‘i solish ob‘ekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining normativ qiymati soliq solinadigan baza hisoblanadi. Agar normativ qiymat belgilanmagan bo‘lsa, unda soliq solinadigan baza bo‘lib qishloq xo‘jaligi tovari ishlab chiqaruvchilarining soliq solinadigan yer uchastkalari maydoni hisoblanadi.

Soliq solinadigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlari, yer uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va yer mulkinining boshqa tavsiflari yer kadastri ma’lumotlari bo‘yicha qabul qilinadi.

3. Soliqdan imtiyozlar. Yagona yer solig‘ini to‘lashdan quydagilar ozod qilinadi:

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub‘ektlari – yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida

xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar – yagona yer solig'i to'lovchilarga Soliq kodeks 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Kalendar yil soliq davridir.

4. Soliqni hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. Yagona yer solig'i summasi yer uchastkalarining normativ qiymati va yagona yer solig'inining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona yer solig'inining hisob-kitobi yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig'inining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona yer solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

hisobot yilining 1 sentyabrigacha – yillik soliq summasining 30 foizi;

hisobot yilining 1 dekabrigacha – soliqning qolgan summasi.

4-§. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

1. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibi. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayriboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. "Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining foya olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir".

Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

Birinchidan, tadbirkorlikning suybekti kim bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risidagi Qonuniga muvofiq balog'at yoshiga yetgan har bir fuqaro o'z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o'zi ixtiyor etgan Qonunga zid bo'limgan faoliyat turi bilan shug'ullanishi mumkin.

Ikkinchidan, yuqoridagi ta'rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo'lib, u mazmunan boy, xilma-xil ko'rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bo'lmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruhini alohida ko'rsatish mumkin:

1) yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shug'ullanadi.

2) tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar.

3) tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar.

Uchinchidan, maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki turini:

a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad qilgan;

b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, sog'liqni saqlash) erishishni maqsad qilgan turlarini ajratish mumkin.

Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Shug'ullanayotgan soha bo'yicha ilm, bilimga egaligi.

2. Tavakkalchilikka asoslangan qarorlar qabul qilish bo'yicha tashabbuskorlik qobiliyati.

3. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.

4. Qonunlarga itoatkorligi.

5. Innovatsiyachilikning faolligi.

6. Maqsad sari intiluvchanlik.

7. Tashkilotchilik.

8. Tejamkor bo'lishi.

9. O'z so'zining ustidan chiqish.

10. Ruhiy poklik va halolligi.

11. O'z jamoasi uchun kurashuvchanlik.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar talab etiladi:

1. Mulk munosabatlarining uyg'unlashuvi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkiy munosabatlar uch jihat bilan belgilanadi:

➤ egalik qilish, ya'ni mulk egasi sifatida mulkka to'la hukmronlik qilish: sotish, ijaraga berish, hadya etish;

➤ foydalanib turish, ya'ni mulk egasining nazorati asosida ma'lum shart va to'lov evaziga mulkdan vaqtincha foydalanish;

➤ operativ tezkor boshqarishni, yangi mulk egasining nazorati ostida ressulslarni taqsimlash va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha mulkni boshqarish huquqini joriy etish.

2. Tadbirkorlarga o'z qobiliyatini to'la namoyon etish uchun quyidagi iqtisodiy erkinliklarning berilishi.

➤ mahsulot assortimenti turlarini va ishlab chiqarish usulini tanlash erkinligi;

➤ hamkorliklarni mustaqil tanlash;

➤ mablag'larni qonunga zid bo'lмаган sohalarga mustaqil sarflash erkinligi va h.k.

3. Bozorning ochiqligi, ya'ni tovarlar, sarmoyalar, ma'lumotlar, ish kuchi,

xomashyo harakati uchun sun’iy g‘oyalarning yo‘qligi.

4. Bozor infratuzilmasining mavjudligi.

Bunga quyidagilar kiradi:

- tijorat banklari;
- tovar, fond, mehnat, valyuta birjalari;
- tijorat tavakkalchiligi va mulk sug‘urtasi;
- ma’lumot va reklama manbalari, ommaviy axborot vositalari, aloqa vositalari;
- ekspert byurolari, sertifikat markazlari, bojxonalar, soliq nazorati tashkilotlari, arbitrajlar va h.k.

5. Tadbirkorlik uchun huququqiy kafolatning mavjudligi, ya’ni tadbirkorlikni himoyalovchi Qonunchilikning mavjudligi.

6. Yangi korxonalarga kadrlar tayyorlash, kredit olish, soliq to‘lash, tabiiy boyliklardan foydalanish bo‘yicha davlat tomonidan berilgan imtiyozlar va h.k.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ko‘rsatilishicha: xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalg qilish va xorijiy sarmoyalarni bevosita olib kirish uchun maqbo‘l sharoit yaratish maqsadida;

2004-yilning 1-yanvaridan kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga quyidagilar kiradi:

1. yakka tartibdagagi tadbirkorlar;

2. xodimlarning o‘rtacha yillik soni band bo‘lgan mikrofirmalar:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida – 20 kishidan oshmagan;

- xizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lмаган tarmoqlarda – 10 kishidan oshmagan;

3. xodimlarning o‘rtacha yillik soni band bo‘lgan kichik korxonalar:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishslash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 100 kishidan oshmagan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishslash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – 50 kishidan oshmagan;

- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohasi, savdo va umumiyl ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lмаган sohalar – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.


Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mikrofirma va kichik korxonalarga amaldagi qonunchilik bilan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun belgilangan soliq imtiyozlari va preferensiyalari tatbiq etiladi.

Hozirda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik sohasiga xorijiy sarmoyalarni olib kirish uchun mikrofirmalar, kichik korxonalar va korxonalar tashkil etilib, maqbo‘l sharoitlar yaratilmoqda.

Yakka tartibdagagi tadbirkor - tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o‘ziga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l

qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

Yakka tartibdagi tadbirkor O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda xodimlarni yollashga haqli.



2019 yildan yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar aylanmasi (yalpi tushumi):

- 100 mln.so‘mgacha bo‘lganda qat’iy belgilangan soliqni;
- 100 mln.so‘mdan 1 mlrd.so‘mgacha bo‘lganda yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini saqlab qolgan holda yagona soliq to‘lovini;

- 1 mlrd.so‘mdan oshganda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatib, yuridik shaxs sifatida qayta ro‘yxatdan o’tgan holda umumbelgilangan soliqlarni to‘lashlari nazarda tutilmoqda.

2019 yildan boshlab, 100 mln.so‘mgacha tovar aylanmasini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun amaldagi qat’iy soliq stavkasi kamaytirilgan holda qat’iy summalarda qat’iy belgilangan soliq joriy etilmoqda.

2019 yildan boshlab yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish ma’muriyatiligi to‘g‘risida.


Qat’iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro‘yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat’iy belgilangan soliq to‘lash bilan bir qatorda quyidagilarni to‘laydilar:

- 1) bojxona to‘lovlar;
- 2) yer qa’ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 3) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq – suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniqliganda;
- 4) aksiz solig‘i – aksiz to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda;

- 5) yagona ijtimoiy to‘lov (2019 yil 1 yanvardan boshlab, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari o‘rniga);
- 6) davlat boji;
- 7) avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan soliq stavkalari:



Agar yakka tartibdagagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo‘lsalar, ushbu Kodeksning 48, 50-boblarida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagagi tadbirkor o‘z faoliyatini muayyan muddatga to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar tadbirkorlik suybektini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to‘xtatish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risidagi arizani va uning davlat ro‘yxatidan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomasini olgan, tadbirkorlik suybektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiradigan organ soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Tadbirkorlik suybektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organning yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtinchalik to‘xtatilganligi to‘g‘risida taqdim qilingan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan olingan axborot yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirmaydigan davr uchun qat’iy belgilangan soliqni hisoblashni to‘xtatib turish uchun asos bo‘ladi.

Soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat’iy nazar, qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to‘lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug‘ullanuvchi soliq to‘lovchilar qat’iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdag'i faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo‘yicha alohida-alohida to‘laydilar.

Qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2018-yildan qat’iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 10-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat’iy belgilangan soliq:

2018-yil yanvari uchun 2018-yilning 10-yanvariga qadar;

2018-yil fevrali uchun 2018-yilning 10-fevraliga qadar belgilab qo‘yilgan.

Qat’iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joyda, agar O‘zbekiston Respublika-sining qonun hujjalari boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug‘ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat’iy belgilangan stavkalar bo‘yicha daromad solig‘ini belgilangan tartibda, ro‘yxatga olish paytida mustaqil to‘laydilar. Qat’iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat’iy-nazar bir oy uchun to‘lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to‘liq oy uchun to‘lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat’iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Amaldagi qonunchilikka asosan xususiy tadbirkorlar chakana savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa turdag'i jami 81 ta faoliyat bilan yuridik shaxs tashkil etmasdan shug‘ullanishlari, bu jarayonda bir nafardan uch nafargacha xodimni yollab ishlatishlari mumkin. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkor:

- chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanganda bir nafar;
- maishiy xizmat ko‘rsatish faoliyatilari bilan shug‘ullanganda uch nafargacha;
- faoliyatning boshqa turlari bidan shug‘ullanganda ikki nafargacha xodimni yollab ishlatishiga ruxsat etilgan.

Lekin, o‘rganishlar natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- birinchidan, qurilish materiallari, tsement, shifer, yog‘och va yog‘och mahsulotlari hajmining kattaligi va vaznining og‘irligi sababli, xususiy tadbirkorlar ushbu mahsulotlarni trasport vositalariga yuklash, tashish, tushirish, qadoqlash, qo‘riqlash va sotishni ruxsat etilgan bir nafar yollanma ishchi bilan bajara olmayotganliklari sababli qonunchilikda belgilanganidan ortiqcha xodimlarni yollab norasmiy ishlatishga majbur bo‘lmoqda.

- ikkinchidan, alyumeniy (plastik) profillardan eshik, deraza va boshqa buyumlarni tayyorlash yirik uskunalardan foydalanaligan hoda, sanoat usulida amalga oshirilishi shuningdek, hamda xom-ashyo materiallari va tayyor mahsulotlarni ortish, tashish, tushirish va o‘rnatish uchun ko‘p ishchi kuchi talab etilishi sababli xodimlarni norasmiy yollab ishlatalishga to‘g‘ri kelmoqda. 2019-yil 1-yanvardan yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar to‘laydigan qat’iy belgilangan soliq stavkasi quyidagicha:

9-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyat bilan shug‘ul-lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq STAVKALARI¹

№	Faoliyat turi	Qat’iy belgilangan soliqning bir oydagি stavkasi (so‘mda)			
		Toshkent shahri	Nukus sh., viloyat bo‘ysunadigan shaharlar	Boshqa shaharlar	Boshqa aholi punktlari
1	2	3	4	5	
1.	Chakana savdo: - oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan; - dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan; - gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari;	1000 000 400 000 500 000	750 000 200 000 250 000	400 000 100 000 200 000	300 000 50 000 50 000
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko‘rsatilganlaridan tashqari	350 000	200 000	100 000	50 000
3.	O‘z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bo‘lka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o‘tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning	300 000	200 000	100 000	50 000

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-dekabrdagi PQ-4086-sonli Qaroridan olingan.

	ayrim turlarini tayyorlash va sotish				
	Bolalar o‘yin avtomatlari	300 000	200 000	100 000	50 000
4.	Boshqa faoliyat turlari	300 000	200 000	100 000	50 000
5.	Avtomobil transportida yuk tashishga doir xizmatlar:				
	3 tonnagacha yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun		200 000		
	3 tonnadan ortiq yuk ko‘tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun		300 000		

Soliq solishdan ozod etish soliq to‘lovchi tomonidan davlat hokimiyatining joylardagi tegishli organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

Izohlar:

1. Jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug‘ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to‘laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijaraga beruvchi to‘g‘risida ma’lumotnomma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan joy bo‘yicha to‘laydi.

3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i solinadi.

Savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarida daromadlarning hamda amalga oshirilgan tovar operatsiyalarining hisobini yuritishlari shart.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari quyidagilardir:

- Chakana savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorning daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish daftari;

- Tovar cheklari daftari.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlarining shakli

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari yakka tartibdagi tadbirkorni soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorning arizasi asosida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Daromadlarni va tovar operatsiyalarini hisobga olish registrlari oxirgi yozuv kiritilgan paytdan e’tiboran besh yil mobaynida yakka tartibdagi tadbirkorda saqlanadi va ular raqamlangan, ip o‘tkazib bog‘langan hamda tegishli davlat soliq xizmati organining muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno,—yilning har bir choragi yakunlari bo‘yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

- tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – har oyning yakunlari bo‘yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

2. Qat’iy belgilangan soliq bo‘yicha berilgan preferensiyalar, qo‘llaniladigan imtiyozlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, ularga qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish, aholining ish bilan bandligini ta’minlash hamda oilalar daromadlilik darajasini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

1. Soliq kodeksining 311 va 375-moddalariga kiritilgan qo‘shimchalarda yangi ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan oilaviy tadbirkorlik sub’ektining oila a’zolari uchun qat’iy belgilangan soliqni va yagona ijtimoiy to‘lovlarni to‘lash ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oydan boshlab(yoki shu o‘tgan oy uchun imtiyozga ega) amalga oshirilishi belgilandi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 375-moddasiga 2015 yildan boshlab kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga asosan, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari kollejni tamomlagandan keyin o‘n ikki oy ichida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan taqdirda, ro‘yxatidan o‘tgan sanadan e’tiboran qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan olti oy muddatga ozod etildi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘risida”gi PF-5270-sonli Farmoniga asosan 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab faoliyat ko‘rsatish turi va uni amalga oshirish joyidan qat’iy nazar I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun bir oyda eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida (har qanday faoliyat turi bo‘yicha), yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar hisobidan ishga yollangan har bir ishchi uchun – bir oyda eng kam ish haqining 15 foizi miqdorida qat’iy belgilangan soliq stavkasi o‘rnatalgan.

4. Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 31 iyuldaggi 219-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy tadbirkorlar tomonidan xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan yakka tartibdagi

tadbirkorlar amalga oshiriladigan faoliyat turiga bog‘liq holda ushbu Nizomning 1- ilovasiga muvofiq bir nafardan uch nafargacha xodimlarni yollagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Yakka tartibdagi tadbirkorga o‘z majburiyatlari bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash bilan bir qatorda har bir xodim uchun:

- yagona ijtimoiy to‘lov (2019 yil 1 yanvardan boshlib, Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari o‘rniga)ni - har oyda eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

- qat’iy belgilangan solig‘i Prezidentning 2018 yil 14 iyuldagagi PQ-3856-sonli qaroriga asosan 2018 yil 1 avgustdan boshlab qat’iy soliq to‘lovidan ozod etildi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagagi PQ-2844-sonli qaroriga asosan 2021 yil 1 yanvarga 18 ta faoliyat turlari bilan shug‘ullanadigan yangi ro‘yxatga olingan yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va oilaviy tadbirkorlik sub’ektlari ushbu qarorning 1-bandida ko‘zda tutilgan qoidalarga binoan mikrokreditlarni rasmiylashtirishda 6 oy muddatga qat’iy belgilangan soliq to‘lovlardan ozod etiladi.

Qarorning mazkur bandida nazarda tutilgan imtiyozlardan foydalanadigan qat’iy belgilangan soliq to‘lovchilar ular davlat ro‘yxatiga olingan kundan e’tiboran o‘n ikki oy ichida tugatilsa yoki uch yoxud undan ko‘p oy muddatga faoliyatini to‘xtatsa, faoliyat ko‘rsatgan davri uchun qat’iy belgilangan soliqlarni to‘laydi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 31 maydagagi “Jizzax viloyatida ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishni tubdan jadallashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishning yangi yondashuvlari va metodlarini sinab ko‘rishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 332-sonli qaroriga asosan Jizzax viloyatining Arnasoy, Baxmal, Forish, Zafarobod, Zarbdor, Yangiobod tumanlarida, shuningdek viloyatning boshqa tumanlari qishloq aholi punktlarida maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 2017 yilning 1 iyulidan 2021 yilning 1 yanvariga qadar belgilab qo‘yilgan qat’iy soliq to‘lashdan ozod etilgan.

7. Yakka tartibdagi tadbirkorlar Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagagi 216-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, hunarmandlar tomonidan ishlab chiqariladigan buyumlar va tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlari Ro‘yxati”ga muvofiq 34 turdagagi hunarmandchilik faoliyati turlarini amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qullab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5242-sonli Farmoni bilan 2017 yil 1 dekabrdan boshlab hunarmandchilik sub’ektlari - “Hunarmand” uyushmasining a’zolari:

- hunarmandchilik faoliyati mahsulotlari (tovar, ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotishda qat’iy belgilangan soliqdan to‘liq ozod etildi;

- yoshga doir pensiya va nafaqa oluvchilar yagona ijtimoiy to‘lov (2019 yil 1 yanvardan boshlib, Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali o‘rniga) to‘lashdan to‘liq ozod etildi;

- qishloq joylarda ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan

hunarmandlar o‘z faoliyatining dastlabki ikki yili mobaynida yagona ijtimoiy to‘lov (2019 yil 1 yanvardan boshlib, Pensiya jamg‘armasiga belgilangan sug‘urta badali o‘rniga)ning 50 foizini to‘lashi belgilab qo‘yildi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi “Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex, Nurota tumanlari va Zarafshon shahrini kompleks rivojlantirish hamda aholisi bandligini ta‘minlashga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3301-sonli qaroriga asosan Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Nurota tumanidagi Dehibaland, Sentob, Temirkovuk, Qizilcha, Gum va Cho‘ya aholi punktlari hamda Zarafshon shahri hududida ro‘yxatga olingan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar qat’iy belgilangan soliq to‘lashdan 2017 yilning 1 oktyabridan 2028 yilning 1 yanvariga qadar ozod etilgan.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 fevraldagi PQ-2803-sonli qaroriga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida davlat ro‘yxatidan o‘tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2017 yilning 1 apreldidan 2027 yilning 1 yanvariga qadar qat’iy soliqni to‘lashdan ozod etilgan.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldaggi PQ-3856-son qaroriga asosan:

- qishloq tumanlarida, bundan aholi soni 5 ming kishidan ko‘p bo‘lgan aholi punktlari mustasno, sartaroshxona xizmatlarini, yakka tartibdagi buyurtmalar bo‘yicha kiyim tikish xizmatlarini, poyabzal ta‘mirlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatni tashkil etgan, shuningdek, jamoat hammomlarini tashkil etgan yakka tartibdagi tadbirkorlar 2023 yil 1 iyulgacha qat’iy soliq to‘lashdan ozod etiladi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar har bir yollangan xodimga to‘lanadigan qat’iy belgilangan soliqni to‘lashdan ozod etiladi;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar 3 tonnadan ortiq yuk ko‘taruvchi avtomobil transportida yuklarni eng kam ish haqining 2 baravari (oldin 3-3,5 baravar) miqdoridagi stavka bo‘yicha tashish xizmatlaridan har oyda olinadigan qat’iy belgilangan soliq to‘lashi belgilandi.

5-§. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda savdo va umumiy ovqatlanish hamda qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortishning ilg‘or tajribalaridan foydalanish masalalari.

Xorijiy davlatlar soliq tizimlari ko‘pgina umumiy xususiyatlarga ega va ayni paytda bir-biridan farq ham qiladi. Ushbu davlatlarning soliq tizimi turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar ta’sirida vujudga kelgan. Mamlakatlarning soliq tizimi, soliqlarni undirish usullari, sohalari, turli darajadagi davlatlarning moliyaviy vakolatlaridan kelib chiqib soliq imtiyozlari bilan ajralib turadi. Xorijiy davlatlarda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadigan soliqlar turli darajadagi davlatlarning soliq-byudjet siyosatidan kelib chiqqan holda bir-biridan keskin farq qiladi. Bizga ma’lumki, AQSh, Angliya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning qayta ishlangan uslubi qo‘llanilmoqda. Biz ushbu davlatlarning soliqlarni undirish uslubiyatiga qisqacha tqxtalamiz.

AQShda savdo tashkilotlari foydasidan soliq to‘laydilar. Korporatsiyalar foydasidan soliq 40 ta shtatda undiriladi va soliq tushumining taxminan 7 foizini ta‘minlaydi. Korporatsiyalar foydasidan soliqning federal byudjet daromadidagi

hissasi so‘nggi yillarda quyidagicha bo‘lgan: 1960 yilda - 24 foiz, 1980 yilda – 13 foiz, 1986 yilda - 8.4 foiz, 1990 yilda – 10 foiz, 1998 yilda -11 foiz, 2004 yilda esa - 14 foiz¹. Shuningdek, AQShda savdo korxonalari sotish soliq‘ini to‘laydilar (mahalliy soliq). Uning soliq tushumidagi hissasi dori-darmonlar bilan hisoblaganda 30 foizni tashkil etadi. Soliq stavkasi shtatlarga qarab o‘zgaradi: to‘rtta eng katta shtatda 3 foiz (chakana narxdan), Vashingtonda esa eng yuqori stavka 6.5 foiz qo‘llaniladi. Ko‘pchilik shtatlarda esa 3.4 foizli² stavkada joriy etilgan.

Buyuk Britaniyada savdo tashkilotlari korporativ soliq to‘laydilar. Korporativ soliqni savdo korxonalari chegirma va imtiyozlarni hisobga olgan holda, o‘z daromadlari va kapitalning oshgan qismidan to‘laydilar. Korporativ soliqning asosiy stavkasi 31 foizni tashkil qiladi. Savdo tashkilotlari, kichik korxonalar (yiliga 300000 funt sterlingdan yuqori bo‘lmagan daromadga ega korxonalar) uchun pasaytirilgan stavka 21 foiz qo‘llaniladi³. Jami daromadi yiliga 300000 funt sterlingdan 1.5 mln.funt sterlinggacha bo‘lgan kompaniyalar uchun ham imtiyozli stavkalar qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan. Savdo korxonalari dastlabki faoliyatlarining birinchi yilida soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda soliq bazasini 40 foizga kamaytirishlari mumkin.

Buyuk Britaniyada 1999 yildan boshlab korporativ soliqni hisoblashning yangi tizimi amal qilmoqda. Soliq to‘lovchilar soliq to‘lovlarini uch oylik muddatda amalga oshiradilar. 1999 yil apreldan korporativ soliqning asosiy stavkasi 30 foizgacha (savdo korxonalari uchun 20 foizgacha) tushirildi. Hamda o‘z foydasini hissadorlar o‘rtasida tao‘simlovchi kompaniyalar uchun byudjetga joriy to‘lovlar bekor qilindi. Ayrim faoliyat turidagi kompaniyalar uchun soliqqa tortishning alohida tarkibi joriy qilindi.

Rossiya Federatsiyasida savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari belgilangan daromaddan yagona soliq to‘laydi. Soliqqa tortish ob‘ekti bo‘lib, soliq to‘lovchining belgilangan daromadi hisoblanadi. Soliq solish bazasi bo‘lib me’yoriy belgilangan daromad, soliqqa tortish davrida hisobga olinadigan va faoliyatning mazkur turini xarakterlaydigan me’yoriy fizik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Daromadlilik bazasi joylashgan joyi va tovar turiga qarab K1,K2,K3 koefitsientlarga ajraladi. K2 – Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan belgilanganadi. Soliq stavkasi 15 foiz qilib belgilangan⁴. Soliqqa tortish davri har chorakda amalga oshirilib, hisobot oyidan keyingi oyning 25 sanasigacha to‘lab boriladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortishning xorijiy davlatlar tajribasi haqiqatdan ham ancha murakkab jarayon. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, soliqqa tortishning chet el tajribasi respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tadbiq etsa ijobiy jihatlari mavjud.

Globallashuv sharoitida jaxon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o‘sishi mamlakatda iqtisodiyotning yuksalishi uchun asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining soliqqa tortish tizimi yanada soddalashtirilishga qarab ketmoqda. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqlar tabaqlashtirilgan bo‘lib, o‘rnatilgan soliqlar soliq ob‘ektidan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib byudjetga to‘lanadi.

¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератов-Пресс”. 2002. Стр. 125.

² Юткина Т. Налоги и налогобложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 49

³ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // –М.: “Кнорус”. 2004. стр 81

⁴ Юткина Т. Налоги и налогобложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 49

Agrar sektorga ma'lum bir imtiyozlar hamda maxsus soliq rejimi qo'llaniladi va ular albatta ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyatlarga fasllar almashinushi, tabiiy ob-havo sharoitlarini misol qilish mumkin. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlanganda, ularning turli mamlakatlar miqqosida soliq turlariga qarab soliqlarni tabaqlashganini ko'rish mumkin

10-jadval

Ayrim rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jalik sub'ektlari to'laydigan asosiy soliq turlari

Soliq turlari	AQSh	Fransiya	Italiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Daromad solig'i	+	+	+	+	+
Korporativ soliq	+	+	+	+	+
Mol-mulk solig'i	-**	+	-	+	-**
Yer solig'i	+	+	-*	-	+
Mahalliy soliqlar (yer solig'idan tashqari)	+	+	+	+	+
QQS	-	+	+	+	+
Sotuvga soliq	+	-	-	-	-
Ijtimoiy to'lovlar	+	+	+	+	+

* - daromad solig'iga kiritilgan.

** - yer solig'iga kiritilgan.

Germaniya, Fransiya, Italiyada qishloq xo'jalik sub'ektlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to'lash bo'yicha imtiyozlar keng tarqalgan. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan yer solig'i boshqa yuridik shaxslarga nisbatan ancha past miqdorda belgilangan.

Gollandiyada bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnatga qobiliyatli aholining 4 foizigina ishlaydi. Bu davlatning xududi va aholisi O'zbekiston bilan solishtirganda bir necha barobarga kam. Tabiiy sharoiti esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi uchun anchagina noqulay. Shunga qaramasdan ushbu mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Eksportning yillik hajmi taxminan 35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

Jahonda samarali faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari AQSh davlatida mukammal shakllangan deb atash mumkin. Buning asosiy sabablari, fermer xo'jaliklariga yordam dasturlarini mablag' bilan ta'minlashda federal xukumat etakchilikni o'zida saqlab turganligi bilan izohlanadi.




Nazorat savollari:

1. Soliq solishning soddallashtirilgan tartibini soliq amaliyotida tatbiq etishning zarurligi nimada?
2. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddallashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan

va qaysi me'yoriy xujjat asosida?

3. Kichik biznes sub'ektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
4. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etildi?
5. Yagona soliq bilan yagona soliq to'lovining farqi nimada?
6. Yagona soliq to'lovini to'lovchilari kimlar?
7. Yagona soliq to'loviga soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
8. Qanday yuridik shaxslar yagona soliq to'loidan imtiyozga ega?
9. Yagona soliq to'lovi byudjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?
10. Yagona soliq to'lovini byudjetga kechiktirib to'lash tartibi qanday?
11. 2007 yil 1 yanvarga qadar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini qanday soliq rejimida ishlagan?
12. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to'lovini to'lovchilar tarkibiga o'tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
13. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'loidan tashqari yana qanday to'lovlari, yig'imlar saqlab qolingga?
14. Savdo faoliyati deganda nimani tushunasiz?
15. Umumiyligi ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
16. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish ob'ekti qanday aniqlanadi?
17. Yagona soliq to'lovini hisoblashda yalpi tushum tarkibi qanday aniqlanadi?
18. Yalpi tushum tarkibidan nimalar chegiriladi?
19. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 2018 yilda qanday belgilangan?
20. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovi qaysi muddatlarda to'lanadi?
21. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i qachon joriy etilgan. Uning ahamiyati qanday?
22. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig'ini to'lashga o'tishlari bilan ular qanday soliqlar va yig'imlarni to'lashdan ozod etildi?
23. Qanday yuridik shaxslar yagona yer solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
24. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat turi bilan shug'ullanganda ham yagona yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
25. Yagona yer solig'ining ob'ekti va bazasi qanday aniqlanadi?
26. Yagona yer solig'ining stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtiriladi?
27. Yagona yer solig'ini to'lashdan kimlar ozod etiladi?
28. Yagona yer solig'i bo'yicha hisob-kitoblar qaysi muddatda soliq idoralariga topshiriladi?
29. Hisoblangan soliq summalarini qaysi muddatda byudjetga o'tkaziladi?
30. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?
31. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezon asosida tabaqalashtiriladi?
32. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
33. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini byudjetga to'lash davri qanday?

34. Tadbirkor faoliyatini vaqtincha to‘xtatganda qanday tartibda xujjatlarni rasmiylashtiradi?



4. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG‘I

Tayanch so‘z va iboralar: *jismoniy shaxs, rezident jismoniy shaxs, norezident jismoniy shaxs, soliq to‘lovchilar, jami yillik daromad, soliq ob’ekti, soliq sub’ekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to‘lash muddatlari.*

1-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq ob’ekti va bazasi.

Ma’lumki, soliq qonunchiligidagi soliqqa tortish maqsadida soliq to‘lovchilar ikkiga bo‘lingan, ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarga. Jismoniy shaxslarga – yuridik shaxs maqomini olmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o‘rinni egallaydigan soliq bu – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idir. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i – davlat byudjeti daromad manbalaridan biri bo‘lib, u umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o‘ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi. Bugungi kunda jismoniy shaxslar to‘layotgan soliqlar va yig‘imlar byudjet daromadlarining qariyib 15-20 foizini tashkil etmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i 1991 yilda byudjet tushumlarining 6,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2009 yilda 13,1 foizni tashkil etgan. 2018 yilgi davlat byudjeti parametrlari bo‘yicha ushbu soliq davlat byudjeti daromadlarining 8,4 foizni, to‘g‘ri soliqlar ichida esa 40,6 foizini tashkil etgan.

Bu ko‘rsatkichlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini byudjet daromadlari tarkibida ahamiyatli ekanligidan darak beradi. Soliq kodeksiga ko‘ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilar hisoblanadi. Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar rezidentlar va norezidentlarga bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o‘n ikki oygacha bo‘lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko‘proq muddatda O‘zbekistonda turgan jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslarga ularning O‘zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lmagan jismoniy shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingen daromadlar bo‘yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi soliq solish ob’ekti hisoblanadi. Soliqqa tortiladigan baza bo‘lib, jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko‘ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromad solig‘i summalar O‘zbekiston Respublikasida soliqni to‘lashda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq hisobga olinadi.

Hisobga olinadigan summalarining miqdori jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan stavkalar bo‘yicha hisoblab chiqarilgan daromad solig‘i summasidan oshmasligi lozim.

2-§. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to‘lovchi olishi lozim bo‘lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag‘lar kiradi. Jumladan:

- 1) mehnatga haq to‘lash shaklida olinadigan daromadlar (172-modda);
- 2) jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari (176-modda);
- 3) jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari (177-modda);
- 4) boshqa daromadlar (178-modda).

Mehnatga haq to‘lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo‘yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlarga rag‘batlantirish xususiyatiga ega bo‘lgan to‘lovlar (yillik ish yakunlari bo‘yicha mukofot, bir yo‘la beriladigan mukofotlar, maoshlarga ustamalar, ta’tilga har yilgi qo‘srimcha haqlar, ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va boshqalar), kompensatsiya to‘lovlar (tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘srimcha to‘lovlar, og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamala va boshqalar) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash (xodimning aybisiz bekor turib qolning vaqt uchun haq to‘lash, mehnatga layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘srimcha haq to‘lash, yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqt uchun haq to‘lash, oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqt uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqlar va boshqa shu kabilar) tarzidagi daromadlar ham kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dvidentlar, mol-mulkni ijara berishdan olingen daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olingen daromadlar, roylati va shu kabi qonunchilikda ko‘zda tutilgan daromadlar kiradi.

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko‘zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to‘lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning

o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; oziq-ovqat, oylik yo‘l chiptalari yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo‘llanmalarini qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o‘rnini qoplash qiymatini to‘lash kabilari kiradi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalar, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko‘riklarda, tanlovlarda sovrinli o‘rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ko‘pgina mamlakatlardagi singari O‘zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o‘rnatalgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko‘rib chiqilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko‘ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- ✓ jismoniy shaxslarning ish xaqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqlashgan progressiv soliq stavkalari;
- ✓ jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi;
- ✓ norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to‘lov manbaida solinadigan soliq stavkalari;
- ✓ imtiyozli soliq stavkalari.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya’ni 5 pog‘onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog‘onali, ya’ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog‘analiga o‘tib, uning stavkasi 12, 25, 30 foizni, 2002 yildan 13, 23, 33 foiz qilib belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5468-sonli Farmoni talablari doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari Soliq kodeksining 181-moddasida o‘z aksini topdi.

11-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining 2010-2018 yillardagi solishtirma stavkalari

Eng kam oylik ish haqining darajasi	2014	2015	2016-2017	2018	2021 yil	
1 barobari	7,5%	0%	0%	0%	12 %	
2 barobari		8,5%	7,5%	7,5%		
3 barobari						
4 barobari						

5 barobari					
6 barobari					
7 barobari					
8 barobari	16%	17%	17%	16,5%	
9 barobari					
10 barobari					
10 barobaridan yuqori	22%	23%	23%	22,5%	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konseptsiyasi to‘g‘risida” PF-5468-sonli Farmoniga muvofiq, 2019 yil 1 yanvardan boshlab, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining stavkasi yagona 12 foiz belgilanishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 maydagi “Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3741-sonli qaroriga muvofiq ko‘chmas mulkni ijaraga berish va tekin foydalanish shartnomalarini rasmiylashtirishning Yangi tartibi belgilandi. Unga asosan, 2019 yil 1 yanvardan boshlab, ko‘chmas mulkni ijaraga berish va tekin foydalanish shartnomalarini majburiy notarial tasdiqlash bo‘yicha talab bekor qilinib, ijara shartnomalarini Davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yish tartibi joriy etildi. Bu borada, Adliya vazirligida 2018 yil 11 oktyabrda 3077-son bilan ro‘yxatga olingan Davlat soliq qo‘mitasining 2018 yil 15 avgustdagি 2018-65-son qaroriga muvofiq ko‘chmas mulk ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida majburiy hisobga qo‘yiladi.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog‘liq bo‘lmagan holda O‘zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to‘lash manbayida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar bo‘yicha soliq solinadi:

- ✓ dividend va foizlar – 10 foiz;
- ✓ xatarni sug‘urtalash yoki qayta sug‘urtalashga to‘langan sug‘urta mukofotlari – 10 foiz;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o‘rtasida harakat qatnovida xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) – 6 foiz;
- ✓ roylati, ijara dan kelgan daromadlar, xizmatlar ko‘rsatishdan kelgan daromadlar, shu jumladan boshqaruv bo‘yicha xizmatlar, maslahatlarga oid va boshqa daromadlar – 20 foiz;

To‘lov manbayida soliq solish, to‘lov O‘zbekiston Respublikasi ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilganidan qat’iy nazar, qo‘llaniladi.

Jismoniy shaxslarga to‘lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka bo‘yicha to‘lov manbaida soliq solinadi.

4-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar. Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalar:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalar – to‘laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalar – eng kam ish haqining o’n ikki baravarigacha miqdorda;

- Soliq kodeksning 178-moddasida ko‘rsatilgan boshqa hollarda, – soliq davri uchun eng kam ish haqining o’n ikki baravarigacha miqdorda.

2) yo‘llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to‘liq yoki qisman qoplash summalar, turistik yo‘llanmalar bundan mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to‘liq yoki qisman qoplash summalar;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarining bolalari bilan dam olishiga maxsus mo‘ljallangan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o’n olti yoshga to‘lmagan (o’n sakkiz yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar) bolalari uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida, uning oila a’zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalar va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minalash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti va sovg‘alar;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rnlarni egallaganligi uchun sportchilar

olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

10) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

➤ qimmatli qog‘ozlarni (bundan fond birjasida realizatsiya qilinadigan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar mustasno), yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

➤ yashash uchun mo‘ljallanmagan joylarni;

➤ ketma-ket keladigan o‘n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, turar joylarni sotishdan olinadigan daromadlar mustasno.

11) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishslashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

12) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

13) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo‘lgan qiymatdagi:

– xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

– ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam.

14) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot va san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislari) to‘lanadigan pul mukofotlari mustasno;

15) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yutuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar, lotereya bo‘yicha yutuqlar;

16) jamg‘arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo‘yicha foizlar hamda yutuqlar;

17) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni

muvofiglashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

18) dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtaida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiylasoslarda soliq solinishi kerak;

19) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

20) olingan alimentlar;

21) fuqarolarning sug'urta tovoni sifatida oladigan summalar;

22) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

23) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofig har oylik kompensatsiya pul to'lovlar;

24) davlat pensiyalari;

25) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar;

26) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalar;

27) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

28) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalar:

- yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

- qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofig zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar, shuningdek ularning mazkur kreditlar bo'yicha bирgalikdagi qarz oluvchi bo'lgan oila a'zolari tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

Ushbu bandda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

29) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliv o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'limgan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalar;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalar;

30) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa;

31) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariiga jalg qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari;

32) aksiyadorlik jamiyatlari chet ellik xodimlarining boshqaruv xodimi sifatida o'z faoliyatidan olgan daromadlari.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdar shaxslari, ularning o'zları bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zları bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'limgan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdar shaxslari – agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulorra vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar – xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalarini bo'yicha;

7) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining, umumiy yurisdiktsiya sudlarining va xo‘jalik sudlarining sudyalari, shuningdek prokuratura organlarining mansab darajalariga ega bo‘lgan xodimlari – ularning xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan olgan daromadlari bo‘yicha;

8) konsert-tomosha faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo‘yicha;

9) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan shaxslar – yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko‘ra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) ozod qilinadi:

1) “O‘zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishinchcha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz «Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yoki frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy

xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz arning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'lijni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs yuqorida nazarda tutilgan bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda – yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Yuqorida sanab o'tilgan imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

5-§. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari.

Chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solinadi.

Rezident - chet ellik jismoniy shaxsdan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi singari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Norezident - chet ellik jismoniy shaxslardan to'langan joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq undiriladi.

Soliq solish maqsadida norezident jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident sifatida yoki doimiy muassasa bilan bog'liqlikda bo'lмаган norezident shaxs sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiradigan norezident jismoniy shaxs doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari bo'yicha soliq to'lovchi hisoblanadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va yig'imlarni undirish tegishli chet davlatda O'zbekiston Respublikasining jismoniy shaxslariga nisbatan ham xuddi shunday chora-tadbirlar ko'rilgan hollarda o'zaro kelishuv asosida to'xtatilishi yoki chekhanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida, bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlarning kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

6-§. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.

Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlar va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolning soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Avvalgi ish joyidan ma'lumotnomma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnomma keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolning soliqning umumiyligi haqida korxona, muassasa, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lмаган ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlar va boshqa

to‘lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o‘sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad summasidan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab (agar bunday daromadlar to‘langan bo‘lsa), belgilangan stavkalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo‘limgan ish joyidagi mehnat to‘lovi bo‘yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo‘yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to‘lovchi yuridik shaxslar soliq to‘lovchining arizasiga ko‘ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy bo‘limgan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar daromadidan olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlangan soliq summasi to‘g‘risidagi taqdim etilgan deklaratsiya ma’lumotlari bo‘yicha soliq xizmati organi tomonidan daromad solig‘i yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Rezident jismoniy shaxslarning O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig‘i yakuniy summasini hisoblab chiqarish ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va byudjetga o‘tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog‘liq jarima va penyalarni byudjetga to‘lashi shart.

7-§. Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.

Yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart hisoblanadi:

1) soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida (asosiy ish joyi bo‘yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslardan tashqari) belgilangan shaklda ma’lumotnomha taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to‘lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;
- soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;
- o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiyligi summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingga umumiyligi summasi;
- soliq agentining identifikatsiya raqami;
- soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalarini hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingga summalarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq to‘lov manbaida ushlab qolingga soliq jamg‘arib boriladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga belgilangan tartibda hisoblab yozilgan badallar chegirilgan holda quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

a) daromad to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingga soliq summasi shu maqsadlarda pul mablag‘lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtida byudjetga o‘tkaziladi;

b) to‘lovni natura holida yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarish

yoxud xizmat ko‘rsatishdan tushgan tushumdan to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingga soliq summasi to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida byudjetga o‘tkaziladi.

Bankda hisobraqamiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to‘lash sanasi soliq to‘lovchi hisobraqamidan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun, boshqalar, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun esa - mablag‘lar kredit muassasasining kassasiga o‘tkazilgan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning hisob-kitob varag‘idan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan to‘langanda, to‘lov sanasi jismoniy shaxs hisobraqamidagi mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to‘lab borilgan summalar tegishli hisobot yili uchun soliq to‘lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o‘tkaziladi.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O‘zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

- mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to‘lov manbaida soliq solinmagan bo‘lsa;
- fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- asosiy bo‘lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- ikki yoki undan ko‘p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;
- O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;
- soliq agentlari bo‘lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to‘lovchining asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i uning arizasiga ko‘ra belgilangan eng yuqori stavka qo‘llanilgan holda ushlab qolingga bo‘lsa, daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi rezidentiga aylangan chet ellik jismoniy shaxs, mazkur moddaning birinchi va ikkinchi qismlari qoidalaridan qat‘i nazar, Soliq Kodeksning 192-moddasida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi.

Fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar bunday faoliyatni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmagan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi olayotgan jismoniy shaxs daromadlar olish bilan bog‘liq daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishi shart hamda u ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq, haqiqatda qilingan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni daromaddan chegirish huquqiga ega, biroq chegirma olingan jami daromad summasining 30 foizidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Ijodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish va ulardan foydalanish uchun zarur materiallar olishga doir xarajatlar;

- faqat fan, adabiyot va san’at asarlarini yaratish, nashr qilish, ijro etish yoki ulardan boshqacha tarzda foydalanish maqsadida foydalaniladigan bino va mol-mulk ijarasiga doir xarajatlar.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya soliq to‘lovchining olingan yillik daromadi to‘g‘risidagi yozma arizasidan iborat bo‘ladi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo‘yicha to‘langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolning summalarini to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma’lumotnomaga ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya shakli O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

- ✓ soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;
- ✓ soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;
- ✓ soliq solinishi lozim bo‘lgan daromadlar turlarga ajratib ko‘rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o‘zidan olish mo‘ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);
- ✓ daromadlarning manbalari;
- ✓ daromad olish bilan bog‘liq xarajatlar, majburiy to‘lovlari, chiqimlar va ajratmalarning summalarini;
- ✓ jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo‘yicha imtiyozlar;
- ✓ hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- ✓ haqiqatda to‘langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalari soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o‘zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaganiga qadar berilsa, soliq to‘lovchi Soliq Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning etishmayotgan summasini hamda unga tegishli penyani to‘lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to‘g‘risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilar Soliq kodeksning 189-moddasida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs o‘tgan soliq davri uchun daromadlar to‘g‘risida joriy yilning 1 apreli gacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo‘lsa, uning O‘zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtida joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O‘zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo‘lsa, joriy yil uchun daromadlar bo‘yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi yuqorida belgilangan daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya bo‘yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to‘lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e’tiboran o‘n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo‘yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i miqdorini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning tegishli xulosasini ko‘rsatadi.

Mol-mulkini ijara ga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijara dan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijara ga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs

doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to‘lovchi daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo‘lsa, shuningdek oldin taqdim etilgan deklaratsiyada noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini o‘zidagi mavjud axborot asosida eng yuqori stavka bo‘yicha hisoblashga va to‘lanishi lozim bo‘lgan, hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi to‘g‘risida soliq to‘lovchiga o‘n kunlik muddat ichida to‘lov xabarnomasini topshirishga haqli. Soliq to‘lovchi tomonidan jami yillik daromadi to‘g‘risida deklaratsiya yoki to‘g‘rilangan deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyaning ma’lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini o‘tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan kechiktirmay to‘laydilar.

Jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig‘ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag‘idan chet el valyutasida to‘lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘langan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchini kunigacha to‘laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo‘yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to‘langan summalar o‘rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to‘langan sana quyidagilardir:

- yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag‘idan to‘langani taqdirda – ularning bankdagi hisobvarag‘idan mablag‘lar hisobdan chiqarilgan kun;

- jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag‘lari kiritilgan taqdirda – bank kassasiga mablag‘lar to‘langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash to‘lov xabarnomasida ko‘rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

8-§. Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish yo‘llari.

Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini xorij tajribasi asosida maqbullashtirish yo‘nalishlari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq borasida fikr yuritilganda, masalaning mohiyati albatta soliq stavkasiga borib taqaladi. Mamlakatimiz soliq amaliyotida bugungi kunda uning 4

pog‘onali, ya’ni 0, 7,5, 16,5, 22,5 foizli stavkalari amal qilmoqda. Ba’zi iqtisodchilar Rossiya Federatsiyasi tajribasi, ya’ni yagona soliq stavkasini qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblashadi. Lekin bu tadbirni amalga oshirish ham soliq sub’ektlari, ham byudjet uchun ijobjiy natijalar beradimi, degan savolga hamisha ham javob ololmaymiz.

Yagona soliq stavkasini joriy qilish taklif qilinganda, byudjet kamomadiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning miqdorini respublikada mavjud o‘rtacha soliq yukinidan kelib chiqqan holda 18 foiz qilib belgilash talab etiladi. Bu 64,5 foiz soliq sub’ekti uchun soliq yuki 5 foizga, hamda 23,4 foiz soliq sub’ekti uchun esa o‘rtacha 2,1 foizga o‘sishi yoki kam ta’minlangan aholi qatlami jabr ko‘rishini anglatadi. Yagona soliq stavkasini pastroq qilib belgilash mumkinmi, degan savolga esa soliq sub’ektlari soni yoki daromadlarining legallahishi orqali erishsa bo‘ladi, deb javob berish mumkin.

Harakatdagi daromad solig‘iga 3 pog‘onali stavkalarining joriy qilinganligini ijtimoiy nuqtai-nazardan adolatli deb hisoblash mumkin, ammo bu borada soliq stavkalari o‘rtasidagi farqni daromad shakllanishiga imkon beradigan darajada belgilash maqbul holatni yuzaga keltiradi.

Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish sohasida o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biri – daromad summasidan ba’zi xarajatlarni chegirish tartibini ishlab chiqish va joriy etish hisolanadi. Bu barcha soliq sub’ektlari daromadiga qo‘llaniladigan soliqqa tortilmaydigan miqdorni hamda alohida soliq sub’ekti ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda joriy qilinadigan chegirmalardir. Masalan, Yaponiya soliq tizimida aholi yalpi daromadga nisbatan quyidagi chegirmalar joriy qilgan:

➤ tibbiy xizmat bilan bog‘liq xarajatlar uchun chegirma. Soliq sub’ektining o‘zi yoki birga yashaydigan oila a’zolari salomatligi uchun sarflangan mablag‘ning 2 mln. yenagacha bo‘lgan miqdorda chegirma;

➤ nogironlarga joriy qilingan chegirma. Soliq sub’ektining o‘zi, turmush o‘rtog‘i yoki uning qaromog‘idagi oila a’zosi nogiron bo‘lgan holda har bir nogiron uchun 270 ming yena (og‘ir holatda bo‘lsa 400 ming yena) miqdorida chegirma;

➤ qariyalar uchun chegirma. Soliq sub’ekti 65 yoshdan oshgan bo‘lsa va yillik daromadi 10 mln. yenadan oshmasa 500 ming yena miqdorida chegirma;

➤ mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan talabalar uchun chegirma. Agar soliq sub’ekti mehnat faoliyati bilan band talaba bo‘lsa, ma’lum hollarda (masalan, yillik daromadi 650 ming yenadan oshmasa) 270 ming yena miqdorida chegirma;

➤ boquvchisini yo‘qotganlik uchun chegirma. Agar soliq sub’ektining turmush o‘rtog‘i olamdan o‘tgan yoki ajrashgan va qariyalar uchun chegirma qo‘llanmagan holda 270 ming yena, agar qaramog‘ida farzandi bo‘lsa, qo‘srimcha 80 ming yena miqdorida chegirma;

➤ mol-mulkni sug‘urtalashga yo‘naltirilgan mablag‘ning 15 ming yena miqdorida chegirma;

➤ soliq sub’ektining o‘zi yoki yaqinlarining hayotini sug‘urtalashga yo‘naltirilgan mablag‘ning 50 ming yena miqdorida chegirma va shu kabi boshqa chegirmalar.

Soliq solinmaydigan eng kam miqdor kategoriyasiga o‘z mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra standart chegirma deb ataluvshi chegirma – AQSh qonunchiligidagi nazarda

tutilgan imtiyoz yaqindir. Standart chegirma soliq solinmaydigan eng kam miqdor bilan baravar ravishda qo'llanib kelinadi. U soliq solinmaydigan eng kam miqdor singari qat'iy qayd etilgan summada, masalan, 5,5 ming dollar bilan (yolg'iz soliq to'lovchilar uchun), 11 ming dollar bilan (er-xotinlar uchun) va 2 ming dollar bilan (bir uy xo'jaligidagi har bir shaxs uchun) ifodalanadi. Masalan, to'rt kishidan iborat bir oila – 8 ming dollar standart chegirmaga ega¹. AQShdag'i imtiyozning muhim farqi shundan iboratki, soliq to'lovchi standart chegirma o'rniga o'z chiqimlarini moddalar bo'yicha hisoblash usulini qo'llash mumkin. Bu xarajatlarni yalpi daromaddan chiqarib tashlashga ruxsat etiladi (tibbiy xizmat va dori-darmon sotib olish xarajatlari; tish do'xtiri xizmatlariga haq to'lash; ipoteka krediti bo'yicha to'lanadigan foizlar va shu kabilar).

Bizda bu xildagi xarajatlar soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanmagan. Chunki hozircha, bizning nazarimizda, mamlakatimiz iqtisodiyoti bunday imtiyozli xarajatlarga tayyor emas. Bu aholining daromadlarini soliqqa tortishni yanada takomillashtirish yo'lida yangi bosqichi bo'lishi mumkin edi.

Eng murakkab masala – soliqning eng kam va eng yuqori stavkalar to'g'risidagi masaladir. Bizning nazarimizda, avvalo eng yuqori va eng kam stavkalar nisbati nimalarga bog'liqligini aniqlab olish nazariy jihatdan muhimdir. Bu erda asosiy omil – jamiyatning tabaqalarga bo'linishi, eng badavlat 10% aholi bilan eng kambag'al 10% aholi daromadlari o'rtaqidagi tafovutdir. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bu koefitsient ancha katta hisoblanadi. Shu sababli daromad solig'inining eng yuqori va eng kam stavkalari o'rtaSIDA katta tafovut o'zini oqlaydi.

Bizga ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlarning aksariyat qismida aholidan daromad solig'i ko'payib boruvchi (progressiv) usulda davlat byudjetiga tortiladi (bizda ham shu usulda), ammo AQShda bunday usul mustasnodir. U erda aholidan olinadigan daromad solig'i regressiv usulda amalga oshiriladi. Bu holatni quyidagi jadval orqali yorqin namoyon etish mumkin (12-jadvalga qaralsin).

12-jadval

AQShda soliq to'lovchi jismoniy shaxsning oilaviy maqomiga qarab soliq stavkasining o'zgarishi²

Yillik daromad bazasi \$	Soliq summasi%
1. Birgalikda soliq deklaratziyasini to'ldirayotgan er-xotinlardan	
-0 dan 29750 gasha	15.0
-29751 dan to 71900 gasha	28.0
-71901 dan to 171090 gasha	33.0
-171090 va yuqorisiga	28.0
2. Oila boshlig'idan	
-0 dan 23900 gasha	15.0
-23900 dan 61650 gasha	28.0
-61650 dan 123790 gasha	33.0
-123790 dan yuqorisiga	28.0

¹ Qarang: K. Макконел, С. Брю, Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд., Т.1. – М.: Республика, 2002. – с.120.

² Беляев Ю.А. Бюджетный федерализм: зарубежный опыт. –М.: Финанси, 2007 г.

3. Yolg‘iz soliq to‘lovchidan	
-0 dan 17850 gasha	15.0
-17850 dan 43150 gasha	28.0
-43150 dan 89560 gasha	33.0
-89561 dan yuqorisiga	28.0

Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortish amaliyotida soliq stavkasi miqdorini progressiv (ko‘payib boruvchi) usuli bilan birgalikda, aholining ayrim qatlamlari uchun regressiv (kamayib boruvchi) usulidan ham foydalanish lozim. Soliqqa tortishni bu uslubining ahamiyatli tomoni shundan iboratki, daromad o‘sib borgan sari soliq stavkasi miqdori muvofiq ravishda kamayib boradi. Bu esa hozirgi kundagi davlatning ijtimoiy siyosatiga mos keladi.

AQShda shaxsiy daromad solig‘ining yuqori (33%) stavkasi daromad 148250\$ dan oshganda so‘ng qo‘llaniladi, ammo o‘rtaga yillik soliq stavkasi 28 % dan oshmaydi. Chunki buning eng xususiyatli tomoni shundaki, 33%li stavkadan keyingi stavka 28 %likdir. Mazkur stavkaning tadbiq etilishi 250000\$ dan boshlab qo‘llanilmoqda, shunday bo‘lsada o‘rtaga yillik soliq stavkasi 28% dan oshmagan. Bunday pasayib boruvshi stavkani qo‘llashdan davlat hesh qanday iqtisodiy zarar ko‘rmaydi, shu bilan bir qatorda aholining daromad solig‘iga bo‘lgan ruhiy ishonsh yo‘qolmay soliq to‘lashdan qoshish holatlari deyarli kuzatilmaydi. Ushbu soliq yuki aholi daromadida boshqa egri soliqlarga nisbatan kam bo‘lishligi kuzatiladi.

12-jadvaldan ma’lum bo‘layaptiki, AQShda federal shaxsiy daromad solig‘ining maksimal stavkasi 33% ni tashkil qilsada, lekin eng oxirgi stavkasi 28%ni tashkil qilmoqda. Chunki soliq to‘lovchi sub’ektlar, xoh u yuridik shaxs bo‘lsin, xoh u jismoniy shaxs bo‘lsin, soliqlarni to‘lashdan qochishga urinadi, daromadlarni oshirishning yashirin yo‘llarini qidiradi yoki bo‘lmasa soliq to‘lovchi va ma’lum soliq inspektorlari o‘rtasida o‘zar olib kelishi mumkin va h.k.

Umuman olganda, turmush darajasini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlarda aholi daromadlarini infliyatsiyaga to‘g‘rilab, nominal emas, real daromadlarni aniqlash joiz, ya’ni bunda daromad soliqlari va boshqa turdagи majburiy to‘lovlar chiqarib tashlanishi kerak»¹.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, AQShda aholidan olinadigan daromad solig‘ini asosiy farqi kamayuvchan (regressiv) usulda soliqqa tortiladi. Bizda esa daromadning oshishi bilan soliq stavkasi ko‘payib boruvchi, ya’ni progressiv usulda. Bizning fikrimizcha, ma’lum bir davrlardan so‘ng, bizda ham daromad solig‘iga tortishning regressiv usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday usul, birinchi navbatda, ma’naviyat va ma’rifat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan aholi qatlamiga (shoirlar, yozuvchilar, bastakorlar va h.k.) ijobjiy ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchi navbatda jami aholining psixologik kayfiyatida ham ijobjiy iz qoldiradi.

O‘zbekistonda hozirgi vaqtda boshqa shart-sharoitlar mavjud bo‘lib, daromadlar ko‘proq jamg‘arish omillari hisobidan emas, balki narx omillari hisobidan o‘smoqda. Bu erda rag‘batlantiruvchi omillar boshqacha harakat qiladi. Shu sababli o‘tish davri mobaynida o‘ta yuqori daromadlar uchun eng yuqori stavkalar belgilanishi to‘g‘ridir.

¹ M. Yunusov. O‘zbekistonda soliq siyosatining dolzarb muammolari //Bozor, pul va kredit. – 2004. - №2.-13-bet.

Bozor xo‘jaligi normal izga tushib borishiga qarab, boylik va kambag‘allik o‘rtasidagi farq sekin-asta qisqarib borishini kutish mumkin. Shunda soliqning ortib borishini kamaytirish ham haqqoniy bo‘ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo‘lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig‘i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Ko‘pshilik mamlakatlар soliq siyosatida, yuqorida qayd etib o‘tilganidek, daromad solig‘i tuzilishining «global» va «shedulyar» tizimlaridan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda. Keng qamrovli «global» tizimda soliq qaysi manbadan kelib tushishiga qaramasdan yalpi daromaddan olinishini ko‘zda tutsa, «shedulyar» tizimi esa daromadni uning kelib shiqish manbalari bo‘yicha (ish haqi, renta, dividendlar, foiz va h.k.) oldindan qismlarga bo‘lib shiqishni, keyin daromadning har bir turi bazasidan tegishli stavka bo‘yicha soliq undirishni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari daromadlarning passiv va faol daromadlarga, ya’ni mol-mulkdan olingen daromadlarga va ishlab chiqarish faoliyatidan olingen daromadlarga bo‘lishni nazarda tutmaydi. Turli manbalardan olingen daromadlarga (yalpi daromadga) yagona stavkalar bo‘yicha soliq solinadi. «Global» yoki boshqacha qilib aytganda, soliq solishning sintetik tizimi tatbiq etiladi.

Fuqarolarning daromad manbalari sir saqlanishi tamoyiliga amal qiladigan ko‘pgina mamlakatlarda faqat deklaratsiyalar bo‘yicha soliq to‘lashdan foydalanib kelingan. Endilikda mazkur mamlakatlarda ilgarigi qarashlar qayta ko‘rib chiqilib, soliqni hisoblash va to‘lashning aralash tartibiga (daromad manbaidan to‘lashga va deklaratsiya bo‘yicha to‘lashga) o‘tilmoqda va bunga soliq to‘lashdan bo‘yin tovplashlarga kurashning kuchaytirilishi sabab bo‘lmoqda.

Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i olishning deklaratsiyali tizimini joriy qilish to‘g‘risida mustaqillikdan oldin fikr yuritilganda, universal daromad solig‘i tizimiga o‘tish uchun bir qator tashkiliy, ta’limiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish kerakligi haqida gapirilgan edi¹.

Bu muammolarning hammasi unchalik oddiy bo‘lmasdan ko‘pincha sertashvish hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohada shoshma-shosharlik qilish ishga faqat zarar etkazishi mumkin. Shunday qilib, bu o‘rinda soliq solishning yangi tizimini kompleks tarzda amal qilishini e‘lon qilib qolmasdan, shu bilan birga uning samarali bo‘lishini ta’min etish uchun hali ko‘p va jiddiy ishlar olib borish talab qilinadi.

Respublikamiz iqtisodiyoti bozor yo‘lidan borayotganligi sababli soliq to‘lovchilarining daromadlarini hisobga olishning deklaratsiyali usulini to‘g‘ri deb oqlayotgan rivojlangan mamlakatlarning jahon tajribasini uloqtirib tashlamasdan, u bilan birgalikda integratsion jarayonlarga qo‘shilish zarurligini hisobga olgan holda mazkur usulga o‘tishning istiqbolli ekanligini nazarda tutish kerak. Biroq, bizning nazarimizda, bu usulga darxol emas, balki sekin-astalik bilan o‘tish o‘zini oqlaydi.

¹ Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. – 87 b.



Nazorat savollari:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq ob’ekti va bazasi.
2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari.
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.
5. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i byudjet daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
7. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
8. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari.
9. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.
10. Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.
11. Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish yo‘llari.
12. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyatini tushuntirib bering?
13. Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
14. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?



5. QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I

Tayanch so‘z va iboralar: *yuridik shaxs, rezident yuridik shaxs, norezident yuridik shaxs, qo‘shilgan qiymat, soliq to‘lovchilar, tovar, ish, xizmat, soliq ob’ekti, soliq to‘lovchilar, soliq sub’ekti, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, import, eksport, soliqni hisoblash tartibi, soliqni to‘lash muddatlari.*

1-§. Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri - qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i - har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko‘p qirrali bilvosita soliqdir. Korxona kundalik xo‘jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot ishlab chiqaradi, ishlar bajaradi yoki xizmatlar ko‘rsatadi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo‘shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalg qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi. Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi Morris Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Loreneng taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1968 yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977 yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obyekti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini «Yevropacha» soliq, deb ham atashadi. Buning asosiy sababi shundaki, birinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo'lgan Fransiyada joriy etildi; ikkinchidan, 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo'shilgan qiymat solig'i bir vaqtning o'zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi; uchinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Hozirgi vaqtida qo'shilgan qiymat solig'i Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rinnegallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining

sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog‘iston Respublikalariga to‘g‘ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o‘rtasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg‘unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliq o‘rniga aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiyl oborotdan olinar edi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbayi sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i hozirga qadar o‘zining muhim o‘rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi PQ-3454-son qaroriga ko‘ra 2018 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog‘i 35.4 foizni, egri soliqlardagi ulushi esa 65.9 foizni tashkil etgan.

2-§. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob’ekti va soliq stavkalari.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib, amaldagi qonun hujjalariiga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo‘lgan yuridik shaxslar;
- 2) Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o‘z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Quyidagilar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar hisoblanmaydi:

notijorat tashkilotlar. Yuqorida 2 va 3-bandlarda nazarda tutilgan hollarda, shuningdek tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotini hamda Soliq kodeksi 199-moddasi birinchi qismining 5 va 6-bandlarida ko‘rsatilgan oborotlarni amalga oshirganda notijorat tashkilotlar ushbu oborotlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar bo‘ladi. Bunda Soliq kodeksining 132-moddasida ko‘rsatilgan boshqa daromadlarni olish tadbirkorlik faoliyati sifatida qaralmaydi;

agar Soliq kodeksining XX bo‘limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, Soliq kodeksiga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq

to‘lovini to‘lovchilar bo‘lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashi mumkin.

Alovida toifadagi soliq to‘lovchilar uchun, aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchilar bundan mustasno, Soliq kodeksininng 40¹-bobida belgilangan tartibda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi 2021 yil 1 yanvargacha bo‘lgan davrga belgilanadi.

Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko‘ra qo‘shilgan qiymat solig‘ining obyekti bo‘lib, soliq solinadigan oborot hamda soliq solinadigan import hisoblanadi.

Soliq solinadigan oborot - soliq to‘lovchining tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti tushuniladi.

Soliq solinadigan import - O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar tushuniladi.

Soliq kodeksining 199-moddasiga muvofiq tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deb quyidagilar e’tirof etiladi:

➤ mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqini o‘tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan:

- tovari va boshqa mol-mulkni jo‘natish (sotish);
- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shilgan hissa;
- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish), shu jumladan yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxsdagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bepul bajarish, xizmatlarni bepul ko‘rsatish);

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisiga (ishtirokchiga) dividendlar to‘lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

– garov bilan ta’milangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

- zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

➤ bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga, agar tarkibiy bo‘linmalar mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lsa, mol-mulkni berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

➤ mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

➤ to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovari jo‘natish;

➤ mol-mulkni operativ ijaraga berish;

➤ intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni o‘tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish;

➤ yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘ini hisoblab chiqarishda Soliq kodeksining 147-moddasiga muvofiq xarajatlari chegirilmaydigan soliq to‘lovchining

o‘z ehtiyojlari uchun o‘zi ishlab chiqargan tovarlarni berish, o‘z kuchi bilan ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish.

Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo‘lmaydi:

➤ soliq to‘lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o‘z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

➤ bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo‘linmalar mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi;

➤ soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

➤ qaytariladigan tarani jo‘natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo‘natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo‘lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

➤ yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisasi) muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnomasi bo‘yicha sheriklari (ishtirokchilar) umumiy mulkida bo‘lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

➤ asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish obyektlarini bepul asosda berish;

➤ banklar va sug‘urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o‘z filiallariga berish;

➤ oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

➤ tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

➤ ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

➤ ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

➤ ob‘ekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to‘loving bir qismi tarzida qoplash.

➤ tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘sishimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish.

Soliq kodeksining 204-moddasiga muvofiq soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kirimagan holda belgilanadi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, soliq to‘lovchiga o‘z ehtiyojlari uchun Soliq kodeksi 199-moddasi birinchi

qismining 7-bandiga muvofiq tovarlar berilganda (ishlar bajarilganda, xizmatlar ko‘rsatilganda), shuningdek tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog‘liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqib belgilanadi 204-moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O‘zi ishlab chiqargan tovarlarni jahon bozorida haqiqiy vujudga kelgan narxlar bo‘yicha, shu jumladan tannarxidan past narxlar bo‘yicha eksport qilish masalalarini ko‘rib chiquvchi maxsus vakolatli organning qarorlari asosida ushbu tovarlarning tannarxidan past narxlar bo‘yicha xorijiy valyutaga eksport qilinganda, soliq solinadigan baza soliq solish maqsadida tovarlarni realizatsiya qilishning haqiqiy narxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Tovarlar qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida aksiz solig‘ini hisobga olgan holda belgilanadi.

Qurilish, qurilish-montaj va ta’mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo‘yicha, shuningdek obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to‘lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta’mirlash majburiyati buyurtmachining zimmasida bo‘lsa, ushbu materiallarga bo‘lgan mulk huquqi buyurtmachining o‘zida saqlanib qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi qiymati soliq solinadigan bazadir.

Import qilingan tovarlar realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Aksiz to‘lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig‘ining summasi kiritiladi, bundan 204-moddaning yigirmanchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno, ya’ni benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchiga realizatsiya qilish chog‘ida to‘lanadigan aksiz solig‘i kiritilmagan holda aniqlanadi.

Asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va qurilishi tugallanmagan obyektlarni realizatsiya qilish chog‘ida, agar 204-moddaning o‘n uchinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, biroq ularning qoldiq (balans) qiymatidan kam bo‘lmagan, qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilmagan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni moliyaviy ijaraga, shu jumladan lizingga berish chog‘ida soliq solinadigan baza chiqib ketayotgan aktiv qiymati asosida, unga qo‘shilgan qiymat

solig‘ini kiritmagan holda aniqlanadi. Bunda chiqib ketayotgan aktivning qiymati shunday summa sifatida belgilanadiki, unga ko‘ra moliyaviy ijara ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan aktiv sifatida tan olinadi.

Kredit tashkiloti tomonidan garov bilan ta’minlangan majburiyatni qoplash hisobiga olingan mol-mulk realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo‘silgan qiymat solig‘i summasini o‘z ichiga oladigan, realizatsiya qilish narxi bilan qarzni qoplash hisobiga mazkur garov mol-mulki olingan qarz summasi o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Baholari (tariflari) davlat tomonidan tartibga solinishi nazarda tutilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda, soliq solinadigan baza belgilangan baholardan (tariflardan) kelib chiqqan holda aniqlanadi. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo‘silgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq tariqasida olinishi lozim bo‘lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha boshqa shartnoma asosida o‘zga shaxsning manfaatlarini ko‘zlab xizmatlar ko‘rsatilgan taqdirda, qo‘silgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza qo‘silgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan, ko‘rsatilgan xizmatlar uchun haq (foiz) tariqasida olinishi lozim bo‘lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Vositachilik, topshiriq shartnomasiga binoan komitent yoki topshiriq beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘silgan qiymat solig‘i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo‘silgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas. Garovga qo‘yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta’minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo‘yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo‘silgan qiymat solig‘ini qo‘shtagan holda mazkur garovga qo‘yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag‘lari summasidan kam bo‘limgan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo‘yicha garovga qo‘yuvchining soliq solinadigan bazasi qo‘silgan qiymat solig‘ini ham o‘z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o‘rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo‘silgan qiymat solig‘i summasini ham o‘z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o‘rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘silgan qiymat solig‘i stavkasi 1992 yilda 30

foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o‘zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go‘sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada qo‘shilgan qiymat solig‘ining 3 xil stavkasi (2 foiz, 15 foiz va nollik) amalda qo‘llanildi. Faqat uchta band, ya’ni eksport, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jalik korxonalariga beriladigan mineral o‘g‘it va yoqilg‘i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolotxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar «0» stavkasi bo‘yicha soliqqa tortildi. 15 foizli qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi esa un, non, go‘sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug‘doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000-2018 yillarda respublikamizda 20 foizli va nol darajali stavkalar qo‘llanilib kelindi. 2019 yildan boshlab esa 20 foizli, nol darajali hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tgan soliq to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ining farqlangan stavkalari qo‘llanilib kelinmoqda.

Umuman olganda nollik stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymatiga qo‘shilgan qiymat solig‘i nollik stavkada tortiladi, soliq summasi «nol»ga teng bo‘ladi.

Quyidagilarga nollik darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi:

1. Tovarlarni chet el valutasida eksportga realizatsiya qilish (qimmatbaho metallar bundan mustasno).

Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, Nollik stavka ham qo‘llanilmaydi. Qozog‘istonda esa MDHdan tashqariga eksport nollik stavkada soliqqa tortiladi.

Eksport qilingan tovarlarni qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish masalasida O‘zbekiston bilan boshqa davlatlar o‘rtasida davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo‘yicha shartnomalar tuzilgan bo‘lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo‘llashning iloji bo‘lmaydi, ya’ni imtiyoz qo‘llash uchun qonuniy asos bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtida Qирг‘изистон, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog‘iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo‘yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada kelishilgan davlatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda «0» stavkadagi qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘llash ko‘zda tutilgan;

2. Chet el tarafi o‘zarolik prinsipiga amal qilgan taqdirda, chet el diplomatik vakolatxonalarini hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, bu vakolatxonalar diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlarining, shu jumladan ular bilan birga yashayotgan oila a’zolarining, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasalar hamda O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan bo‘lmasalar, shaxsiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga).

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga)

nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarining va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

3. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjalariaga muvofiq, «bojxona hududida qayta ishslash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash bo'yicha bajarilgan ishlarga (ko'rsatilgan xizmatlarga).

4. Xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarini tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish;

5. Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga, shu jumladan xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari aholi nomidan oladigan, shuningdek, idoraviy uy-joy fondi uylarida yashayotgan aholi uchun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo'linmalari tomonidan olinadigan ana shunday xizmatlarga.

2006 yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallariga nollik stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli nollik stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, balki byudjet mablag'lari hisobidan qoplanadi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan nollik stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lмаган taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy qoldiqni paydo bo'lishi muammosi asosan mahsulotini eksport qiluvchi yirik korxonalarda kuzatiladi. Bu korxonalar toifasiga Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati, Qobul Tekstaylz – O'zbek qo'shma korxonalarini kiritish mumkin (mazkur korxonalarda eksport jami sotilgan tovarlarning 90 foizni tashkil qiladi). Bu muammo nollik stavkada soliqqa tortish natijasida ortilgan mahsulotga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligini va olingan materiallarga qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinishi oqibatida yuzaga keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining vatani hisoblangan Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'rtta stavka amal qiladi, ya'ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

Standart soliq stavkasi 19,6 foiz qilib belgilangan. Bu stavka o'zgacha stavkalar qo'llanilishi ko'zda tutilgan operatsiyalardan tashqari barcha operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Pasaytirilgan stavka (2,2; 5,5 foiz) oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun, kitoblar va dori-darmonlar uchun amal qiladi. Shunday pasaytirilgan stavka ayrim xizmat turlariga: turizm va mehmonxona xizmatlari, yuk va yo'lovchi tashish, tomosha tadbirleri, korxonalarining

xodimlariga beriladigan ovqatlarga tegishlidir. Oraliq stavka gaz, elektr, issiq suv, ko‘mir, neft mahsulotlari, spirt, kofe kabi tovarlarni soliqqa tortish uchun qo‘llaniladi. Oshirilgan stavka (22 foiz) ayrim mahsulot turlariga, jumladan, avtomobillar, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, parfyumeriya, qimmatbaho mo‘ynalarga nisbatan qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniyada qo‘shilgan qiymat solig‘ining uchta stavkasi amal qiladi: 8; 17,5 va nollik. Soliqning nollik stavkasi tovarlarning 17ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta’mnoti va kanalizatsiya, ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan kitoblar va qo‘llanmalar, yoqilg‘i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyabzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo‘llaniladi. 8 foizli stavka ta’mnotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan qo‘llaniladi. 17,5 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar)ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo‘shilgan qiymat solig‘ining standart stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya’ni nollik stavka – eksport bilan bog‘liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi zarur tovarlar uchun (non, g‘alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipial uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo‘yicha belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20; 10 va nollik stavkalari qo‘llaniladi. Nollik stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10 foizli stavka oziq-ovqat va bolalar tovarlariga, 20 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo‘llaniladi¹.

3-§. Soliq imtiyozlari.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko‘proq imtiyozlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular Soliq kodeksida to‘rt guruhga bo‘lib berilgan. Bular:

- 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209-modda);
- 3) soliqdan ozod etiladigan sug‘urta xizmatlari (210-modda);
- 4) soliqdan ozod etiladigan import.

Qo‘shilgan qiymat solig‘idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

➤ yuridik vajismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig‘im yoki boshqa to‘lovlar undiriladigan xizmatlar;

➤ maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

➤ bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

➤ dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o‘tkazishga doir xizmatlari;

➤ protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlar, shu

¹ Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O’quv qo‘llanma. –T.: TDIU, 2003. 158-bet

jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko‘rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumları va nogironlar uchun mo‘ljallangan inventarlarni ta’mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo‘yicha xizmatlar;

➤ davolash muassasaları huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

➤ pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

➤ aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to‘lash bo‘yicha xizmatlari;

➤ byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari;

➤ shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo‘l va umumiyl foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo‘lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo‘lovchilar tashish bo‘yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha qatnov jadvaliga binoan ko‘rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismoniy shaxslarning buyurtmalariga ko‘ra shahar yo‘lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo‘yicha xizmatlarga, tadbirlar o‘tkazish uchun tashish bo‘yicha xizmatlarga, shu jumladan shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;

➤ oliy, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ta’lim berishning haq evaziga o‘qitishga doir qismi bo‘yicha xizmatlar;

➤ tibbiy xizmatlar (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno) va veterinariya xizmatlari, dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyat va veterinariya uchun mo‘ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar;

➤ havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

➤ sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari;

➤ bosma mahsulotlar. Ushbu bandni qo‘llash maqsadida bosma mahsulotlar jumlasiga milliy valyuta (kupyura), kitob mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarining davriy bosma nashrlari (reklama tusidagi bosma nashrlar bundan mustasno), daftarlar hamda rasm va chizmachilik albomlari taalluqlidir;

➤ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

➤ uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar;

➤ davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

➤ o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

➤ ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari;

- byudjet mablag‘lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;
 - davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;
 - telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko‘rsatishga doir xizmatlar;
 - investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatları sifatida topshirilayotgan mol-mulk;
 - davlat mulkini ijaraga berish bo‘yicha xizmatlar;
 - ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari;
 - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra tijorat banklari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan qurilayotgan ko‘chmas mulk obyektlari.
- Moliyaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan:
- kreditlar, zayomlar bo‘yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;
 - depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;
 - to‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatları, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar, inkasso bo‘yicha operatsiyalar;
 - milliy valuta va chet el valutasi bilan bog‘liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;
 - yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog‘ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;
 - qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar;
 - qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;
 - kliring operatsiyalar;
 - akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish;
 - pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar;
 - chet el valutasi bilan ayrboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
 - kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
 - moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish;
 - forfeyting va faktoring operatsiyalari;
 - lombard operatsiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
 - jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti;
 - mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat

ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar.

Soliqdan ozod qilinadigan sug‘urta xizmatlari. Sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish xizmatlari bo‘yicha sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta qilish bo‘yicha xizmatlar bu xizmatlar natijasida:

- sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
 - sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;
 - qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemalar;
 - sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;
 - qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari ulushining qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘lovini;
 - sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar;
 - sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;
 - qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug‘urta qildiruvchi tomonidan qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazilgan foizlar;
 - hayotni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;
 - sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug‘urta rezervlari va sug‘urta fondlari mablag‘larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;
 - sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha franchizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;
 - qonun hujjalari muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
 - qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;
 - bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar.
- sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
 - sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni);
 - preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;
 - sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;

– sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

4-§. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari.

Soliq qonunchiligiga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblanishi soliq to‘lovchilarning olib borayotgan xo‘jalik operatsiyalariga bog‘liq ravishda soliqqa tortiladigan bazani aniqlashning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud.

Tovarlar sotilganda, ishlar bajarilganda va xizmatlar ko‘rsatilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi. Respublikamizda qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgandan buyon soliqni hisoblashning ikki turdag‘i usuli amal qilgan, ya’ni ishlab chiqarilgan tovarlarni jo‘natish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha hisobga olish usuli yoki hisobvaraq-faktura usuli hamda ulgurji va chakana savdo, vositachilik xizmati ko‘rsatish sohalarida hisobdan chiqarish usuli qo‘llanilgan. Bunda qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortiladigan baza narxlar farqi sifatida, ustama va mukofot haqi summasi sifatida aniqlanib shu summadan soliq hisoblangan.

1992 yildan 1994 yilga qadar savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanar edi. 1994 yildan ular byudjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘i o‘rniga yalpi daromad solig‘i hamda mol-mulk solig‘ini to‘laydigan bo‘lishdi. Keyingi davrlarda soliq hisoblashning «yalpi foyda» (chebirish) usuli asta-sekin «hisobga olish-hisobvaraq» usuliga aylanib bordi. Soliq kodeksi kuchga kirgandan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashning «yalpi foyda» (chebirish) usuli faqat vositachilik va «O‘zdonmahsulot» DAK tizimi tarkibiga kiradigan, birlamchi ishlovdan keyingi don, qo‘srimcha mahsulot va chiqindilarni sanoatdan donni qayta ishlashga sotishni amalga oshiradigan korxonalar uchun qo‘llaniladi. Boshqa holatlarda «hisobga olish hisob-faktura» usuli qo‘llaniladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblashning «hisobga olish hisob-faktura» usulining mohiyati shundaki, korxona byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq miqdoridan shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sotib olingan xom-ashyo, materiallar uchun to‘langan soliq miqdorini chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Chebirishga hisobot davrida hisob-faktura bilan qabul qilingan xom-ashyo, materiallar, shu jumladan import qilingan tovarlarga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qabul qilinadi.

Quyidagi shartlarni bajargan holda hisobga olish amalga oshiriladi:

- birinchidan, bu hisobot davrida tovar va xizmatlar haqiqatda sotib olingan bo‘lishi kerak;
- ikkinchidan, ular bo‘yicha tovar yetkazuvchidan hisob-faktura to‘ldirilgan bo‘lishi;
- uchinchidan, ular soliqqa tortiladigan faoliyatda ishlatilgan bo‘lishi kerak.

Vositachilik xizmatlari ko‘rsatilganda qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblanishi. Vositachilik xizmatlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda «yalpi foyda» (chebirish) usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, soliq baho farqi, ustama va mukofotlar sifatida olingan daromaddan hisoblanadi. Byudjetga soliq to‘lashda hisoblangan soliq summasi ushbu daromadni olishga sarflanadigan xizmatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga kamaytiriladi.

Demak, qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini vositachilik korxonalari mukofotlar

summasidan hisoblaydilar.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish. Umum davlat soliqlarini to'lovchi korxonalarda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning amaldagi mexanizmi soliqni ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'lган yangidan yaratilgan qiymatdan to'lanishini ko'zda tutadi. Qo'shilgan qiymat ikki marotaba soliqqa tortilmaydi.

1998 yil 1 yanvardan Soliq kodeksining joriy etilishi bilan birga hisobvaraq-fakturalar kiritilgan bo'lib, u kirimdagi soliq summasini hisobga olish uchun asosiy hujjat hisoblanadi. Ammo, amaliyotda bu tartib o'zining vazifasini to'laqonli bajara olmadi, chunki bu davrda byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi - yetkazib beriladigan mahsulotga hisoblangan soliq summasi bilan bevosita ishlab chiqarishga sarflangan material resurslarga hisoblangan soliq summasi o'rta sidagi farqi sifatida aniqlanar edi. Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi 1999 yilga qadar amaliyotda qo'llanilib kelindi va uning ayrim kamchiliklari mavjud edi. Jumladan:

- ishlab chiqarishga sarflangan paytda xom-ashyo va materiallarga hisoblangan soliq summasini byudjet bilan hisob-kitobda chegirilishi – korxonalarining oborot mablag'larini cheklanishiga olib keldi;
- qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraq faktura asosida hisoblanish mexanizmi ishlamadi, chunki amalda hisobvaraq fakturada ko'rsatilgan soliq summasi byudjetga hisobga olib borishda asos bo'lmadi;
- bunday hisoblash tartibi xalqaro soliq amaliyotidagi qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga zid kelardi.

Ushbu holatlar tahlil qilinib 1999 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash mexanizmi o'zgartirildi va xalqaro amaliyotga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tamoyillariga moslashtirildi. Quyida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning taqqoslama usuli keltirilgan (6.1-jadval).

Bu tartibdagi hisoblash mexanizmi korxonalarining oborot mablag'larini chetlanishini keskin kamaytiradi.

1999 yildan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning yangi tartibini joriy etilishi uni hisoblashning soddalashtirilgan mexanizmini qo'llanishiga olib keldi.

13-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashning 1999 yildan joriy etilgan usulining taqqoslama tahlili (raqamlar shartli)

№	Ko'rsatkichlar	1999 yilga qadar		1999 yildan keyin	
		oborot	qo'shilgan qiymat solig'i	oborot	qo'shilgan qiymat solig'i
1.	Hisobot davrida sotib olingan xom-ashyo, materiallar	100	20	100	20
2.	Ishlab chiqarishga ishlatalgan xom-ashyo, materiallar	50	10	50	10
3.	Tovarlar (ish va xizmatlar)ni sotish	200	40	200	40

	oboroti, ya'ni soliqqa tortiladigan oborot				
4.	Byudjetga hisoblangan soliq summasi	X	30 (40-10)	X	20 (40-20)

Ya'ni hisobvaraq faktura usulining ishlab ketishini ta'minladi va bunda material resurslarining ishlab chiqarishga sarflanishidan qat'iy nazar hisobot davrida sotib olingan material resurslarga to'langan soliq summasi hisobvaraq faktura asosida byudjet bilan hisob-kitobga olib boriladigan bo'ldi.

5-§. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari.

Hisobvaraq faktura va uni to'ldirish tartibi. Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan oborot bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasi bilan hisobga olinadigan soliq summasi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtida soliq davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqt-fakturalar reestrini taqdim etadi. Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtida soliq davri mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqt-fakturalar reestrlerini taqdim etadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash har oyda keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Agar korxona hisoblangan soliq summasini byudjetga o'z vaqtida o'tkazib bermasa, bunday holatda davlat soliq xizmati organlari mas'ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq sumasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,045 foiz miqdorida penya (moliyaviy jarima) hisoblashga olib keladi. Bunda korxona rahbariyatiga nisbatan ma'muriy chora qo'llanilmaydi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitoblari bilan bir vaqtida hisobot davri mobaynida olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqt-fakturalar reyestrini ham taqdim etadilar. Hisobvaraqt-fakturalar reyestrining shakli davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

1998 yil 1 yanvardan O'zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko'rsatganda hisobvaraqt

fakturani to‘ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

Hisobvaraqtura mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan tovarlarni yuklab jo‘natilishi, ish va xizmatlar ko‘rsatilishi sanasi (kuni)dan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvaraqtura qat’iy hisobot hujjati bo‘lib, unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

1) hisobvaraqturaqturaning tartib raqami va yozib berilgan sanasi;

2) hisobvaraqtura ilova qilinadigan tovar jo‘natish hujjatlarining yoki shartnomaning raqami va sanasi;

3) soliq to‘lovchining va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotib oluvchining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) hamda identifikatsiya raqami;

4) realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning nomi va o‘lchov birliklari (ularni ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lsa);

5) o‘lchov birligidan (ularni ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lsa) kelib chiqqan holda realizatsiya qilingan tovarlarning, bajarilgan ishlarning, ko‘rsatilgan xizmatlarning hisobvaraqtura bo‘yicha soni (hajmi);

6) shartnoma (kontrakt) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda, qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga oladigan davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) qo‘llanilgan taqdirda esa, soliq summasini hisobga olgan holda o‘lchov birligiga to‘g‘ri keladigan narx (tarif);

7) realizatsiya qilinayotgan tovarlar, bajarilayotgan ishlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar jami sonining (hajmining) qo‘shilgan qiymat solig‘isiz qiymati;

8) aksiz to‘lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha aksiz solig‘ining stavkasi va summasi;

9) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) sotib oluvchisiga taqdim etilayotgan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi va summasi;

10) realizatsiya qilingan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar jami sonining (hajmining) aksiz to‘lanadigan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olingan holdagi qiymati.

Hisobvaraqtura qog‘ozdagi shaklda yoki elektron hujjat tarzida tuzilishi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan oborotni va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lmagan yuridik shaxslar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi shaxsga hisobvaraqtura taqdim etishlari shart, quyidagi hollar bundan mustasno:

1) yo‘lovchilar tashishni yo‘l chiptalari bilan rasmiylashtirish;

2) tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda sotib oluvchiga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi cheki, terminal cheki, kvitansiya berish;

3) tovarlarning eksport-import tarzida etkazib berilishini rasmiylashtirish;

4) qabul qilib olish-topshirish dalolatnomasi rasmiylashtiriladigan moliyaviy ijara (shu jumladan lizing) shartnomasi bo‘yicha mol-mulkni topshirish, Soliq kodeksi 204-moddasining sakkizinch qismiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash majburiyatları yuzaga keladigan hollar bundan mustasno. Bunda tegishli hujjatlar (molivaviy ijara shartnomasining tarkibiy qismi bo‘lgan ijara (lizing) to‘lovlari jadvali;

hisobvaraqtan; ijara (lizingga) oluvchiga ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash uchun yuborilgan yozma bildirish va shu kabilar bilan rasmiylashtirilgan har bir ijara (lizing) to‘loviha ham hisobvaraqtan-faktura yozilmaydi;

5) bank operatsiyalarini mijozning shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirma berish orqali rasmiylashtirish;

6) sug‘urta xizmatlarini topshiriq shartnomasi va (yoki) sug‘urta polisi orqali rasmiylashtirish;

7) ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda, ishlarni (xizmatlarni) haqiqatda mazkur ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko‘rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirish.

Kelgusida tovarlarni etkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish uchun oldindan to‘langan haq (bo‘nak) yozilgan hisobvaraqtan-faktura bo‘lmaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘limgan, shuningdek qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilingan oborotni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar hisobvaraqtan-fakturada qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ko‘rsatmaydilar hamda «qo‘shilgan qiymat solig‘isiz» degan shtamp bosadi (yozib qo‘yadi).

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi uchun hisobvaraqtan-faktura qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olish uchun asos bo‘ladi.

Hisobvaraqtan-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan elektr energiyasi, suv, gaz, aloqa xizmatlari, kommunal xizmatlar, temir yo‘lda tashishlar, transport-ekspeditorlik xizmati, bank operatsiyalari, shuningdek tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) uzluksiz etkazib berishni amalga oshirayotgan soliq to‘lovchilar oyning oxirgi kunida bir marta hisobvaraqtan-faktura yozadi.

Hisobvaraqtan-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi milliy valyutada ko‘rsatiladi.

Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chet el valyutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvaraqtan-fakturalarni chet el valyutasida yozib, ayni bir vaqtda uni hisobvaraqtan-faktura yozib berilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha qayta hisoblagan holda milliy valyutada ifodalaydi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchi soliq solinadigan bazaga uni ko‘paytirishga (kamaytirishga) qaratilgan tuzatish kiritgan taqdirda, mazkur tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi tomonidan tasdiqlanadigan qo‘shimcha hisobvaraqtan-faktura tuziladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib beruvchi qo‘shimcha hisobvaraqtan-fakturada quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatishi kerak:

1) qo‘shimcha hisobvaraqtan-fakturaning raqami va tuzilgan sanasi;

2) hisobvaraqtan-fakturani to‘ldirishda zarur bo‘lgan rekvizitlar;

3) tuzatish kiritilayotgan hisobvaraqtan-fakturaning raqami va sanasi;

4) qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olmagan holda soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobjiy);

5) qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga tuzatish kiritish miqdori (salbiy yoki ijobjiy).

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar o'zлari olgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqlarning, shuningdek realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha taqdim etilgan hisobvaraqlarning reestrini yuritishi shart. Bunda olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqlarning reestriga faqat qo'shilgan qiymat solig'i ajratib ko'rsatilgan hisobvaraqlarning kiritiladi.

Hisobvaraqlarning shakli, uni to'ldirish tartibi, shuningdek kelib tushgan va taqdim etilgan hisobvaraqlarning reestrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

6-§. Import tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi.

Import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bo'lib, tovarlarni import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek, o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasidan ortiq tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar hisoblanadi (demak, jismoniy shaxslar ham bevosita qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lishi mumkin).

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston hududiga import qilinadigan tovarlar hisoblanadi.

Tovar deganda iste'molga mo'ljallangan va qiymatga ega bo'lgan barcha narsalar tushuniladi.

Import tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib, bojxona qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i summasi (aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$S_{Qs} = (IQTBQ + BBS + AS) \times Q_{QS}^{ST};$$

100

Bu yerda:

S_{Qs} – qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

IQTBQ – import qilinadigan tovarlarning bojxona qiymati;

BBS – bojxona boji summasi;

AS – aksiz solig'i;

Q_{QS}ST – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizli stavka bo'yicha to'lanadi.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

✓ jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

✓ chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o'zлari bilan birga yashayotgan oila

a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

✓ davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

✓ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

✓ dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari, veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariyaga mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xom ashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga, veterinariya dori vositalariga, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlarga nisbatan tatbiq etilmaydi;

✓ O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa;

✓ investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

✓ vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

✓ qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan yog'och-taxta materiallari va yog'och.

Tovarlar respublika hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtida to'lanadi. Agar bojxona deklaratsiyasi belgilangan muddatda topshirilmasa qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasi topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi.

Jismoniy shaxslar soliqni bojxona organi posti kassasiga naqd pul yoki naqd pulsiz orqali belgilangan tartibda to'lashlari mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'langan summalarini hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirish qilinib, keyin ular respublika byudjeti daromadlariga qayd etiladi. Bojxona organlari 3 kun muddat ichida undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini respublika byudjetiga o'tkazadilar.

7-§. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiyl tajribalarini o'zlashtirish masalalari.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 24 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi

munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-508-son Qonuni asosida Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, soliq davri davomida yalpi tushumi 3 mld. so‘mdan oshmaydigan yuridik shaxslar, shu jumladan, yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari hisoblangan yuridik shaxslar uchun 2019 yil 1 yanvardan boshlab ikki yil muddatga (2021 yil 1 yanvarga qadar) qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi (aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchilar bundan mustasno) joriy etildi.

Soliq kodeksining siga muvofiq soliq davri davomida yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmaydigan yuridik shaxslar, shu jumladan yagona soliq to‘lovi to‘lovchilari hisoblangan yuridik shaxslar qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning ushbu bobda belgilangan soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqiga ega.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tish uchun moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan soliq to‘lovchilar soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga o‘tish to‘g‘risida yozma xabarnomani quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

- o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar – joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmasdan;
- soliq davri davomida yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yuridik shaxslar – yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan oydan keyingi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan;
- ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash istagini bildirgan yuridik shaxslar – hisobot davri boshlanishidan bir oy oldin, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar esa, o‘z faoliyatini amalga oshirishni boshlagunga qadar.

Soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibiga:

- o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshmagan yuridik shaxslar - hisobot yilining boshidan;
- soliq davri davomida yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan yuridik shaxslar - yalpi tushumi bir milliard so‘mdan oshgan oydan keyingi oyning boshidan;
- ixtiyoriy ravishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash istagini bildirgan yuridik shaxslar - hisobot davrining boshidan, yangi tashkil etilganlar esa, faoliyatini boshlagandan o‘tadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda soliq to‘lovchilar Soliq kodeksining 35-40-boblarida nazarda tutilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning umumbelgilangan tartibiga o‘tish to‘g‘risida yozma xabarnoma taqdim etilgan oydan keyingi oyning boshidan o‘tadi.

Soliq davri davomida yalpi tushumi uch milliard so‘mdan oshgan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibini

qo'llayotgan soliq to'lovchilar, yalpi tushumi belgilangan me'yoriy miqdordan oshgan oydan keyingi oyning boshidan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning umumbelgilangan tartibiga o'tadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning umumbelgilangan tartibiga o'tilganda yuridik shaxs ushbu tartibga o'tilgan paytdan e'tiboran tovar-moddiy zaxirasi, uzoq muddatli aktivlar qoldiqlari, shuningdek tayyor mahsulot qoldiqlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini Soliq kodeksining 218-moddasida belgilangan talablarni inobatga olgan holda hisobga olish huquqiga ega bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning umumbelgilangan tartibini qo'llayotgan yoki ushbu tartibga o'tgan soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tishga haqli emas.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibini qo'llayotgan soliq to'lovchilar Soliq kodeksining 37-bobida, boshqa qonun hujjalarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida, alohida hollarda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilagan imtiyozlarni qo'llash huquqiga ega.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibini qo'llayotgan soliq to'lovchilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchiga taqdim etilayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va summasini ko'rsatgan holda hisobvaraq-faktura taqdim etishi shart.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibini qo'llayotgan soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan hisobvaraq-faktura qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning umumbelgilangan tartibini qo'llayotgan soliq to'lovchi uchun Soliq kodeksining 218-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish uchun asos bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida kalendar yil soliq davri hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida hisobot davri bir oy hisoblanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanadi:

1) Soliq kodeksining 199 va 200-moddalarida belgilangan tartibda aniqlanadigan soliq solinadigan oborot. Bunda Soliq kodeksining 38-bobida nazarda tutilgan, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan oborot qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq solinmaydigan oborot hisoblanadi.

2) Soliq kodeksining 201-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadigan soliq solinadigan import.

Realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sana Soliq kodeksining 203-moddasida belgilangan tartibda aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning

(ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmasdan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida soliq to'lovchining soliq solinadigan bazasiga tuzatish kiritish Soliq kodeksining 205-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan oborotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan baza va farqlangan stavkalardan kelib chiqqan holda Soliq kodeksining 39-bobida nazarda tutilgan soliqni hisobga olishni qo'llamasdan hisoblab chiqariladi.

Soliq kodeksiga asosan zimmasiga O'zbekiston Respublikasi norezidenti tomonidan amalga oshiriladigan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan, shuningdek tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini Soliq kodeksining 206 va 207-moddalarida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda Soliq kodeksining 211¹-moddasida belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqaradi. Soliq kodeksining 226⁴-moddasiga muvofiq, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashning soddalashtirilgan tartibiga o'tgan soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'inining farqlangan stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

14-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'inining farqlangan STAVKALARI¹

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi yuridik shaxslar, 2-6 bandlarda nazarda tutilganlar bundan mustasno	7
2.	Qurilish tashkilotlari	8
3.	Chakana, ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalari	6
4.	Umumi ovqatlanish, mehmonxona xo'jaligi korxonalari	10
5.	Kasbiy xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (auditorlik xizmatlari, soliq maslahati xizmatlari, konsalting xizmatlari, brokerlik xizmatlari va boshqalar)	15
6.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, realizatsiya qiladigan yuridik shaxslar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlari bundan mustasno	4

Qo'shilgan qiymat solig'inining turli farqlangan stavkalari belgilangan bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanadigan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritish hamda soliq to'lovchilarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini

¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 226⁴-moddasidan olindi.

to‘lashi kerak.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi doirasida qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi bilan bir vaqtida soliq davri mobaynida realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha hisobvaraqturular reestrini taqdim etadi. Hisobvaraqturular shakli, uni to‘ldirish tartibi, shuningdek hisobvaraqturular reestrini yuritish shakli va tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash soliq hisob-kitobini taqdim etish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha qarzi mavjud bo‘lmagan taqdirda, qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha to‘langan summasi soliq to‘lovchiga qaytariladi.

Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining hisobot davri uchun hisoblab chiqarilgan soliq summasidan ortgan summasi qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha kelgusi to‘lovlari hisobiga o‘tkaziladi.

Hisobga olinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining soliq davri yakunlariga ko‘ra hisoblangan soliq summasidan ortiqchaligi saqlanib qolgan taqdirda, ushbu ortiqcha summa keyingi soliq davriga o‘tkaziladi va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha kelgusi to‘lovlari hisobiga o‘tkaziladi.

Nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha summasi quyidagi ketma-ketlikda qaytariladi:

- Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining summasi qoplanadi;
- soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha mavjud soliq qarzi qoplanadi;
- soliq to‘lovchining bank hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkaziladi.

Soliq kodeksining 207-moddasiga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplash yoki soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha mavjud soliq qarzini qoplash Soliq kodeksining 56-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qaytarilgandan keyin saqlanib qolgan nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadigan oborot hisobidan hosil bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘ining ortiqcha summasi soliq to‘lovchining yozma arizasi asosida uning bank hisobvarag‘iga, agar mazkur ariza ortiqcha summa hosil bo‘lgan hisobot davri tugaganidan keyin o‘n ikki oydan kechiktirilmagan muddatda taqdim etilgan bo‘lsa, Soliq kodeksining 228-moddasida belgilangan tartibda qaytarilishi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini pul mablag‘larini bank hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan soliq to‘lovchiga qaytarish O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish uchun soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi hujjatlarni qog‘ozdagi shaklda uch nusxada ilova etgan holda yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha yuridik shaxs qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha qarzlarining solishtiruv dalolatnomasi hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar tuziladi va bir kalendar oy mobaynida amal qiladi;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisob-kitobi;
- agar yuridik shaxsga ilgari qo‘shilgan qiymat solig‘i qaytarib berilgan bo‘lsa, qaytarilgan summalar va qaytarib berish sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Soliq to‘lovchilar qo‘shimcha ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

1) tovarlarni eksport qilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar – Soliq kodeksi 213-moddasining birinchi qismiga muvofiq hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirmalarni;

2) tovarlar eksportini vositachilik, topshiriq shartnomasi bo‘yicha vositachi, ishonchli vakil orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxslar - Soliq kodeksi 213-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq hujjatlarning ko‘chirma nusxalarini, shuningdek chet el valyutasida realizatsiya qilingan tovarlar uchun tushum vositachining, ishonchli vakilning yoki soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga kelib tushganligini tasdiqlovchi bank hujjatidan ko‘chirmalarni yoki ularning ko‘chirma nusxalarini;

3) chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga rasmiy foydalanish uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilayotgan yuridik shaxslar – belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan hisobvaraq-fakturalarning nusxalarini;

4) «bojxona hududida qayta ishslash» bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishslash bo‘yicha ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko‘rsatayotgan, shuningdek chet el yuklarini O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali tashish (tranzit tashish) bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar:

- ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish uchun tuzilgan kontraktning nusxasini;
- bajarilgan ishlarga, ko‘rsatilgan xizmatlarga chet ellik sotib oluvchi (to‘lovchi) tomonidan haq to‘langanligini tasdiqlovchi bank ko‘chirmasi nusxasini;
- ishlarni (xizmatlarni) sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan imzolangan ishlar bajarilganligini (xizmatlar ko‘rsatilganligini) tasdiqlovchi hujjat nusxasini;

5) aholiga suv ta’mnoti, kanalizatsiya, issiqlik ta’mnoti bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatayotgan yuridik shaxslar – nol darajali stavka qo‘llanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish to‘g‘risidagi yozma arizani ko‘rib chiqish, qaytarilishi lozim bo‘lgan ortiqcha summani aniqlash va mablag‘larni soliq to‘lovchining hisobvarag‘iga o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya

vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

8-§. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o'zlashtirish masalalari.

Hozirgi vaqtida qo'shilgan qiymat solig'i Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o'rinnegallaydi. Evropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Evropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi¹.

Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqga ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o'zaro uyg'unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O'zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovaroborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog'iston Respublikalariga to'g'ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o'rtasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg'unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

Evropa Ittifoqi (EI)ning maxsus Direktivasiga muvofiq 1992 yilning 19 oktyabridan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining minimal stavkalari belgilab berildi. Xususan, 1993 yilga qadar minimal stavkalarda qo'shilgan qiymat solig'ini olish bitta mamlakatda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ya'ni, nollik stavka eksportyor mamlakatida qo'llaniladi, minimal stavkalar bo'yicha tovarlar va xizmatlar importyrlarning mamlakatida soliqqa tortiladi². Jismoniy shaxslar tomonidan sotib olingan tovarlar mazkur tovarlar ishlab chiqarilgan mamlakatda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Chunki, Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar o'rtasida fuqarolarning harakatlanishi erkin bo'lib, ular turli mamlakatlarda o'zlarining shaxsiy is'temollari uchun tovarlar xarid qiladilar. Shuning uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni osonlashtirish maqsadida tovarlar sotib olingan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Fuqarolar yashash joylariga qaytib kelganlarida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

Fransiyada standart soliq stavkalari mavjud bo'lib, 1998 yildan boshlab, ularning miqdori 20,6 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan va oshirilgan stavkalari ham mavjuddir. Qo'shilgan qiymat solig'ining pasaytirilgan stavkalari 5,5 foiz va 2,1 foizni tashkil etsa, oshirilgan stavka 25 foizni tashkil etadi³. Fransiyada va Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan boshqa mamlakatlarda asosiy kapitalga investitsiya qilingan mablag'lardan qo'shilgan qiymat solig'i olinmaydi. Shuningdek, tijorat banklari, moliya muassasalari, o'quv yurtlari qo'shilgan qiymat solig'ini to'lamaydilar.

¹ Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЭР. 2003. 57 стр.

² Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: "Кнорус". 2004. стр 204

³ Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. -СПб.: "ПИТЕР". 2005. стр. 51

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan dastlabki paytda uning stavkasi 10 foizni tashkil qilar edi, keyin esa soliq stavkasi 8 foiz qilib belgilandi. Hozirgi vaqtda asosan 3 xildagi qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi mavjud bo'lib, nollik stavka, pasaytirilgan stavka (5%) va oshirilgan stavka (17,5%) lardan iborat¹. Pasaytirilgan stavkada shaxsiy iste'mol uchun ishlataladigan elektr toki hamda gaz qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Nollik stavkada esa oziq-ovqat mahsulotlari, jamoat transporti xizmatlari nashriyot mahsulotlari, urug'chilik va chorvachilik mahsulotlari soliqqa tortiladi. Buyuk Britaniyada ta'lim, meditsina xizmatlari, sug'urta va brokerlik xizmatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi. Shunisi e'tiborliki, Buyuk Britaniyada yillik oboroti 54 000 funt sterlingacha bo'lgan tadbirkorlar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod qilinganlar (O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni belgilashda tadbirkorlar yillik oborotining miqdori hisobga olinmaydi). Bizning fikrimizcha, mulk shaklidan va iqtisodiy maqomidan qat'iy nazar, barcha tadbirkorlarga qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydigan yillik oborot miqdorini belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ko'plab faoliyatini endi boshlagan tadbirkorlar ishlab-chiqarish va muomala xarajatlarining yuqori bo'lganligi sababli, ishlab chiqargan tovarlarning bahosini pasaytirish imkoniyatiga ega emaslar. Ularga nisbatan 20 foizli qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llanilishi tovarlar bahosini sezilarli ravishda o'sishiga olib keladi. Natijada mazkur tadbirkorlar ishlab chiqargan tovarlarning raqobatbardoshligi yanada pasayadi.

Irlandiyada 2001 yildan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 20 foiz qilib belgilandi. Mazkur stavka 2001 yilga qadar 21 foizni tashkil qilar edi. Standart stavkadan tashqari, nollik stavka va pasaytirilgan stavkalar (12.5 – 4.3 foiz) mavjud. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar nollik stavkani qo'llash shaklida soliqqa tortilmaydigan yillik oborotni belgilab qo'yish shaklida qo'llaniladi.

Irlandiyaning eksport salohiyatini oshirish maqsadida eksportga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining nollik stavkasi qo'llaniladi. Bundan tashqari agar tadbirkorning tovoroborotining umumiy hajmida eksport operatsiyalarining salmog'i 75 foizdan oshsa, u holda tadbirkor nollik stavkadan foydalanishga haqli hisoblanadi².

Belgiyada mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ining 2 ta pasaytirilgan stavkasi qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavkada asosan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti, kinoteatrлar va mehmonxonalar xizmati qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkada esa kommunal to'lovlar, qishloq xo'jalik mahsulotlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladi. Pasaytirilgan stavkalardan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi ham mavjud bo'lib, uning miqdori 21 foizni tashkil qiladi.

Italiyada qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari 4, 10 va 20 foizni tashkil qiladi. Oziq-ovqat mahsulotlari, eksportga tovar sotish va kompaniyalarning aktivlarini sotib olish xarajatlari qo'shilgan qiymat solig'iga tortilmaydi.

Shvetsiyada qo'shilgan qiymat solig'ining asosiy stavkasi 25 foizni tashkil qiladi. 12 foizli pasaytirilgan stavkalar oziq-ovqat mahsulotlariga va mehmonxona xizmatlariga nisbatan qo'llaniladi. 6 foizli pasaytirilgan stavka esa ro'znomalarga va

¹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 206

² Поляк Г. Налоги и налогобложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 46

madaniy tadbirlarga nisbatan qo‘llaniladi. 2001 yildan boshlab, yo‘lovchi transporti xizmatlari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkasi amaldagi 12 foizdan 6 foizga tushirildi. Shunisi e’tiborlik, Shvetsiyada yillik oboroti 1 mln. Shvetsiya Kronidan oshmaydigan tadbirkorlar qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lashdan ozod qilinganlar¹.

XX asrning 80 yillaridan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘i Amerika, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi mamlakatlarning soliq amaliyotiga joriy qilindi. Yaponiya, Turkiya Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Kolumbiya, Misr kabi davlatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i mana shu davrda joriy qilingan.

Yaponiyada qo‘shilgan qiymat solig‘i 1984 yilda joriy qilingan. 1989 yilga qadar Yaponiyada qo‘shilgan qiymat solig‘ini joriy etilishi ishlab-chiqarilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir qildi. Bu ta’sir ayniqsa, qo‘shilgan qiymat salmog‘i sezilarli bo‘lgan yuqori texnologiyali tarmoqlarga nisbatan kuchli bo‘ladi, degan g‘oya mavjud edi. Shuning uchun Yaponiyada Evropa davlatlariga nisbatan uzoq muddat mobaynida qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilmadi.

Rossiya Federatsiyasida 1992 yilda qo‘shilgan qiymat solig‘i oborot solig‘ining o‘rniga joriy etildi. Bu soliq oborot solig‘idan farqli ravishda faqat qo‘shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig‘i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi².

Ayni vaqtida, xorijiy mamlakatlar amaliyotida ham qo‘shilgan qiymat solig‘ini davlat byudjetiga jalb qilishda sezilarli muammolar mavjud. Ana shunday asosiy muammolardan biri, ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining har bir bosqichida yaratilgan qo‘shilgan qiymatni to‘liq hisobga olish imkonining mavjud emasligi hisoblanadi. Soliq organlari soliq to‘lovchilarning barcha schyot-fakturalarini tekshirish uchun jismoniy imkoniyatlarga ega emaslar. Bundan tashqari, soliq organlari bojxona organlaridan har doim ham ishonchli ma’lumotlarni to‘liq hajmda ololmaydilar. Buning sababi shundaki, soliq to‘lovchilar tomonidan bojxona hujjatlarini noto‘g‘ri to‘ldirilganligi hisoblanadi. Masalan, Shvetsiyada hisobotlardagi taqqoslab bo‘lmaydigan ma’lumotlarning 87 foizi hujjatlarni noto‘g‘ri to‘ldirish natijasida yuzaga kelgan nomuvofiqlikga to‘g‘ri keladi, 10 foizi esa soliq davrlarining mos kelmasligiga to‘g‘ri keladi³.

Xorijiy mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘ini daromad manbai sifatida qo‘llash tajribasini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, birinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i iqtisodiy kon’yunkturaning tebranishlariga bevosita bog‘liq bo‘lмаган barqaror daromad manbai hisoblanadi; ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i aholini nisbatan kam ta’minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish imkonini beradi; uchinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi; to‘rtinchidan, qo‘shilgan qiymat solig‘i faoliyatini yaqinda boshlagan va katta miqdordagi tovaroborotiga ega bo‘lмаган tadbirkorlarni rag‘batlantirishni moliyaviy vositasi hisoblanadi.

¹ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. стр. 131.

² Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 45

³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: “Бератор-Пресс”. 2002. Стр. 134.



Nazorat savollari:

1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.
2. Soliq to'lovchilar tarkibi, soliq ob'ekti va soliq stavkalari.
3. Soliq imtiyozlari.
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartiblarining o'ziga xos xususiyatlari.
5. Qo'shilgan qiymat solig'ini byudjetga to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari. Hisobvaraq faktura va uni to'ldirish tartibi.
6. Import tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash tartibi.
7. Qo'shilgan qiymat solig'ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiliy tajribalarini o'zlashtirish masalalari.
 1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
 2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda kim tomonidan joriy etilgan?
 3. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
 4. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
 5. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'ekti qanday aniqlanadi?
 6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
 7. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
 8. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo'llaniladi?
 9. Hisobvaraq-fakturlar qanday to'ldiriladi va unda qo'shilgan qiymat solig'i qaysi punktlarda ko'rsatiladi?
 10. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
 11. Import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i qaysi formula orqali aniqlanadi?

“SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN GLOSSARIY

Byudjet dotatsiyasi – o‘z daromadlari va byudjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag‘lar etishmagan holda quyi byudjetning harajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoki respublika byudjetdan rezident – yuridik shaxsga yoki xorij davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.

Byudjet subventsiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ma’lum maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga tekingi (haq olmay) ajratiladigan pul mablag‘lari.

Byudjet tizimi – turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, ularni tashkil etishni va tuzish printsiplarini, shuningdek byudjet jarayonida paydo bo‘ladigan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni o‘zida ifodalaydi

Davlat byudjeti – davlat pul mablag‘larining (shu jumladan, davlat maqsadli fondlari mablag‘larining) markazlashtirilgan fondi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Daromad solig‘i – to‘g‘ri soliqlarning asosiy shakli. Jismoniy yoki yuridik shaxslarning jami daromadidan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqxujjalalar bilan tasdiqlangan xarajatlarini chegirgan holda foizdahisoblangan ulushi.

Daromad solig‘ining shedulyar shakli – daromadning manbaini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) bo‘linishini taqozo etadi. Har bir shedul o‘ziga manbai oldida “tutish”ni maqsad qilib qo‘yadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari Yana ichki taqsimlanishga ham egadir.

Dvidentlar – taqsimlashga mo‘ljallangan aksionerlarning sof foydasi (daromadi); aksionerlik jamiyati yoki korxona sof foydasidan har bir aksiya uchun aksionerlarga ma’lum davrdan so‘ng (har yili, ayrim hollarda – har chorakda) to‘lanadigan daromad.

Dotatsiya – davlat byudjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari, (ziyon) larni qoplash uchun korxona va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabalarga ko‘ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.

Jarima – soliqqa oid jinoyatlar uchun javobgarlik o‘lchovidir.

Ikki marta soliqqa tortish – 1. Turli soliqlarni daromad (kapital)ning yagona manbaidan olinishi; 2. Qo‘shma korxona xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o‘tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xudi shu foydani xorijiy

ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3. Sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) v undan to‘lanadigan dividentlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbaini ikkinchi mamlakatda oliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutilish mumkin.

Import solig‘i – bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste’mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy byudjetlarga borib tushadi.

Imtiyoz – ma’lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to‘liq) ozod etish, ma’lum bir afzalliklarga (qulayliklarga) ega bo‘lish, masalan, soliq imtiyoziga.

Investitsion soliq krediti – soliq to‘lovchi tomonidan ma’lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun unga mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan engillik, imtiyoz (soliq to‘lovini kechiktirilish). Bu kredit soliq to‘ovi va mahalliy ma’muriyat o‘rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtirildi. Investitsion soliq kreditini taqdim etish (berish), rasmiylashtirish va qaytarish tartibi “Investitsion soliq kredit to‘g‘risida” gi qonunga muvofiq belilanadi.

Yig‘imlar – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to‘lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga o‘tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiqlar qilish huquqi uchun yig‘im, shu jumladan, ayrim turdagilari tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotrasport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar kiradi.

Mahalliy byudjet – davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromad manbalari va ularning tushumlari miqdori, shuningdek, moliya yili davomida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar – mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuiridk shaxslarning majburiy to‘lovleri. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, savdo-sotiqlar qilish huquqi uchun qig‘im, shu jumladan, ayrim turdagilari tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig‘imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro‘yxatga olganlik uchun yig‘im, avtotransport to‘xtash joyidan foydalanganlik uchun yig‘im, obodonchilik ishlari uchun yig‘im va boshqalar.

Ma’muriy javobgarlik – ma’muriy huquqbazarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdar shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri

Ortiqcha to‘lovlar – to‘lovning byudjetga tushgan ortiqcha summasi. Odatda soliq to‘lovchining boshqa to‘lovlar bo‘yicha mavjud bo‘lgan boqimondalarini uzish uchun hisobga olinadi va bu to‘g‘rida unga ma’lum qilinadi yoki moliya organining qarori nusxasi va bankning tegishli ko‘chirmasi asosida soliq to‘lovchiga qaytariladi.

Penya – qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo‘yicha belgilangan vaqtidan kechikkan har bir kun uchun bitim bo‘yicha qayd etilgan summaning foizdagi ulushi ko‘rinishida qo‘llaniladi.

Real soliq – soliq to‘lovchining ayrim mulkclarini soliqqa tortadigan to‘g‘ri soliqlardan iboratdir.

Regressiv soliqqa tortish – soliq asosi (bazasi)ning o‘sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og‘irligi daromadga teskari proportsionaldir: daromad qancha kam bo‘lsa, soliq to‘lovchi uchun soliqning og‘irligi shuncha og‘irdir. Hozirgi paytda qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda

Rezidentlar – kalendar yilda mamlakatda 183 kundan kam bo‘lmagan **muddatda yashagan**, **O‘zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan** va bo‘lmagan soliq to‘lovchilar (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

Respublika byudjeti – davlat byudjetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda adromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Soliq agenti – yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o‘z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to‘lanadigan ish haqidan, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko‘rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo‘lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o‘tkazib beradi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e’tirof etiladi.

Soliq bazasi – soliq ob‘ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo‘llaniladigan ob‘ektning miqdoriga ham bog‘liq bo‘ladi.

Soliq imtiyozlari – soliq to‘lovchilarga soliqlar bo‘yicha turli xil engilliklar bo‘lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to‘liq yoki qisman va boshqa ko‘rinishlarda berilishi mumkin.

Soliq kontseptsiyasi – bu soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir.

Soliq qonunchiligi – davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me’yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va

funksiyalari bilan belgilanadi.

Soliq majburiyati – soliqlarni hisoblash va to‘lash yuzasidan talab etiladigan va bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni o‘zida aks ettirgan iqtisodiy munosabatlar majmui. Bu jarayonda davlat o‘zining vakolatli organlari orqali soliq to‘lovchidan mazkur majburiyatlar bajarilishini talaba etish huquqiga egadir

Soliq manbai – bu soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi. Soliq ob’ekti va soliq manbaini bir-biridan farqlash lozim. Ayrim soliq turlari bo‘yicha, masalan, daromad (foyda)ga, yalpi daromadga, jismoniy shaxslarning daromadiga soliqlar bo‘yicha soliq ob’ekti ham soliq manbai ham bir xil bo‘ladi, ya’ni nima ob’ekt bo‘lsa, uning o‘zi manba hisoblanadi.

Soliq mexanizmi – davlat, jamiyat va alohida sub’ektlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish yuzasidan markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag‘lari fondlarini tashkil etish bilan bog‘liq ob’ektiv munosabatlarni boshqarish usullari yig‘indisi.

Soliq nazorati – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minalash ustidan nazorat.

Soliq ob’ekti – soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi. Soliq ob’ekti sifatida foyda yoki daromad, muayyan tovarlarni qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi.

Soliq organi – amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq, soliqlar undirilishini amalga oshiruvchi davlat organlari tizilmasi.

Soliq organlari – soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta’minalovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qo‘mitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir.

Soliq siyosati – bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to‘lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati strategiyasi – soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minalash ko‘zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

Soliq siyosati taktikasi – belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minalovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildiradi, ya’ni qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan

yo‘nalishlar majmuasi - soliq siyosati taktikasi sifatida qaraladi.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat’iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o‘rnataladi.

Soliq sub’ekti – soliq to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq sub’ekti - bu soliqqa oid munosabatlarning tashkil etuvchi tomonlarning o‘zaro majmuasi bo‘lib, unda bir tomonidan soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomonidan soliqni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari - Davlat soliq qo‘mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi.

Soliq tizimi – mamlakat doirasida (hududida) to‘lovlardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakli va uslublari yig‘indisi.

Soliq to‘lovchi – qonunchilikka ko‘ra, tegishli soliqlarni to‘lash majburiyati zimmasiga yuklatilgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Soliq tushumlari – moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi ha rbir soliq va boshqa majburiy to‘lov larga mo‘ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolotli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to‘lovları) va moliyaviy sanktsiyalar.

Soliq hisob-kitoblari – yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko‘zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o‘zida ma’lum hisobot davri mobaynida to‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan to‘lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiliga ko‘ra har bir soliq turi bo‘yicha alohida-alohida belgilangan.

Soliq yuki – soliq to‘lovchining muayyan vaqt oralig‘ida to‘lagan soliqlari yig‘indisini ifodalaydi. Bunda soliq to‘lovchilarning to‘laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to‘lovlarining yig‘indisini ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

Soliq deklaratsiyasi – soliq to‘lovchining soliq organiga ma’lum bir davr oralig‘ida olgan daromadlari hamda unga qo‘llaniladigan chegirma va imtiyozlarni o‘zida aks ettirgan maxsus shakldagi rasmiy bayonoti. Soliq organi unga va amaldagi soliq stavkalariga asoslanib, to‘lanishi belgilangan soliq summalarini undirilishini nazorat qiladi

Soliqqa tortilmaydigan oborot – qonunga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘iga tortilmaydigan oborot.

Soliqqa tortish birligi – bu ob‘ektning o‘lchov birligi. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig‘ida ob‘ektning o‘lchov birligi bo‘lib uning so‘mdagi bahosi ifodalansa, yer solig‘ida o‘lchov birligi bo‘lib kv.m. yoki hektar hisoblanadi.

Soliqqa tortish predmeti – soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo‘lgan huquq emas, balki ularning o‘zidir, ya’ni soliq solish

ob'ekti bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi.

Soliqlar – qonunda beliglangan tartibdastavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jisoniy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to'ovlar. Soliq, yig'im, poshlina va boshqa to'ovlar deyilganda qonuniy aktlar asosida beliglangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqaridagi fondlarga majburiy badallarning to'lanishi tushuniladi. Belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imlar, poshlinalar va boshqa to'ovlarning yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish – xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish deganda ikki yoki undan ortiq mamlakatda bir soliq to'lovchining faoliyati aynan bir xil yoki o'xshash soliq turi bilan bir vaqtning o'zida soliqqa tortish ifodalanadi.

“SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN TESTLAR TO‘PLAMI

1. “Dunyoda faqat o‘lim va soliqlardan qutulib bo‘lmaydi” jumlesi kimga mansub?

- a) Franklin B.
- b) Reygan R.
- c) Keyns J.
- d) Sismondi S.

2. “Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig‘imlarni to‘lashga majburdirlar” bu jumlalar qayerda qayd etilgan?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- b) Soliq kodeksi
- c) Davlat soliq xizmati to‘g‘risida qonun
- d) Mehnat kodeksi

3. “O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi” bu jumlalar qayerda qayd keltirilgan?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- b) Soliq kodeksi
- c) Davlat soliq xizmati to‘g‘risida qonun
- d) Mehnat kodeksi

4. Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri - ...

a) soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddallashtirish va ular bo‘yicha to‘lov davriyligini kamaytirish hisoblanadi

- b) soliq tizimini tartibga solish
- c) soliq turlarini kamaytirish
- d) hisob-kitob mexanizmini soddallashtirish

5. Qaysi qatorda soliq elementlari to‘liq aks ettirilgan?

a) soliq solish ob’ekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to‘lash tartibi.

b) soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to‘lash tartibi.

c) soliq stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi.

- d) soliq stavkasi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi.

6. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati nimada?

a) soliqlar majburiy to‘lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarida.

- b) davlatning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda.

c) sohalar o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashda.

d) soliqlar, yig‘imlar, bojlar va boshqa to‘lovlardan hisobiga davlat moliyaviy resurslarini tashkil etishda.

7. Soliqlarning tartibga solish funktsiyasi nimani anglatadi?

a) davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga solishini

b) ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg‘arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga ta’sir ko‘rsatishini

c) soliqlar yordamida davlatning moliya resurslarini tashkil qilishni.

d) soliqlar vositasida shakllangan daromadlar haqida axborot berishni.

8. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi?

a) soliq xizmati organlari, bojxona xizmati organlari

b) moliya vazirligi, soliq qo‘mitasi, bojxona qo‘mitasi

c) sud va prokuratura organlari

d) xo‘jalik sndlari

9. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ -599-sonli qonuni bo‘yicha Soliq deganda nimani tushunasiz?

a) soliq kodeksida belgilangan, o‘zbekiston respublikasining davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy beg‘araz to‘lov tushuniladi.

b) soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

c) soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan konsodatsiyalashgan byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

d) stavkalari o‘zbekiston respublikasi prezidenti va hukumatining qarori bilan belgilangan byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

10. Soliq to‘lovchi bu kim?

a) soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga belgilangan soliqlar hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar

b) soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar, davlat bojlari hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan faqat rezident yuridik va jismoniy shaxslar

c) soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar, davlat vabojxona bojlari hamda yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan norezidentlar, yuridik va jismoniy shaxslar

d) soliq kodeksiga belgilangan barcha soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovchini to‘lovchi yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslar

11. Soliq imtivozi bu nima?

a) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi afzalliklar, soliqni to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati

b) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi afzalliklar, ortiqcha to‘langan soliqlarni qaytarib olish yoki foizi bilan undirib olish imkoniyati

c) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi afzalliklar, soliqni nol darajali stavkada to‘lash to‘lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash imkoniyati

d) soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi afzalliklar, soliqni kechiktirib to‘lash yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati

12. Soliq sub’ekti

a) soliq to‘lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar

- b) soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi
- c) ob’ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo‘yilgan me’yordir
- d) yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar

13. Soliq agenti

- a) yuridik va jismoniy shaxslardan soliqni ushlab qolish va davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi yuridik shaxslar
- b) soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi
- c) soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi
- d) soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori

14. Soliq ob’ekti

- a) soliq to‘lovchining soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi
- b) rezident va nerezident yuridik shaxslarning soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan oboroti va mol-mulki tushuniladi
- c) yuridik shaxslarning soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi tushuniladi
- d) rezident va nerezident jismoniy shaxslarning soliq hisoblanadigan va soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan daromadi, oboroti va mol-mulki tushuniladi

15. Soliq manbai

- a) soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi
- b) soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori
- c) oborot, mol-mulk
- d) daromad, mol-mulk

16. Soliq bazasi

- a) soliq ob’ektining soliq stavkasi qo‘llaniladigan miqdori
- b) soliq to‘lovchining to‘laydigan soliqlari manbai, ya’ni daromadi
- c) daromad, mol-mulk
- d) oborot, mol-mulk

17. Soliq qarzi bu?

- a) hisoblab chiqarilgan va belgilangan muddatlarda to‘lanmagan soliqlarning summalari, belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanktsiyalar va penyalar summasi
- b) belgilangan muddatlarda to‘lanmagan inkassa topshiriqnomasi bilan olingan ortiqcha soliqlarning summalari
- c) belgilangan muddatlarda to‘lanmagan boshqa majburiy to‘lovlар va belgilangan muddatda to‘lanmagani uchun ularga hisoblangan moliyaviy sanktsiyalar summasi
- d) belgilangan muddatlarda to‘lanmagan bojxona bojlari va ularga hisoblangan moliyaviy sanktsiyalar

18. Soliqqa tortish birligi

- a) bu ob’ektning o‘lchov birligi

- b) daromad, mol-mulk birligi
- c) oborot, mol-mulk birligi
- d) soliq ob'ektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori

19. Soliq stavkasi

- a) ob'ektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir
- b) soliq to'lovchining to'laydigan soliqlari manbai, ya'ni daromadi
- c) predmet bo'lib egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalar
- d) bu ob'ektning o'lchov birligi

20. Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshiriladi

- a) kadastrli, deklaratsiya va to'lov manbaida soliqqa tortish
- b) kadastrli, nazorat usuli va hisobga olish usuli
- c) kadastrli, penya usuli va hisobga olish usuli
- d) kadastrli, bank usuli va hisobga olish usuli

21. Soliq stavkalarini qanday turlarga ajratish mumkin

- a) qat'iy, proportsional, progressiv va regressiv
- b) ratsional, progressiv va regressiv
- c) progressiv va regressiv
- d) qat'iy, progressiv va regressiv

22. Soliqlar soliqqa tortish ob'ektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

- a) oborotdan olinadigan soliqlar, daromaddan olinadigan soliqlar, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar, yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar
- b) elektron tijoratdan olinadigan soliqlar, dividenddan olinadigan soliqlar, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar, yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar
- c) bank foydasidan olinadigan soliqlar, daromaddan olinadigan soliqlar, uy-joy qiymatidan olinadigan soliqlar, yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar
- d) byudjet tashkilotidan olinadigan soliqlar, foydadan olinadigan soliqlar, ko'chmas mulk qiymatidan olinadigan soliqlar, yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar

23. Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar qanday soliqlarga bo'linadi

- a) egri va to'g'ri soliqlarga
- b) byudjet va maqsadli soliqlarga
- c) egri va qat'iy soliqlarga
- d) to'g'ri va imtiyozli soliqlarga

24. To'g'ri soliqlar

- a) soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs
- b) soliqni huquqiy to'lovchisi iste'molchi, haqiqiy to'lovchisi mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqaruvchilar
- c) soliqni huquqiy to'lovchisi mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqaruvchilar, haqiqiy to'lovchisi iste'molchilar
- d) soliqni huquqiy to'lovchisi yuridik shaxs, haqiqiy to'lovchisi jismoniy shaxs

25. Egri soliqlar

- a) huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar

b) soliqni huquqiy to‘lovchisi iste’molchi, haqiqiy to‘lovchisi mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqaruvchilar

c) soliqni huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs

d) soliqni huquqiy to‘lovchisi jismoniy shaxs, haqiqiy to‘lovchisi yuridik shaxs

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini 29.06.2018 yildagi PF-5468-sonli Farmonning asosiy mazmun va mohiyati qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

a) Soliq siyosati kontseptsiyasini tasdiqlash va shu asosda strategiya taktikani belgilab olish

b) soliq nazoratining xorijda keng qo‘llanilayotgan ilg‘or va sinalgan shakl va usullarini joriy etish

c) Soliq kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqish

d) yangi soliq turlarini joriy etish

27. Soliq kontsepsiyasi

a) bu soliqlarni yo‘nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g‘oyalarining yaxlitligidir

b) Uzoq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlar yig‘indisi.

c) Belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlar.

d) Davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyati.

28. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan soliq to‘lovchilarning identifikasiya raqamlarini (STIR) berish va qo‘llash tizimi qachon joriy etildi?

a) 1997 yil 1 aprel.

b) 1994 yil 1 yanvar.

c) 1992 yil 1 mart.

d) 1998 yil 1 yanvar.

29. Aktsiz solig‘i O‘zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

a) 1992 yil 1 yanvardan

b) 1991 yil 1 yanvardan

c) 1995 yil 1 yanvardan

d) 1999 yil 1 martdan

30. Aktsiz solig‘i stavkalari va aktsiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan

c) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

31. Aktsiz solig‘i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

a) aktsiz to‘lanadigan tovarlarning eksportiga

b) aktsiz to‘lanadigan tovarlarning importiga

c) berilgan xom ashyodan tayyorlangan mahsulotga

d) zargarlik buyumlariga

32. Aktsiz solig‘i stavkalari va aktsiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan
- b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan
- c) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

33. Aktsiz solig‘i stavkalari qanday belgilanadi?

- a) tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda va naturada ifodalangan o‘lchov birligiga mutlaq summada qat’iy belgilanadi
- b) tovarning qiymatiga nisbatan qat’iy so‘mlarda
- c) tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda
- d) tovarlarning o‘lchov birligiga nisbatan foizlarda

34. Aktsiz solig‘ining to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

- a) Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- b) Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar
- c) Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar
- d) Aktsiz solig‘iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar

35. Foyda solig‘ini to‘lovchilari kimlar?

- a) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va nerezidentlari, YaTTlar
- b) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va soddalashgan tizimi to‘lovchilari
- c) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va notijorat tashkilotlari
- d) O‘zbekiston Respublikasi nerezidentlari va notijorat tashkilotlari

36. Yuridik shaxslarning asosiy vositalariga yillik amortizatsiya me’yorlari qaysi hujjatda keltirilgan?

- a) Soliq kodeksida
- b) Bojxona kodeksida
- c) Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida
- d) Har yili davlat byudjeti parametrlarida e’lon qilinadi

37. 2020 yilda foyda solig‘i stavkasi necha foiz etib belgilandi?

- a) 15 foiz
- b) 12 foiz
- c) 10 foiz
- d) 5 foiz

38. 2021 yil uchun foyda soligining bazaviy stavkasi necha foiz qilib belgilandi?

- a) 2021 yil uchun foyda soligining bazaviy stavkasi 15 foiz qilib belgilandi.
- b) 2021 yil uchun foyda soligining bazaviy stavkasi 7,5 foiz qilib belgilandi.
- c) 2021 yil uchun foyda soligining bazaviy stavkasi 12 foiz qilib belgilandi.
- d) 2021 yil uchun foyda soligining bazaviy stavkasi 8 foiz qilib belgilandi.

39. 2021 yil uchun tijorat banklari uchun foyda soligining stavkasi necha foiz qilib belgilandi?

- a) tijorat banklari uchun foyda soligining stavkasi 20 foiz qilib belgilandi.
- b) tijorat banklari uchun foyda soligining stavkasi 15 foiz qilib belgilandi.
- c) tijorat banklari uchun foyda soligining stavkasi 22 foiz qilib belgilandi.
- d) tijorat banklari uchun foyda soligining stavkasi 12 foiz qilib belgilandi.

40. 2021 yil uchun asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda soligining stavkasi necha foiz qilib belgilandi?

- a) asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda soligining stavkasi 20 foiz qilib belgilandi.
- b) asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda soligining stavkasi 12 foiz qilib belgilandi.
- c) asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari kursatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda soligining stavkasi 22 foiz qilib belgilandi.
- d) asosiy faoliyat turi mobil aloqa xizmatlari kursatuvchi yuridik shaxslar uchun foyda soligining stavkasi 15 foiz qilib belgilandi.

41. Foyda solig‘ining soliq solish ob’ekti nima?

- a) soliq kodeksining 295 moddasiga asosan soliq to‘lovchi tomonidan olingan foyda - foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish ob’ekti hisoblanadi.
- b) soliq kodeksining 295 moddasiga asosan soliq to‘lovchi tomonidan olingan sof tushumu - foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish ob’ekti hisoblanadi.
- c) soliq kodeksining 295 moddasiga asosan soliq to‘lovchi tomonidan olingan sof foydasi - foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish ob’ekti hisoblanadi.
- d) soliq kodeksining 295-moddasiga asosan Soliq to‘lovchi tomonidan olingan yalpi foydasi - foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

42. 2021 yil uchun qo‘shilgan qiymat soligining stavkasi necha foiz qilib belgilandi?

- a) 2021 yil uchun qo‘shilgan qiymat soligining stavkasi 15 va 0 foiz qilib belgilandi.
- b) 2021 yil uchun qo‘shilgan qiymat soligining stavkasi 20 va 0 foiz qilib belgilandi.
- c) 2021 yil uchun qo‘shilgan qiymat soligining stavkasi 7 va 15 foiz qilib belgilandi.
- d) 2021 yil uchun qo‘shilgan qiymat soligining stavkasi 12 va 0 foiz qilib belgilandi.

43. Jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan tadbirkorlar QQS va Foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga qaysi soliqni to‘lovchisi bo‘ladi?

- a) aylanmadan olinadigan soliq
- b) aktsiz solig‘i
- c) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
- d) deklaratsiya asosida soliqqa tortish

44. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi necha foiz?

- a) 12 foiz
- b) 13 foiz
- c) 15 foiz
- d) 9 foiz

45. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ob’ektiga nimalar kiradi?

- a) soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan import
- b) soliq solinadigan import
- c) soliq solinadigan oborot

d) soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan eksport

46. Mahalliy soliqlar qaysi qatorda keltirilgan?

a) yer solig‘i, mol-mulk solig‘i,

b) QQS, yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

c) yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq aktsiz solig‘i, yer solig‘i

d) yuridik shaxslarning foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

47. Boqimanda bu?

a) qonun bilan belgilab berilgan soliqlar va yig‘imlarni qonunda ko‘rsatilgan muddatlarda to‘liq va o‘z vaqtida to‘lamaslik hisoblanadi

b) soliq to‘lashdan qochish hisoblanadi

c) soliq idoralaridan ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tov lash hisoblanadi

d) soliqlarni kam hisoblash

48. Soliq to‘lovchilarining joylashishi mezoniga ko‘ra qaysi soliq turlari stavkalari tabaqlashtirilgan?

a) qat’iy soliq

b) mol-mulk solig‘i

c) foyda solig‘i

d) yer solig‘i

49. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi nimadan iborat?

a) Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar va boshqa daromadlar

b) Mehnat haqi, mulkiy daromadlar

c) Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mehnat haqi

d) Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar

50. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliqqa tortishning qanday printsiplari keltirilgan?

a) soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjalaring oshkoraliqi va soliq to‘lovchining haqligi prezumptsiyasi printsipi

b) majburiylik, qonun oldida tenglik, pul mablag‘larining erkin harakatini cheklamasligi, hamma daromadlarni soliqqa tortish, ijtimoiy adolat tamoyili

c) oddiylik va xolislik

d) tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish, jami daromadlarni soliqqa tortish

51. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining nechanchi moddasida soliqlar va yig‘imlarning turlari keltirilgan?

a) 17-modda

b) 23-modda

c) 31-modda

d) 6-modda

52. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining Maxsus qismida qaysi masalalar yoritilgan?

- a) Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda ularning elementlari
- b) Tekshirish turlari
- c) Soliq tamoyillari
- d) Soliq nazoratining shakllari

53. Soliqlar to‘lovchilar subyektiga ko‘ra qanday guruhanadi?

- A. Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar
- B. Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliqlar
- C. Egri va to‘g‘ri soliqlar
- D. Mahalliy va umum davlat soliqlar

54. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkasi qaysi stavka turiga mos keladi?

- a) Proportsional
- b) Progressiv
- c) Foizli
- d) Regressiv

55. Bir xil mohiyatga ega bo‘lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig‘im, boj va boshqa majburiy to‘lov larning yig‘indisi – bu..... deyiladi

- a) Soliq tizimi
- b) Soliq siyosati
- c) Soliq strategiyasi
- d) Soliq taktikasi

56. Soliq agentlari qanday majburiyatga ega?

- a) zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lov lab hisoblab chiqarish, soliq to‘lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar
- b) zimmasiga mahalliy soliqlar va yig‘imlarni undirib berish ma’suliyati yuklangan shaxslar
- c) zimmasiga jismoniy va yuridik shaxslardan soliqlarni undirish ma’suliyati yuklangan shaxslar
- d) zimmasiga soliqlarni byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga o‘tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslar

57. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 1997 yil 29 avgust
- b) 1997 yil 24 aprel
- c) 1991 yil 15 fevral
- d) 1992 yil 27 oktyabr

58. Qaysi vakolatli organ soliq turlarini joriy etish huquqiga ega?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
- b) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- c) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
- d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

59. Qo‘silgan qiymat solig‘ini to‘lovchi yoki uni to‘lashni ixtiyoriy tanlagan YaTTlar uchun QQS stavkasi qancha?

- a) 15 foiz
- b) 20 foiz
- c) 6 foiz
- d) 10 foiz

60. Korxonalarining soliq majburiyatiga nimalar kiradi?

- a) Soliqlarni va yig‘imlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash
- b) Soliqlarni va penyalarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash
- c) Soliqlarni va bojlarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash
- d) Soliqlarni va moliyaviy jarimalarni to‘g‘ri hisoblab chiqarish hamda o‘z vaqtida to‘lash

61. Soliq nazoratiga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni belgilang?

- a) Vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariiga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratidir

b) Bojxona organlari tovarlarning O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlarga nisbatan o‘z vakolatlari doirasidagi faoliyati

- c) Soliq to‘lovchining bank hisob raqamlaridagi mablag‘larining nazorati
- d) Soliq organlarining soliqlarni to‘g‘ri hisoblanishini nazorat qilish

62. Elektron raqamli imzo qaysi tashkilot tomonidan taqdim etiladi?

- a) Davlat xizmatlari markazi tomonidan
- b) Davlat soliq xizmati organlari tomonidan
- c) Ichki ishlar organlari tomonidan
- d) Moliya organlari tomonidan

63. Soliq nazorati qaysi shakllarda amalga oshiriladi?

- a) Soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi
- b) Soliq tekshiruvlari, soliq monitoringi, xronometraj ko‘zdan kechirish
- c) Soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi
- d) Kameral soliq tekshiruv, soliq monitoringi

64. Soliq tekshiruvlari nechta turdan iborat?

- a) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, soliq audit
- b) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, soliq monitoring
- c) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, xronometraj ko‘zdan kechirish
- d) Kameral soliq tekshiruv, sayyor soliq tekshiruv, soliq monitoringi

65. Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan tartibdagi foyda solig‘i bazasi jami daromadning necha foizi miqdorida belgilanadi?

- a) 25 foiz
- b) 50 foiz
- c) 10 foiz
- d) 30 foiz

66. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda solig‘i bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibini qo‘llash uchun soliq organlariga qanday xujjat taqdim etiladi?

- a) bildirishnomasi

- b) xabarnoma
- c) tushuntirish xati
- d) ogohlantirish xati

67. YaTTlar foyda solig‘i bazasini hisoblab chiqarishning soddalashtirilgan tartibidan ixtiyoriy voz kechgan holda umumiy tartibiga qachondan boshlab o‘tadi?

- a) kelgusi soliq davridan
- b) joriy soliq davridan
- c) kelgusi hisobot davridan
- d) joriy hisobot davridan

68. 2020 yilda soliqni hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha nima o‘zgartirishlar kiritildi?

- a) 2020 yilda hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi bekor qilindi.
- b) 2020 yilda hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi ko‘ra, QQSni hisobdan chiqarish mexanizmini qo‘llamagan holda turli tabaqlashgan stavkalar (4 foizdan 15 foizgacha) joriy etildi.
- c) 2020 yilda hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi ko‘ra, turli tabaqlashgan stavkalar (4 foizdan 15 foizgacha) joriy etildi.
- d) 2020 yilda hisoblash va to‘lashning soddalashtirilgan tartibi ko‘ra, QQSni hisobdan chiqarish mexanizmini qo‘llamagan yagona stavka (15 foiz) joriy etildi.

69. Fiskal siyosatning ajralmas va asosiy bo‘lagi bu ...

- a) Soliq siyosati
- b) Byudjet siyosat
- c) Monetar siyosat
- d) Iqtisodiy siyosat

70. Soliq siyosati barqarorligini ta’minlashda nima ishlab chiqilishi lozim

- a) strategiyasi va taktikasi
- b) penyasi va taktikasi
- c) jarimasi va taktikasi
- d) byudjeti va taktikasi

71. Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e’tiborga olib soliq siyosati:

- a) soliq siyosati strategiyasi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi
- b) soliq siyosati tartibi va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi
- c) soliq siyosati mazmuni va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi
- d) soliq siyosati mohiyati va soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi

72. Soliq siyosati strategiyasida nima ifodalanadi?

- a) uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo‘nalishlari va chora-tadbirlari
- b) muayyan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlar
- c) mazmuni va soliq siyosati taktikasiga
- d) tartibi va soliq siyosati taktikasiga

73. Soliq siyosati taktikasi

- a) qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlar
- b) uzoqroq muddatga mo‘ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlar

- c) soliq siyosati kontseptsiyasi
- d) investistiya siyosati kontseptsiyasi

74. Soliq solishning majburiyligi printsipi keltirilgan qatorni toping.

- a) har bir shaxs belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shart
- b) har bir shaxs belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi ixtiyoriy
- c) har bir shaxs belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi emas
- d) har bir shaxs belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashi shartnomada asosida

75. Soliq solishning aniqligi printsipi keltirilgan qatorni toping.

- a) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar aniq bo‘lishi kerak
- b) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar imtiyozli bo‘lishi kerak
- c) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar preferetsiyali bo‘lishi kerak
- d) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar aniq bo‘lmasligi kerak

76. Soliq solishningadolatliligi printsipi keltirilgan qatorni toping

- a) soliq solish umumiyydir
- b) soliq solish ixtiyoriydir
- c) soliq solish majburiydir
- d) soliq solish asosiydir

77. Soliq tizimining yagonaligi printsipi keltirilgan qatorni toping

- a) soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan yagonadir
- b) soliq solish ixtiyoriydir
- c) soliq solish majburiydir
- d) soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart

78. Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliyi printsipi keltirilgan qatorni toping

- a) soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart
- b) soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to‘lovchilarga nisbatan yagonadir
- c) soliq solish majburiydir
- d) soliq solish asosiydir

79. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq tizimiga tegishli moddalarni ko‘rsating

- a) 51, 123
- b) 10, 51
- c) 14, 111, 4
- d) 100, 120, 2

80. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi?

- a) Davlat soliq xizmati organlari, Davlat bojxona xizmati organlari
- b) Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi
- c) Sud va prokuratura organlari

- d) Tijorat banklari

81. Amaldagi Soliq Kodeksi necha moddadan iborat?

- a) 483 moddadan
- b) 480 moddadan
- c) 184 moddadan
- d) 135 moddadan

82. Quyidagilardan qaysi biri soliq siyosatining huquqiy asosi hisoblanadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasining soliqqa oid qonunlari majmuasi
- b) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonuni
- c) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
- d) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

83. O‘zbekiston Respublikasining “Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 1991 yil 15 fevralda
- b) 1992 yil 9 dekabrda
- c) 1993 yil 7 mayda
- d) 1992 yil 27 oktyabrdan

84. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi quyidagilarning qaysi birining huquqlarini, majburiyatlarini, vazifalarini belgilaydi?

- a) soliq to‘lovchilarning
- b) chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning
- c) soliq organlarining
- d) faqat yuridik shaxslarning

85. Soliq imtiyozining turlarini ko‘rsating?

- a) To‘liq, qisman, vaqtinchalik.
- b) Butunlay ozod etish, oz muddatga ozod etish.
- c) Vaqtincha, uzoq muddatga, to‘liq.
- d) Qisqa muddatga, uzoq muddatli, butunlay.

86. Soliq majburiyati:

- a) Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.
- b) Jismoniy shaxslarning soliq to‘lovleri bo‘yicha majburiyati.
- c) Yuridik shaxslarning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.
- d) Davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati.

87. Soliq ma’murchiligi deganda

- a) soliq huquqi qoidalariiga tayangan qolda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimi
- b) soliqlarni tartibga solish, soliq organlari faoliyatini muvofiqlash
- c) soliq idoralariiga rahbarlik qilish va soliq siyosatini amalga oshirish
- d) mahalliy soliqlarni tartibga solish va tegishli qarorlar qabul qilish

88. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan soliq nazorati qanday shakllarda amalga oshiriladi?

- a) soliq tekshiruvlari va soliq monitoringi
- b) moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi va sayyor tekshiruv
- c) rejali va rejadan tashqari soliq tekshiruvi
- d) qisqa muddatli tekshirish

89. Soliq to'lash uchun daromadning miqdori, manbai, mulk hajmi va boshqalar xususida yozilgan ariza nima deyiladi?

- a) deklaratsiya
- b) hisobot
- c) xabarnoma
- d) blanka

90. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq vakolatlari organlarga qaysi organlar kiradi?

- a) Soliq organlari, Bojxona organlari hamda yig'implarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar
- b) Moliya vazirligi Soliq organlari va Bojxona organlari
- c) Moliya vazirligi, Adliya vazirligi Soliq organlari, Bojxona organlari
- d) Moliya vazirligi Soliq organlari hamda yig'implarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlar

91. Dividend bu nima?

- a) yuridik shaxsning foydasini uning aksiyadoriga tegishli aksiyalar bo'yicha taqsimlash chog'ida aksiyador tomonidan olingan har qanday daromad
- b) yuridik shaxsning aksiyadoriga tegishli aksiyalar ulushi bo'yicha aksiyadorga to'langan ish haqi tarzidagi daromad
- c) yuridik shaxsning aksiyadoriga tegishli aksiyalar ulushi bo'yicha aksiyadorga to'langan moddiy naf tarzidagi daromad
- d) yuridik shaxsning aksiyadoriga tegishli aksiyalar ulushi bo'yicha aksiyadorning shaxsiy pensiya jamg'armasiga ish haqi hisobidan o'tkazilgan daromad

92. Xodimlar tomonidan ish beruvchidan soliq davri mobaynida qiymati qancha bo'lgan natura shaklida olingan sovg'alari soliqqa tortilmaydi?

- a) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lган qiymatdagi
- b) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha bo'lган qiymatdagi
- c) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravarigacha bo'lган qiymatdagi
- d) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,82 baravarigacha bo'lган qiymatdagi

93. Xodimlar tomonidan ish beruvchidan soliq davri mobaynida qiymati qancha bo'lgan moddiy yordam soliqqa tortilmaydi?

- a) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravarigacha bo'lган qiymatdagi
- b) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,11 baravarigacha bo'lган qiymatdagi

c) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,41 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

d) mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2,82 baravarigacha bo‘lgan qiymatdagi

94. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5468-son farmoni qachon qabul qilingan?

- a) 29.06.2018 y
- b) 10.01.2018 y
- c) 20.03.2018 y
- d) 29.06.2017 y

95. 2020 yil prognoz ko‘rsatkichiga asosan Davlat byudjeti daromadlari tuzilmasida qaysi daromadlar katta ulushni tashkil etadi?

- a) bilvosita soliqlar
- b) bevosa soliqlar
- c) resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i
- d) soliqlardan tashqari boshqa davlat byudjeti daromadlari

96. Byudjet taqchilligi nima?

- a) byudjet taqchilligi - muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi
- b) byudjet taqchilligi - byudjet daromadlarinng xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi
- c) byudjet taqchilligi - byudjetning tashqi qarzlarni qaytara olish imkoniyatining yo’qligi
- d) byudjet taqchilligi -byudjet daromadlarining byudjet xarajatlari bilan muvofiqligi

97. Davlat byudjeti-

- a) davlatning davlat vazifalari va funktsiyalarini moliyaviy jihatdan ta’minalash uchun mo‘ljallangan markazlashtirilgan pul jamg‘armasi
- b) davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanimishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjalari bilan belgilanadi
- c) davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalanimadigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo’nalishlari va miqdori nazarda tutiladi
- d) davlat byudjetining qoraqalpog‘iston respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil yetuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo’nalishlari va miqdori nazarda tutiladi

98. Davlat byudjeti qaysi organ tomonidan qabul qilinadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan
- b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- c) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan

d) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan

99. Qaysi soliq davlat byudjeti daromadlarida eng yuqori salmoqni tashkil etadi?

- a) Qo‘shilgan qiymat solig‘i
- b) Aktsiz solig‘i
- c) Mol-mulk solig‘i
- d) Yer solig‘i

100. Soliqqa tortishning kadastrli usulining o‘ziga xos xususiyati nimada?

a) Soliqning to‘lanish payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog‘liq bo‘lmaydi.

- b) Soliqqa tortish ob’ektining kam yoki ko‘pligiga bog‘liq bo‘ladi.
- c) Soliq stavkalarining pastligida.
- d) Soliq imtiyozlarining nisbatan ko‘pligida.

101. Soliqlar bo‘yicha boqimandalikni yo‘qotishning so‘nggi chorasi nima?

- a) boqimanda korxonaning mulkini undirishga qaratish
- b) boqimanda g‘aznasidan naqd pullarni boqimandalikni tugatish xisob raqamiga ko‘chirish
- c) korxonaning xisob raqamidan qarz summasini undirib olish (inkassa talabnomasi orqali)
- d) xukumat komissiyasining hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga tulovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha qaroriga asosan qarz muddatlarini cho‘zish yoki qarzni qisman bekor qilish

102. Soliqlar vositasida qanday iqtisodiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatiladi?

- a) ishlab chiqarish strukturasiga va rivojlanishiga, ittga, tashqi savdo aloqalariga, tannarxni pasaytirishga, chet el kapitalini jalg qilishga ta’sir etadi
- b) soliqlar vositasida ishlab chiqarish faolligini rag‘batlantirish va aksincha cheklab turishi, shu yo‘l bilan u yoki bu tarmoqning rivojlanishini ta’milashi mumkin
- c) soliqlar vositasida ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini pasaytirishga imkoniyat yaratish mumkin; talab va taklifni moslashtirishga xizmat qilishi mumkin
- d) soliqlar vositasida ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoniga, uning tarkibiy tuzilishiga, dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotiga ta’sir etish mumkin

103. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga nisbatan soliq yuki qaysi darajada aniqlanadi?

- a) Mikrodarajada soliq yuki.
- b) Makrodarajada soliq yuki.
- c) Mezodarajada soliq yuki.
- d) Makrodaraja va mikrodarajada.

104. O‘zbekiston Respublikasi qaysi qonuniga yoki Prezidentining qaysi qaroriga asosan 2021 yil byudjet parametrlari tasdiqlandi?

- a) O‘RQ 657; PQ 4938;
- b) O‘RQ 589; PQ 4555;
- c) O‘RQ 714; PQ 4086;
- d) O‘RQ 722; PF 5486;

105. Soliqlarning qanday o‘ziga xos belgilari mavjud?

- a) Majburiylik, davlat byudjetiga tushishi, qat’iylik, ekvivalent sizlik
- b) Qaytarilishi, foizlilik, noaniqlik
- c) Majburiylik, foizlilik, muddatlilik
- d) Muddatsizlik, noaniqlik, ekvivalentlik

106. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash muddatlarini o‘tkazib yuborilgan har bir kuni uchun qancha miqdorda penya hisoblanadi.

- a) 0,045 %
- b) 0,05%
- c) 0,033 %
- d) 0,06%

107. “Soliq yukini kamaytirish hisobiga barchaga bir xil adolatli soliq rejimini joriy etish, soliq imtiyozlarini bosqichma-bosqich bekor qilish lozim” - degan fikr kimga tegishli.

- a) Mirziyoyev Sh.
- b) Smit A.
- c) Franklin B.
- d) Karimov I.

108. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda nollik stavka qachon qo‘llaniladi.

- a) Tovarlarni chet el valyutasida eksportga realizatsiya qilishga
- b) Ma’lumotlarni ishslash va axborot ta’limotiga doir xizmatlarga
- c) Kundalik ehtiyoj mahsulotlariga
- d) Stenografiya xizmatlarga

109. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmonida nechta tizimli muammo ko‘rsatib o‘tilgan?

- a) 7 ta
- b) 6 ta
- c) 5 ta
- d) 8 ta

110. “Fuqarolarimiz soliqdan qochish emas, uni vaqtida to‘lashdan manfaatdor bo‘lishi kerak”, - degan fikr kimga tegishli.

- a) Mirziyoyev Sh.
- b) Karimov I.
- c) Smit A.
- d) Franklin B.

111. Resurs soliqlariga.....lari kiradi.

- a) yer solig‘i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq, Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.
- b) yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, daromad solig‘i, suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq.
- c) yer solig‘i, mol-mulk solig‘i, benzin, dizel va gaz yoqilgisidan foydalanganlik uchun soliq.

d) mol-mulk solig‘i va daromad solig‘i.

112. O‘zbekiston Respublikasining “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-sonli Qonuni qachon qabul qilingan?

- a) 2020 yil 25 dekabrda
- b) 2019 yil 9 dekabrda
- c) 2019 yil 25 dekabrda
- d) 2020 yil 9 dekabrda

113. O‘zbekistonda 2020 yilda soliq turlari 13 tadan nechtaga kamaytirildi?

- a) 9
- b) 10
- c) 8
- d) 7

114. Iqtisodiyotni rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlarga beriladigan imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar nima deyiladi?

- a) Preferentsiya
- b) Rag‘bat
- c) Qarz
- d) Moliyaviy yordam

115. Jismoniy shaxslarning ish haqidan hisoblangan daromad solig‘ining summasini davlat byudjetiga o‘tkazib beruvchi shaxs bu?

- a) Soliq agenti
- b) Jismoniy shaxs
- c) Davlat soliq inspeksiyasi
- d) Moliya bo‘limlari

116. 1990 yillarning boshida mamlakatimizda QQS necha foiz etib belgilangan edi?

- a) 30%
- b) 25%
- c) 10%
- d) 50%

117. 2018 yilda jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq stavkalari necha foiz etib belgilangan edi?

- a) 0%, 7,5%, 16,5%, 22,5%
- b) 9%, 16%, 22%
- c) 8%, 16%, 22%
- d) 13%, 23%, 33%

118. 1990 yillarning boshida mamlakatimizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkasi necha foiz etib belgilangan edi?

- a) 40-50%
- b) 25-30%
- c) 15-20%
- d) 50-60%

119. Tovarlar narxiga kiritilgan va xaridor tomonidan to‘lanadigan soliqlar quyidagicha nomlanadi:

- a) Qo‘shilgan qiymat solig‘i
- b) Aktsiz solig‘i
- c) Foyda solig‘i
- d) Bojxona to‘lovi

120. Soliq (yig‘im) to‘lamaganlik uchun jarimaning miqdori qancha?

- a) 20 foiz
- b) 15 foiz
- c) 12 foiz
- d) 16 foiz

121. Xizmatlar ko‘rsatishda mustaqil ravishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etadigan, o‘z faoliyatidan daromad oladigan, YaTT sifatida ro‘yxatga olinmaydigan va yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydigan jismoniy shaxslar nima deb ataladi?

- a) o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar
- b) fermer xo‘jaligi rahbari
- c) avtomobil ta’mirlovchilar
- d) muassislar

122. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar _____ orqali ro‘yxatdan o‘tishi mumkin.

- a) “Soliq” mobil ilovasi
- b) soliq inspeksiyasiga borish
- c) qo‘ng‘iroq qilish yoki xat yuborish
- d) yagona darcha orqali

123. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishning afzalliklari nimada?

- a) Hamma javob to‘g‘ri
- b) “Soliq” ilovasida mahsulot va xizmatlarni bepul reklama qilish
- c) “Soliq” ilovasi orqali buyurtmalarni qabul qilish
- d) Ish staji va pensiyaga ega bo‘lish

124. 2020 yilda yagona ijtimoiy to‘lov o‘rniga joriy etilgan soliq – bu?

- a) Ijtimoiy soliq
- b) Aylanmadan olinadigan soliq
- c) Qat’iy belgilangan soliq
- d) Yagona soliq to‘lovi

125. 2020 yilda yagona soliq to‘lovi o‘rniga joriy etilgan soliq – bu?

- a) Aylanmadan olinadigan soliq
- b) Ijtimoiy soliq
- c) Qat’iy belgilangan soliq
- d) Yagona ijtimoiy to‘lov

126. 2020 yilda jismoniy shaxslarning deklaratsiya topshirish muddati qachon?

- a) 1 avgustgacha
- b) 1 aprelgacha

- c) 15 aprelgacha
- d) Deklaratsiya topshirish bekor bo‘lgan

127. 2021 yilda jismoniy shaxslarning deklaratsiya topshirish muddati qachon?

- a) 1 aprelgacha
- b) 1 iyungacha
- c) 1 avgustgacha
- d) Deklaratsiya topshirish bekor bo‘lgan

128. Jismoniy shaxslar tomonidan ijaraga berilgan mol-mulki uchun daromad solig‘i necha foiz?

- a) 12%
- b) 7%
- c) 10%
- d) 20%

129. Kimning ta’lim kontrakti uchun o‘tkazilgan ish haqlaridan daromad solig‘i ushlanmaydi?

- a) hamma javoblar to‘g‘ri
- b) fuqaro o‘zining kontraktiga o‘tkazsa
- c) 26 yoshga to‘lmagan farzandining kontraktiga o‘tkazsa
- d) 26 yoshga to‘lmagan erining (xotinining) kontraktiga o‘tkazsa

130. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan jismoniy shaxs nima deb ataladi?

- a) yakka tartibdagi tadbirkor
- b) ish yurituvchi
- c) kichik firma rahbari
- d) oilaviy tadbirkor

131. Jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘i iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra qanday soliq?

- a) to‘g‘ri soliq
- b) egri soliq
- c) mahalliy soliq
- d) resurs soliq

132. Tovarlarni eksport qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘i qanday stavkada hisoblanadi?

- a) nol darajali
- b) 15 foizli
- c) 12 foizli
- d) tovarlarni eksport qilishda imtiyoz qo‘llanilmaydi

133. Ipoteka kreditlarini va ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami qancha so‘mgacha bo‘lgan miqdorda qoplashga yo’naltirilganda daromad solig‘idan imtiyoz qo‘llaniladi?

- a) 15 mln. so‘mgacha
- b) 10 mln. so‘mgacha
- c) 5 mln. so‘mgacha
- d) 3 mln. so‘mgacha

134. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari qaysi me'yoriy hujjat bilan belgilanadi?

- a) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan
- b) O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonuni bilan
- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan
- d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

135. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasi necha foiz?

- a) 12 foiz
- b) 13 foiz
- c) 15 foiz
- d) 9 foiz

136. Rezident jismoniy shaxslarning dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

- a) 5 foiz
- b) 12 foiz
- c) 10 foiz
- d) 6 foiz

137. Norezident jismoniy shaxsning dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

- a) 10 foiz
- b) 6 foiz
- c) 20 foiz
- d) 5 foiz

138. Norezident jismoniy shaxsning fraxtdan olinadigan daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

- a) 6 foiz
- b) 20 foiz
- c) 5 foiz
- d) 12 foiz

139. Norezident jismoniy shaxsning mehnat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar bo'yicha olingan daromadlariga necha foizlik stavkada soliq solinadi?

- a) 20 foiz
- b) 12 foiz
- c) 10 foiz
- d) 6 foiz

140. Jismoniy shaxslar tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya qachongacha taqdim etiladi?

- a) hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay
- b) hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay
- c) hisobot yilidan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay
- d) hisobot yilidan keyingi yilning 15 yanvaridan kechiktirmay

141. Rezidentga aylangan chet ellik jismoniy shaxs oldingi soliq davri uchun jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiyani qachongacha taqdim etadi?

- a) joriy yilning 1 apreliga qadar
- b) joriy yilning 1 fevraliga qadar
- c) joriy yilning 1 martiga qadar
- d) joriy yilning 5 yanvariga qadar

142. Deklaratsiyada aniqlangan xatolar to‘g‘risida xabarnomani olgan soliq to‘lovchi necha kun ichida deklaratsiyaga zarur bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritishi shart?

- a) 10 kun ichida
- b) 15 kun ichida
- c) 5 kun ichida
- d) 3 kun ichida

143. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar deklaratsiya asosida hisoblab chiqarilgan soliqni qaysi sanasidan kechiktirmay to‘lashlari kerak?

- a) 1 iyunidan
- b) 1 mayidan
- c) 1 iyulidan
- d) 1 apreldidan

144. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar dastlabki tarzdagi deklaratsiyani qaysi muddatda taqdim etadi?

- a) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 5 kun muddatda
- b) ijara shartnomasi tuzilgan kundan e’tiboran 5 kun muddatda
- c) ijara sharnomasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan e’tiboran 5 kun muddatda
- d) ijaradan daromadlar paydo bo‘lgan kundan e’tiboran birinchi oy tugaganidan keyin 3 kun muddatda

145. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to‘loving eng kam stavkalari qaysi qaysi me’yoriy hujjat bilan belgilanadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan
- b) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan
- c) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan
- d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

146. Mol-mulk ijarasi bo‘yicha yil mobaynida to‘langan va yilik hisoblangan soliq summalari o‘rtasidagi farq qachongacha soliq to‘lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi lozim?

- a) kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay
- b) kelgusi yilning 15 apreldidan kechiktirmay
- c) kelgusi yilning 1 mayidan kechiktirmay
- d) kelgusi yilning 15 oktyabridan kechiktirmay

147. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani qachongacha topshiradi?

- a) hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldidan kechiktirmay
- b) hisobot yilidan keyingi yilning 1 martidan kechiktirmay
- c) hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay
- d) hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay

148. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar deklaratsiya asosida necha foizlik daromad solig‘ini to‘laydi?

- a) 12
- b) 10
- c) 20
- d) 5

149. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashning necha xil tartibi mavjud

- a) 2 xil
- b) 3 xil
- c) 4 xil
- d) 1 xil

150. Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari daromad solig‘ini to‘lash tartibini tanlash to‘g‘risidagi bildirish xatini belgilangan muddatda taqdim etmasa qanday tartibda soliq to‘laydi?

- a) daromad solig‘ini qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘laydi
- b) daromad solig‘ini deklaratsiya asosida to‘laydi
- c) o‘zi xoxlagan tartibda daromad solig‘ini to‘laydi
- d) daromad solig‘i o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi

151. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliq summalar qaysi me’yoriy xujjat bilan tasdiqlanadi?

- a) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan
- b) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan
- c) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan
- d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

152. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani qachongacha taqdim etadi?

- a) hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay
- b) joriy yilning 1 fevralidan kechiktirmay
- c) har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 15-sanasidan kechiktirmay
- d) joriy yilning 5 yanvaridan kechiktirmasdan

153. Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan deklaratsiya asosida to‘lanadigan daromad solig‘i stavkasi qaysi me’yoriy hujjat bilan belgilangan?

- a) O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan
- b) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risidagi Qonuni bilan
- c) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan
- d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan

154. Yakka tartibdagi tadbirkorlar deklaratsiya asosida daromad solig‘ini necha foizlik stavkada to‘laydi?

- a) 12 foiz
- b) 5 foiz
- c) 10 foiz
- d) 6 foiz

155. Daromadlari yuz million so‘mdan oshgan yakka tadbirkorlar soliq to‘lash tartibini tanlash bo‘yicha bildirishnomani taqdim etmasa qanday soliq to‘laydi?

- a) aylanmadan olinadigan soliq to‘laydi
- b) foyda solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘laydi
- c) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini deklaratsiya asosida to‘laydi
- d) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini qat’iy belgilangan miqdorlarda to‘laydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr. –T.: “Adolat”, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risidagi qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi. 1997 yil, 29 avgust
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 iyundagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3802-son Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi to'g'risida»gi PF-5468-son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 31 maydag'i “Imtiyozlar va preferentsiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3756-son Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldag'i “Soliq ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5116-son Farmoni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2699-sonli Qarori
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-3454-sonli Qarori
10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T: “O'zbekiston” NMIU, 2018. 55-bet
12. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018. – 592 b.
13. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2018. – 498 b.
14. Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “IQTISOD-MOLIYa”, 2019. -408 b.
15. Jo'rayev A.S., Usmanova M.S., Amanov A.M., Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 432 b.
16. Jo'rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Sano-standart”, 2015. - 216 b.
17. Jo'rayev A., Safarov G., Meyliyev O. Soliq nazariyasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. –324 b.

18. Jo‘rayev A., Shirinov S. Soliq statistikasi va prognozi. O‘quv qo‘llanma. – Т.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2015. -391 b.
19. Гадоев Э.Ф. Налог на доходы физических лиц. Учебное пособие. –Т.: Норма 2011 г. - 312 стр.
20. Usmanova M.S. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. - Т.: “Tamaddun”, 2013 y.144 b.
21. Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Akademiya. - Т.: 2007. - 214 b.
22. Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. –М.: “Бератов-Пресс”. 2002. Стр. 121-134.
23. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. – М.: “Кнорус”. 2004.
24. Беляев Ю.А. Бюджетный федерализм: зарубежный опыт. –М.: Финанси, 2007 г.
25. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций. Учебник. –М.: «КноРус», 2018. -512 с.
26. Майбуров И.А. Налоги и налогообложения. Учебник. –М.: «ЮНИТИ», 2016. -487 с.
27. Макконел К., Брю С. Экономикс: Принципы, проблемы и политика. В 2 т.: Пер. с англ. 11-го изд., Т.1. – М.: Республика, 2002. – с.120.
28. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: более 60 законных схем. –М.: «АйСи», 2017. -360 с.
29. Пансков В.П., Князев В.Г. Налоги и налогообложения. –М.: МСФЕР, 2003. –с. 57-59.
30. Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Юрайт”, 2012
31. Поляк Г. Налоги и налогообложение. –М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 46
32. Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. –СПб.: “ПИТЕР”. 2005. стр. 51
33. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. –М.: “Финансы и статистика”. 1993. стр. 62
34. Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: ИНФРА-М. 2003. стр. 45
35. Черник Д.Г. Теория и история налогообложения. Учебник. –М.: «Юрайт», 2016. -364 с.
36. Откина Т. Налоги и налогообложение. –М.: “ЮНИТИ”. 2002. стр. 82
37. Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. р. 258.
38. IBFD. Publications. European Tax Handbook-2002. р. 59.
39. James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 е. р. 121-128.

Internet saytlari

1. www.cbu.uz
2. www.economist.com

3. www.edu.uz
4. www.gov.uz
5. www.lex.uz
6. www.rambler.ru
7. www.soliq.uz
8. www.stst.uz
9. www.tdpu.uz
10. www.worldeconomics.com
11. www.yandex.ru
12. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA:

Kirish	3
1. “Soliq va soliqqa tortish” fanining predmeti va o‘rganish usullari	
1-§. liqlar va soliqqa tortish fanini o‘qitishning zarurligi, predmeti va funksiyalari.	5
2-§. Umum davlat va mahalliy soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlar, soddallashtirilgan soliq tizimiga o‘tgan yuridik va jismoniy shaxslar.	7
3-§. To‘g‘ri va egri soliqlarning tarkibi va ularning byudjet daromadlaridagi ahamiyati.	11
4-§. Soliq tiziminining huquqiy asoslari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatları.	13
5-§. Xorijiy davlatlarda soliqlar asosida iqtisodiyotni tartibga solish nazariyasi va amaliyoti tahlili.	16
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
1-§. Foyda solig‘ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.	21
2-§. Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob‘ekti va soliq bazasi.	23
3-§. Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.	24
4-§. Soliq stavkalari va soliqdan imtiyozlar.	55
5-§. Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni byudjetga to‘lash muddatlari.	58
6-§. Rivojlangan horijiy davlatlarda yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortishning o‘ziga xosligi.	60
3. Soliq solishning soddallashtirilgan tartibi	
1-§. Yagona soliq to‘lovi.	65
2-§. Savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish.	81
3-§. Yagona yer solig‘i.	85
4-§. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.	87
5-§. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda savdo va umumiyligi ovqatlanish hamda qishloq xo‘jalik korxonalarini soliqqa tortishning ilg‘or tajribalaridan foydalanish masalalari.	97
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
1-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining mohiyati, soliq to‘lovchilar, soliq ob‘ekti va bazasi.	101
2-§. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.	102
3-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari.	103
4-§. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar.	105
5-§. Chet ellik jismoniy shaxslarning daromadiga soliq solishning xususiyatlari.	110
6-§. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi.	111
7-§. Hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to‘lash tartibi.	112

8-§.	Jismoniy shaxslar daromad solig‘ini hisoblash uslubiyatini takomillashtirishda ilg‘or xorij tajribalaridan foydalanish yo‘llari...	116
5. Qo‘shilgan qiymat solig‘i		
1-§.	Qo‘shilgan qiymat solig‘i haqida tushuncha. Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.	121
2-§.	Soliq to‘lovchilar tarkibi, soliq ob’ekti va soliq stavkalari.	123
3-§.	Soliq imtiyorlari.	130
4-§.	Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartiblarining o‘ziga xos xususiyatlari.	134
5-§.	Qo‘shilgan qiymat solig‘ini byudjetga to‘lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari.	136
6-§.	Import tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash tartibi.	139
7-§.	Qo‘shilgan qiymat solig‘ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o‘zlashtirish masalalari.	140
8-§.	Qo‘shilgan qiymat solig‘ining xorijiy davlatlarda undirishning ijobiy tajribalarini o‘zlashtirish masalalari.	146
“SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN GLOSSARIY	150	
“SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH” FANIDAN TESTLAR	156	
TO‘PLAMI	
FOYDALANILGAN ADABIYotLAR RO‘YXATI	180	